

Tarannum

2025-yil 3-son



FALSAFA / FILOLOGIYA / PEDAGOGIKA / TEXNIKA / QISHLOQ XO'JALIGI

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**“IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI” ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI**

“TARANNUM”

**ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy,
publitsistik jurnal**

2026/1 (№3)

Bosh muharrir:

Zuxra Ismailova – p.f.d., professor

Tahrir hay’ati:

Professor O.Musurmonova, professor J.Shermuxammedova,
professor M.Qaxxorova, D.Solixo‘jayeva,
professor M.Shaumarova, professor R.Gaziyeva,
professor Sh.Uljayeva, Sh.Ismailova, professor O.Jamolidinova,
p.f.d. D.Mustafayeva, I.Seytnazarova
q.x.f.d., professor Xamidov Muxammadxon Xamidovich,
q.x.f.d., professor Isaev Sobrjon Xusanboevich,
q.x.f.d., professor Norqulov Usmon

Nashrga tayyorlovchilar:

M.Tursunova, Q.Kidirbayev

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2023-yil 31-martda ro‘yxatga olingan,
guvoohnoma raqami 071832

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	4
INTERVYU	
Jamoldinova Odinoxon Rasulovna.....	7
ILMIY TADQIQOT NATIJALARI	
Abdullayeva Madinabonu Akmaljon qizi – THE IMPORTANCE OF CREATIVE TASKS IN THE LEARNING OF ENGLISH BY PRESCHOOL CHILDREN.....	12
Achilova Dilnoza Axmatovna – MUHANDISLIK GRAFIKA MASALALARNING MURAKKABLIK VA QIYINLIK DARAJASINI MIQDORIY VAHOLASH METODIKASI.....	17
Ажиниязова Мехрибан Койлыбаевна, Бакирова Мийиргул Бекмурза Кизи – ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	24
Aminova Shoira Yuldashevna – BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA MATEMATIKA FANI VA UNI O‘QITISH METODIKASI KURSLARINI INTEGRATSIYALASH DARS TAJRIBASI.....	25
S.A. Arzimbetova – INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI “HEAD / BAS” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSIY TADQIQI.....	28
Arzimbetova S.A., Khojaniyazova Gulnawriz Rustem qizi – STRUCTURAL AND SEMANTIC CLASSIFICATION OF “HEAD / BAS” SOMATIC IDIOMS IN ENGLISH AND KARAKALPAK.....	31
Bayjanov Babil Baxadirovich – TALABALAR HUQUQBUZARLIGINING OLDINI OLISH MEKANIZMLARI TAHLILI: XORIJIY TAJRIBALAR.....	34
Djanturayeva Dinara Pardabekovna – THE EFFECTIVE USE OF VIDEO MATERIALS IN DEVELOPING LEARNERS’ SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH.....	40
Do‘stmammedova Gulhayo Do‘stmuxamedovna – UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABI O‘QUVCHILARINI MUSIQIY TO‘GARAKLAR VOSITASIDA KASBGA YO‘NALTIRISH.....	43
Erimbetova Ziliyxa Biymbetovna – QARAQALPAQSTAN SHARAYATIDA EKOLOGIYALIQ FAKTORLAR MENEN BAYLANISLI KESELLIKLERDI UYRENIW NAM OQITIW MASHQALALARI.....	46
Ismailova Zuxra Karabayevna – RAHBAR XODIMLARINI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
Жабарова Люция Алиевна, Аллаберганова Гаухар Шакировна – ЦИФРОВОЙ СЛЕД ШКОЛЬНИКА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ Я-КОНЦЕПЦИИ....	61
Kdirniyazova Oralxan Asamatdinovna – ZAMONAVIY JAMIYATDA OILA INSTITUTINING "MAQOMI" VA YOSHLARNING OILAVIY QADRIYATLARI.....	66
Ilkhom Khaydarov, Bakhtigul Isakulova, Yelim Kim, Ulugbek Nullayev, Guzal Eshchanova – REIMAGINING EDUCATION THROUGH DIGITAL INNOVATION: A COLLABORATIVE FRAMEWORK FOR TRANSFORMING HIGHER EDUCATION...	69
Kudaybergenova Gulparshin Polatbaevna – QORAQALPOQ TILIDA BADIY TAK-	

RORNING O'RGANILISHI.....	73
Ma'murova Shahlo Olimovna – “MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK – MAMLAKAT BARQARORLIGINING KAFOLATI”.....	78
Мамбетниязова Замира Турдыбаевна – ПУТИ И МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ОБУЧЕНИЯ ЖЕНЩИН И ДЕВУШЕК ПРОФЕССИИ.....	82
Мустафоев Акбар Мустафо ўғли – ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ ХАРАЖАТЛАРИНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	87
Pulatova Dildora Turgunovna – CHILDREN'S COGNITIVE SKILLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	94
N. Rametullaeva – ADABIY VA TARIXIY MANBALARNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI (Qoraqalpog'iston OTMlari misolida)	98
Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna – NARRATIV TAFAKKUR VA EMOTSIONAL INTELLEKT O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG'LIQLIK.....	101
Сейтжанов Жеткер Елубаевич – ИНТЕРВЬЮ ЖАНРИДА УНДАЛМАЛАРНИНГ ВОҚЕАЛАНИШИ.....	106
Seytnazarova Injayim Erjanovna – TILEWBERGEN JUMAMURATOV SHIĞARMALARI TILINDE GRADACIYA QUBILISI.....	110
Shamuratova Nagima Genjemuratovna, Menlimuratova Saxipjamal Jenisbaevna – OROL QUM HUDUDIDAGI SAKSOVULZORLARDA SHISHISH HOSIL QILUVCHI ZARARLI HASHAROTLAR – GALLITSALAR HAQIDA MALUMOT.....	123
S.Shunnazarova – ANTROPOCENTRISTLIK PARADIGMADA SOMATIKALÍQ FRAZEOLOGIZMLERDIN XÍZMETI.....	117
Urazimbetova Zuxra Uzakbaevna – IMPLEMENTATION OF AUTHENTIC MATERIALS IN KARAKALPAK SCHOOLS.....	121
Usmanova Elmira Tashmuxeimetovna – KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOY MOSLASHUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI..	126
Zayrova Qanshayim Muratbayevna – QORAQALPOQ TILI ETNOLINGVISTIKASIDA “YETTI” SAKRAMENTAL SONINING QO'LLANILISHI.....	130
Nurillayev Xamza Qudaibergenovich – INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI “KO'Z” SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI....	134
Xolbayeva Dildora Azizovna, Saidov Axmatsulton Abdumannobovich – MAVZU: PEDAGOGIK TA'LIMDA DRAMATIK TEXNIKALAR VA MUSIQA MADANIYATINING REFLEKSIV-TA'SIRCHAN YONDASHUVI.....	137

SHE'RLAR

N.B. Shamsiddinov – QO'RQUV.....	144
Ochilova Mushtariy Behzod qizi – HAYOT.....	146
Matkarimov Ulug'bek Murodjon o'g'li - FENOMEN YODI.....	147
Xolmatov Madaminjon Muxammadjon o'g'li – SOG'INGANMAN.....	148
Maxmudova Laylo Maxsud qizi – MEN ONAMNI BAXTLI QILAMAN.....	149
To'xtaboyeva Gulbahor Azimboy qizi – DIL OYNASI, YOSHLIK, SEVGI.....	150
Мирзохид БЕКМИРЗАЕВ	151

SO‘ZBOSHI

*«Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning
madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan
munosabati bilan belgilanadi»*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Sharqda oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e‘zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan. va shunday bo‘lib qoladi. Ilm-fan markazi, tamaddun beshigi hisoblanmish jannatmakon diyorumizda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimiz ham qadimdan ayollarni izzat-ikrom qilib, oilada, farzand tarbiyasi ularning o‘rni va hurmati naqadar yuksak ekanini kelajak avlodga uqdirib kelishgan. Boisi, ayollarimiz borki hayotimiz go‘zal va mazmunli, xonadonlarimiz saranjom-sarishta, obod va nurafshondir.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan barcha islohotlarning mazmuni, jamiyatda “Inson qadri uchun” tamoyilini qaror toptirishga yo‘naltirilgan. Munis va mo‘tabar ayollarimizning og‘irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Muhtaram Prezidentimizning “Agar biz xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak” – degan fikrlarida bugungi kunning haqiqati mujassam.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanishi bejizga emas.

Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ilm-fan sohasida izlanayotgan xotin-qizlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, olima ayollar tajribasini ommalashtirish, ularning ilmiy-tadqiqot va izlanishlar olib borishi uchun sharoit yaratish, innovatsion ishlanmalarini hayotga tatbiq etish va ilmiy to‘plamlarini nashr qilishga ko‘maklashish borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda universitetimizdagi faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar va talaba-qizlar to‘g‘risida ikki og‘iz aytib o‘tmoqchiman. Universitetimizda bugungi kunda xotin-qizlar jamoasi jami 415 nafarni tashkil etib, shundan 170 nafari professor-o‘qituvchilarni tashkil etadi. Ularning orasida 11 nafar fan doktori va professor, 33 nafar fan nomzodi (PhD) va dotsentlarning borligi biz uchun katta sharaf. Shu bilan barga, 11 nafar ayollarimizning rahbarlik lavozimida olib borayotgan ishlari ham o‘rnak olsa arzigulikdir.

So‘nggi yillarda universitetimiz xotin-qizlari jamoasi barcha jabhalarda o‘z iqtidorlarini namoyon etib kelmoqdalar. Ular tomonidan tashkil etilayotgan turli tadbirlar, ko‘rik tanlovlar, xalqaro konferensiyalar jonajon ta‘lim maskanimiz obro‘-e‘tiborini respublika, qolaversa xalqaro miqyosda ham oshirmoqda.

“Yosh olima” ayollar, “Olima-qizlar”, “Lider qizlar” klublari va uning qoshida “Oqila ayollar” jamoatchilik guruhi bugungi kunda universitetimizning barcha fakultetlaridan barcha

sohalarda shaxsiy namuna bo‘la oladigan, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan va doimiy ravishda o‘z ustida ilmiy izlanishlar va tajribali, salohiyatli faol ayol professor- o‘qituvchilar, tayanch doktorantlar va iqtidorli talaba-qizlarni o‘zida jamlagan. Ushbu jurnal-almanaxida nomlari zikr etilgan ko‘plab ayollarimiz ilmiy unvon va darajalarga erishganliklari va tayanch doktorantlarimiz, iqtidorli va ijodkor talaba-qizlar jamoamizning faxri va yutug‘idir. Ayollari jamoasi tomonidan bugungi kunda qariyb oxirgi yillarda 200 nomda darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy ishlanmalar chop etilgan. Shu bilan birga tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar tomonidan ilmiy ishlarini vaqtida himoyasi bo‘layotganligi va ilmiy darajalarga erishib, universitet salohiyatini ko‘tarib kelmoqdalar. Bu albatta ularning samarali mehnati natijasi hisoblanib xotin-qizlarimiz ham salohiyat jihatdan erkaklarimizdan kam emasligi isbotidir!!!

Universitetimiz xotin-qizlarimi orasida o‘z halol mehnati, fan yo‘lidagi fidoiyligi, shogirdparvarligi bilan mamlakatimizning yuksak mukofotlari, jumladan, “Mehnat shuhrati” “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi”, “Suv xo‘jaligi a‘lochisi”, “Oliy ta‘lim a‘lochisi”, “Ma‘naviyat targ‘ibotchisi”, “Mo‘‘tabar ayol” ko‘krak nishonlariga loyiq topilganligini alohida qayd etishni lozim deb hisoblayman. Albatta, bu kabi ayollarimiz barchamiz uchun o‘rnak namunasidir.

Mazkur ilmiy-ommabop, ma‘naviy-ma‘rifiy va publitsistik jurnal universitetda mehnat qilayotgan xotin-qizlarimiz, jumladan professorlar, dotsentlar, fan doktorlari (DSe), fan nomzodlari (PhD), xodimlar va tyuterlar (murabbiy), ilmiy ish bilan shug‘ullanuvchi tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli talaba-qizlarning faoliyatlari va ilmiy maqolalari, ijod namunalari to‘g‘risida ma‘lumotni o‘zida jamlagan bo‘lib ularning har biri faoliyati bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Boshlagan ishimiz kattadan katta rejalarimizning debochasi hisoblanib, yaqin kelajakda jurnalning keyingi sonlarini ham chop etish maqsadlarimizdan biridir. Ushbu jurnal barcha o‘quvchi auditoriyasiga mo‘ljallangan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ilm yo‘li barcha uchun keng ochildi. Ana shunday zalvorli, qolaversa mashaqqatli yo‘lda muhtarama ayollarimiz, ularning davomchilari bo‘lgan iste‘dodli qizlarimizning munosib vakillari ilm mayog‘ini boshi uzra baland ko‘targanicha oldinga intilmoqda. Bu yo‘lda ularga ulkan zafarlar tilayman.

Biz tomonimizdan nashr etilayotgan bu jurnal aynan nafaqat universitetimiz, balki respublikada faoliyat yuritayotgan, ilmiy ishlar olib borayotgan ayol professor –o‘qituvchilar, ijodkorlik sohasda o‘zlarini sinab ko‘rayotgan talaba-qizlarning ilmiy ishlari natijalarida yaratilgan maqolalari, she‘rlari, faoliyatlari natijalarini ilmiy jihatdan yoritib borish ko‘zda tutilgan. Bu borada barcha bizni kuzatib borayotgan jamoaga faqat omadlar tilab qolamiz.

INTERVYU





JAMOLDINOVA ODINAXON RASULOVNA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori. Oliy ta'lim a'lochisi. Respublika "Oqila ayollar" harkati a'zosi

1. Ilk ilmiy faoliyatingizni boshlashingizga asosiy turtki nima bo'lgan?

Bir kuni darsda o'tirganimizda ustozimiz pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Fotima Yusupovaning yonlariga bir shogirdlari kirib keldi. Ular biroz suhbatlashib, rejalarini kelishib oldilar. Ustozimiz shogirdlarini bizga tanishtirib, "Bu Feruza opangiz. Sizlardan oldin institutni tamomlab, hozir aspiranturada o'qiyapti. Agar sizlar ham yaxshi o'qisangiz, aspiranturada o'qib, ilmiy ishlarni yoqlab, olim bo'lasizlar" - dedilar. Ustozimizning ana shu gaplari mening qulog'imga "oltin isirg'a" bo'lib taqildi, menda juda katta umid va kelajagimga ishonch uyg'ondi.

Keyin ustozlarimiz bizni har yili aprel-may oylarida o'tkaziladigan talabalar konferensiyasiga tayyorlay boshladilar. Yil davomida tanlangan muammo, mavzu doirasida materiallar to'plash, tahlil qilish, maqola yozishni o'rgatishdan, yozib kelgan materiallarimizni ko'rib, o'zlarining tavsiyalarini berishdan erinmas edilar. Konferensiyada ma'ruza qilish biz uchun juda sharaf edi, jiddiy tayyorgarlik qilindi.

Chunki ko'plab ustozlarimiz ilmiy ma'ruza bilan chiqqanimizdan keyin yutuq va kamchiliklarimizni aytib, keyingi jarayonlarga yanada yaxshi tayyorlanish uchun ko'rsatmalar berardilar.

2. Ilm-fan olamida o'z o'ringizni topish jarayonida qanday sinov va qiyinchiliklardan o'tgansiz?

Ilm-fanda ustozlarga ergashish, ularning etagidan mahkam tutish, yaxshi ustozga shogird bo'lish erishadigan yutuqlaringizning kafolati. Chunki yaxshi ustoz Sizga ilm sirlarini egallash yo'llarini ko'rsatadi, qiyinchiliklarini yengib o'tishga o'rgatadi, tinimsiz izlanishni talab qiladi.

Men institutni tamomlab aspiranturaga kirish niyatida bo'lganim uchun tezda hujjatlarimni tayyorlab, imtihonlarni topshirib, kunduzgi bo'limga aspiranturaga qabul qilindim.

Ilmiy rahbarim, ustozim pedagogika fanlari doktori, professor Oynisa Musurmanova ilm-fanda o'z yo'limni topishimda har qanday sinov va

qiyinchiliklarni yengib o'tishimda hamisha to'g'ri yo'l ko'rsatdilar.



Meni shogirdlikka olishlarida ham o'zlari sinovdan o'tkazganlar. A.Navoiy nomidagi kutubxonaga birga borardik, kataloglar, adabiyotlar bilan ishlar edik. Haftalab-oylab kutubxonada muntazam ishlar edik. Ana shu jarayonlarda menda ilmga bo'lgan intilishni, sabr-toqat bilan ishlashni sinovdan o'tkazgan ekanlar (albatta buni himoya qilib bo'lganimdan keyin aytib berganlar).

Yana shuni alohida ta'kidlashni istardim, qiz bolani ilmga intilishini qo'llab-quvvatlashda ota-onaning o'rnini alohida, ularning ishonchi Sizga kuch beradi. Va albatta oilangizda turmush o'rtog'ingiz va farzandlaringizning ko'magi juda katta madad bo'ladi.

Ota-onamning menga bo'lgan ishonchlari, ustozimning talabchanliklari va oilamning ko'magi bilan har qanday sinovlarni oson yengib o'tdim.



3. Tadqiqot yo'nalishingizni tanlashda qaysi omillarga tayangansiz?

Albatta, tadqiqot yo'nalishimni, tanlagan mavzuim va ilmiy muammoning mutaxassisligimga mos bo'lishiga. Chunki mustahkam poydevorga ega bo'lmagan holda, shu sohadagi muammoni ichiga kirmagan holda unga qanday yechim topish mumkin.

Va albatta, tanlagan tadqiqot ishining dolzarbligiga. Men olib borayotgan tadqiqot ishim aynan shu sohada yechimini kutayotgan muammoning ilmiy-amaliy yechimini topshiga qaratilishi muhim. Zero, olingan natijalar sohani rivojlantirishga xizmat qiladi.



4. Yaratgan ilmiy ishlaringiz orasida shaxsan siz uchun eng ahamiyatlisi qaysi va nega?

Menning olib borgan tadqiqot ishlarim ilm-fan olamida birra zarra bo'lishi mumkin. Chunki ilm ummon. Qancha o'rgansak ham hali hech narsa bilmasligimizni buyuklar aytib o'tishgan.

Albatta nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarimda yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish, sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish ustida ish olib bordik. Tadqiqotimiz natijalari amaliyotga tatbiq etildi.

Bugungi kunda raqamli ta'lim muhitida pedagogika fanlarini o'qitish, ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, oliy ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlashning samarali mexanizmlari, talaba-qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari ustida izlanishlari olib boryapmiz.

5. Bugungi yoshlar bilan ishlashda qaysi yondashuvni eng samarali deb hisoblaysiz?

Har bir yoshning shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv bo'lishi kerak. Shunda uning imkoniyatlarini to'liq ishga solishga, kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga erishiladi.

Kolloborativ yondashuv. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda hamkorlikka asoslangan yondashuv bo'lishi juda muhim. Bu orqali yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, tadqiqot muammolari doirasida hamkorlik bilan ishlash, o'z fikrini bayon qilish, tahlil va tanqid qilish, ilmiy xulosalar chiqarishga o'rganadi.



Raqamli muhitda ishlashga kompetentligi bugun zamon talabi. Bugun barcha soha raqamlashtirilmoqda. Ayniqsa, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanar ekanmiz ularning vitrual olamiga kirib borishimiz, zararli ta'sirlardan himoya qilish va foydali tomonlarga yo'naltirish biz pedagoglarning vazifamiz.

6. Zamonaviy mutaxassisni shakllan-tirishda qaysi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur, deb o'ylaysiz?

Mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Xorijiy tillarni bilishi uning yuqori natijaga erishishi kafodati.

Bugungi kunning yoshlarida daxldorlik hissini kuchaytirish kerak.



7. Erishgan e'tirof va yutuqlaringiz sizga qanday mas'uliyat yukladi?

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida, Hukumat qarorlarida ta'lim, ilm-fan sohasini yana rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar va belgilangan vazifalarni amalga oshirish, hayotga tatbiq etilishida oldingi saflarda bo'lish mas'uliyatini yuklaydi.

Shu bilan birga pedagog-olima ayol sifatida bugun jamiyatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan davlat siyosatini o'zimning hayotim, mehnat faoliyatim misolida ko'rsatish orqali qizlarimizni ilm olishga, jamiyatning faol xotin-qizlari qatorida bo'lishga undash, ularga har tomonlama o'rnak bo'lish mas'uliyatini yuklaydi.

8. Sizga eng katta ilhom beradigan, yanada oldinga harakat qilishga undovchi kuch nima?

Mehnat qilayotgan sohamni, pedagoglik kasbimni sevishim.

O'zimga o'xshagan pedagoglarni tarbiyalash, o'z vataniga sodoqat bilan xizmat qiladigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan intilishim menga kuch beradi.

9. Bugun yoshligingizga qaytish imkoniyati bo'lsa, o'sha paytdagi o'zingizga qanday nasihat bergan bo'lardingiz: koyir edingizmi yoki aksincha, qo'llab-quvvatlarmidingiz?

Albatta qo'llab-quvvatlagan bo'lardim. Faqat o'zimga xorijiy tillarni mukammal egallash talabini ham qo'ygan bo'lardim.

Ta'lim olishda bugungidek imkoniyatlar bo'lganda, ularning barchasidan foydalanishga intilgan bo'lardim.

10. Odina ustoz, ko'p yillik ilmiy va pedagogik tajribangizdan kelib chiqib, yosh tadqiqotchilarga beradigan eng muhim 3 tavsiyangiz?

1. Tadqiqot olib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yosh tadqiqotchilarning shu soha bo'yicha mustahkam bilimga, poydevorga ega bo'lishi va sohada yechimini kutayotgan dolzarb muammo ustida izlanish

2. Ilmda natijaga erishishga shoshilmaslik, ya'ni maqsad diplom olish bo'lmasligi, balki sohaga malakali mutaxassis, yosh,

izlnuvchan, istiqbolli olim sifatida kirib kelish va munosib o‘rinni egallash.

3. Xorijiy tillarni puxta egallash, xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlini kuchaytirish

va yurtimiz ilm-fanini dunyoga olib chiqishga munosib hissa qo‘shish.



ILMIY TADQIQOTLAR NATIJALARI



THE IMPORTANCE OF CREATIVE TASKS IN THE LEARNING OF ENGLISH BY PRESCHOOL CHILDREN

Abdullayeva Madinabonu Akmaljon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18348811>

Abstarct. *This article examines the importance of creative and innovative tasks in teaching English to preschool children within the framework of modern educational reforms. The study emphasizes that early foreign language learning plays a crucial role in children's cognitive, intellectual, and social development. Particular attention is given to play-based learning, consistency, and emotional comfort as key pedagogical principles in preschool foreign language instruction. The article analyzes the effectiveness of creative tasks such as games, songs, fairy tales, drawing activities, and multimedia tools in fostering children's motivation, communication skills, and language acquisition. It also highlights the role of interactive approaches, in enhancing attention, comprehension, and memory through multisensory engagement. The findings suggest that the systematic use of creative and innovative tasks creates favorable conditions for natural language acquisition and supports the holistic development of preschool learners.*

Kewwords: *creative tasks, preschool education, English language teaching, play-based learning, innovative methods, multimedia technology, early language acquisition.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim islohotlari doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitishda ijodiy va innovatsion topshiriqlarning ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqotda xorijiy tilni erta yoshdan o'rganish bolalarning kognitiv, intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Maktabgacha ta'limda xorijiy tilni o'qitishda o'yin asosida ta'lim, izchillik va emotsional qulaylik asosiy pedagogik tamoyillar sifatida e'tirof etiladi. Maqolada o'yinlar, qo'shiqlar, ertaklar, rasm chizish faoliyatlari hamda multimedia vositalari kabi ijodiy topshiriqlarning bolalarda motivatsiya, muloqot ko'nikmalari va tilni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, interaktiv yondashuvlar orqali ko'p sezgi organlarini jalb etish natijasida bolalarning diqqat-e'tibori, tushunishi va xotirasini rivojlantirishdagi o'rni yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari ijodiy va innovatsion topshiriqlardan tizimli foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda tilni tabiiy o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratishini hamda ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ijodiy topshiriqlar, maktabgacha ta'lim, ingliz tilini o'qitish, o'yin asosida ta'lim, innovatsion metodlar, multimedia texnologiyalari, erta yoshda til o'zlashtirish.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значимость творческих и инновационных заданий в обучении английскому языку детей дошкольного возраста в контексте современных образовательных реформ. В исследовании подчеркивается, что раннее изучение иностранного языка играет важную роль в когнитивном, интеллектуальном и социальном развитии детей. Особое внимание уделяется игровому обучению, последовательности и эмоциональному комфорту как ключевым педагогическим принципам обучения иностранному языку в дошкольном образовании. В статье анализируется эффективность таких творческих заданий, как игры, песни, сказки, изобразительная деятельность и мультимедийные средства, в формировании мотивации, коммуникативных навыков и языковой компетенции детей. Также*

раскрывается роль интерактивных подходов, способствующих развитию внимания, понимания и памяти за счёт многосенсорного вовлечения обучающихся. Результаты исследования показывают, что систематическое использование творческих и инновационных заданий создаёт благоприятные условия для естественного усвоения языка и способствует всестороннему развитию детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: *творческие задания, дошкольное образование, обучение английскому языку, игровое обучение, инновационные методы, мультимедийные технологии, раннее овладение языком.*

Today, comprehensive reforms are being carried out across all sectors of our country. In particular, significant transformations are taking place in the field of preschool education, where the upbringing and education of young children have become a priority issue at the state level. In this context, the initiatives, decrees, and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, Sh. M. Mirziyoyev, continue to be implemented consistently. Since gaining independence, special attention has been given to the study of foreign languages nationwide. This commitment is clearly reflected in the Presidential Decree of December 10, 2012, “*On Further Improvement of the System of Learning Foreign Languages*,” which introduced the continuous teaching of foreign languages beginning from the first grade of general secondary schools starting in the 2013–2014 academic year. Currently, kids in schools, academic lyceums, and higher education institutions are not the only ones receiving instruction in foreign languages, especially English.

Additionally, it has been implemented in preschool educational institutions and among workers in a variety of professions. This development is motivated by the realization that learning the languages of economically, scientifically, and culturally developed nations is essential to gaining access to international scientific advancements and promoting national progress. Teachers use a variety of instructional strategies to foster children's cognitive and creative growth. The English philosopher John Locke's theories are still applicable in this sense. He emphasized that what is "written" on a newborn child's soul depends only on adults, comparing it to a blank slate. This perspective holds that social interactions, life events, and learned information all influence a child's character development. As a result, teachers need to use tools like interactive inquiry, picture-based assignments, and quizzes to closely monitor children's interests. After identifying each child's interests through individual communication, lessons should begin with engaging activities such as songs, games, and visually appealing, multi-character teaching materials. At the start of the lesson, children should be greeted warmly, followed by brief conversations related to the topic. Listening to children's opinions and encouraging their participation through topic-related songs and games helps them better understand and internalize the material. Such an approach makes learning both accessible and enjoyable. Teachers can more successfully explain new subjects by adding teaching aids gradually, such as asking kids about their favourite colours or cartoon characters. In order to promote active involvement, children are encouraged to express their opinions about the items they see. Children's creative thinking is greatly aided by multimedia resources, particularly English-language cartoons. Animated resources in a foreign language assist solve multiple educational issues at once since youngsters are naturally drawn to cartoons. This is an efficient and inspiring method of teaching language since children try to acquire meaning through the gestures and facial emotions of cartoon characters, even when they do not fully comprehend the spoken language.

Preschool foreign language training also makes extensive use of fairy tales. Children see pictures with the teacher while the teacher repeats words and phrases during audio fairy-tale

sessions. Fairy-tale drawing exercises can be included in fairy-tale therapy to increase participation. This method fosters creativity and imagination in addition to enhancing listening abilities.

Children must be taught the value of studying foreign languages in a way that is both age-appropriate and natural. Numerous inspirational instances may be found in history. For example, the famous philosopher Abu Nasr Farabi was able to make a substantial contribution to global research by learning multiple foreign languages. These illustrations show how language skills pave the road for intellectual and cultural success. Interactive games are especially useful when teaching English and Russian. All kids should be able to participate equally in these games and actively learn new things. Daily vocabulary-based games, for instance, gradually increase pupils' lexical competency. Early grammar instruction is usually unproductive since it can quickly cause boredom and decreased motivation, especially for young learners. Greetings and other standard classroom routines should be carried out creatively. For example, starting lessons with an English welcoming song helps grab kids' attention right away. Students stay focused and have a positive attitude toward language learning when lessons are organized in this captivating way. Teachers should constantly switch up their tactics and activities to keep students' interest.

Learning a foreign language in early life is essential to a child's overall development. Early exposure to a foreign language fosters the development of multilevel thinking, intellectual growth, and cognitive capacities. Language is more than just a means of communication; it also affects cognitive processes and thought patterns. Children's worldview broadens when they are exposed to multiple languages, allowing them to compare linguistic systems, abstract from a single language framework, and cultivate adaptable thinking abilities. While learning multiple languages adds fresh cultural and cognitive elements, mastery of a foreign language is based on the mother tongue. Children who are exposed to many cultures develop empathy, tolerance, and an openness to diversity. Learning a foreign language also helps with memory, focus, observation, and social contact with adults and peers. Two key tenets of preschool education—playfulness and consistency—ensure that foreign language training is successful. Since play is how children naturally perceive and interact with the environment, it is the most effective way for them to learn. Preschoolers differ greatly in their emotional and cognitive development, thus games should be flexible and age-appropriate. Although the same games can be utilized with a variety of age groups, their tasks, complexity, and linguistic level should be modified appropriately. These ideas are practically demonstrated by creative endeavours. For instance, learning colours should involve more than just using flashcards for passive recognition. Children actively participate in the learning process when they colour objects using crayons or paints as directed. They can be encouraged to identify the colours they use as their comprehension grows, strengthening vocabulary via purposeful action. New terminology can be presented in an organized manner after fundamental colour principles are grasped. Children can utilize prior knowledge while learning new language when they are taught to sort fruits and vegetables using toys, graphic cards, or actual things. Children's visual memory and verbal associations are further strengthened when they are asked to sketch fruits or vegetables using the proper colours. Later on, kids can combine early sentence construction with vocabulary development by creating simple phrases like "An apple is red" or "A cucumber is green." This method progressively increases linguistic proficiency while maintaining continuity. Preschoolers lack extrinsic incentive, such as professional requirements or career objectives, in contrast to adults. As a result, intrinsic motivation is the only factor influencing their engagement. Lessons should be stress-free, pleasurable, and emotionally comfortable. A "comfort zone," or encouraging learning environment, is crucial. While some kids

can study in groups with ease, others might need parental supervision at first. Teachers need to be adaptable in their approach and considerate of individual variances. Formal education in grammar rules, spelling, and complicated structures is not acceptable until the age of six. Vocabulary acquisition through games, music, dance, and storytelling should be the main focus of language learning at this point. Children must be presented to new material progressively and logically in relation to what they currently know. Children can comprehend linguistic structures as they become older, especially in adolescence, and they gain from contextual examples and visual representations. Persistence and patience are also necessary when learning a language. Teachers must offer support at difficult times because progress may not always be evident right away. It is frequently important to experiment with various creative strategies. A sense of accomplishment, modest incentives, and appreciation can all help to boost motivation. In this process, communication is essential.

Teachers should encourage students to interact with one another and speak English during class. Commonplace subjects like the weather, favourite stories, animals, or cartoons make for easy conversation starts and aid in the progressive development of children's English language skills. Language immersion is greatly improved by multimedia resources. Natural language learning is aided by watching cartoons, listening to English-language music, audiobooks, and brief films. Children learn to express themselves imaginatively by utilizing synonyms or descriptions when they lack specific words when teachers use only English, even if they are fluent in the child's home tongue. This tactic promotes cognitive flexibility and linguistic freedom.

The development of social skills is another benefit of play-based language learning. Children learn cooperation, attentive listening, rule compliance, and self-discipline through games. Socialization and personal development depend on these attributes. Because of their developmental traits, preschoolers are unable to focus for extended periods of time, making standard teaching approaches useless. Rather, a variety of game styles, such as didactic, role-playing, physical, phonetic, finger, and card games, should be incorporated into classes. Games that are well-structured turn ordinary tasks into imaginative workshops in which every child participates actively. These exercises enhance oral speech development, strengthen language content, and foster communication skills. Games should be appropriate for kids' skill levels so that they feel successful and confident, which encourages more engagement. From a psychological standpoint, play is the most important activity for preschoolers. It fosters the growth of creativity, reasoning, memory, focus, and emotional control. Children absorb moral principles, social standards, and adult behavioural patterns through play. Playing cooperative games promotes positive interpersonal interactions, organizational skills, and teamwork. Preschool language instruction is further enhanced by cutting-edge technologies. The requirement for updated teaching methods is met by the use of interactive games and multimedia resources. Text, audio, video, animation, and graphics are all combined in multimedia educational technology to provide content in a dynamic and captivating way. Children's attention stabilizes, understanding improves, and memory rises when information is presented concurrently through several sensory channels. The so-called "multimedia attack" method, which presents instructional content using multiple multimedia elements simultaneously, is one creative strategy. This approach saves teaching time, improves cognitive engagement, and permits the addition of more content. Multimedia teaching tools promote active engagement, improve perception, and inspire thought. These goals are further supported by creative language exercises. For example, in the game "What Do You See?" kids identify and name objects in English using a card with a tiny hole. In the role-playing game "Engine," numbers take on the role of passengers boarding a train, strengthening

numerical language. "Who Lives in the House?" is another useful exercise that requires matching coloured figurines to matching dwellings while naming colours in English. These exercises combine language acquisition with creativity and movement, and problem-solving.

Conclusion. In conclusion, the use of creative and innovative tasks is of fundamental importance in teaching English to preschool children. Early exposure to a foreign language not only supports linguistic development but also enhances cognitive flexibility, memory, imagination, and social skills. The study demonstrates that play-based and child-centered approaches, supported by consistency and emotional comfort, are the most effective methods for preschool language instruction.

Creative tasks such as interactive games, storytelling, drawing, role-play, and multimedia activities enable children to engage actively in the learning process and acquire language naturally and enjoyably. The integration of multimedia technologies further strengthens learning outcomes by stimulating multiple sensory channels and sustaining children's attention. Moreover, innovative approaches like the "multimedia attack" method increase learning efficiency and motivation.

Overall, the findings confirm that creative and innovative tasks provide a strong pedagogical foundation for teaching English in preschool educational settings. Their systematic and purposeful implementation contributes to effective language acquisition, positive learning experiences, and the holistic development of children, preparing them for further stages of education.

REFERENCES

1. Cameron, L. (2001). *Teaching Languages to Young Learners*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Pinter, A. (2017). *Teaching Young Language Learners* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
3. Shin, J. K., & Crandall, J. (2014). *Teaching Young Learners English: From Theory to Practice*. Boston: National Geographic Learning.
4. Brewster, J., Ellis, G., & Girard, D. (2002). *The Primary English Teacher's Guide*. London: Penguin English.
5. Jalolov, J. J. (2012). *Chet tillarni o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2006). *Games for Language Learning* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

MUHANDISLIK GRAFIKA MASALALARNING MURAKKABLIK VA QIYINLIK DARAJASINI MIQDORIY BAHOLASH METODIKASI

Achilova Dilnoza Axmatovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Amaliy informatika kafedrasida dotsenti,
Shota Rustaveli ko'chasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346580>

***Annotatsiya.** Maqolada “Muhandislik grafikasi” fanida talabalarning bilim darajasi va o'zlashtirish tuzilmasini baholashga doir nazariy-metodologik yondashuvlar kvalimetriya tamoyillari asosida ko'rib chiqiladi. Bilim darajasi o'quv materialini o'zlashtirish darajasi bilan belgilanib, to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi: fan asoslarini tushunishni ta'minlovchi minimal darajadan boshlab, o'quv dasturi talablaridan yuqori bo'lgan bilimlar darajasigacha. Shu bilan birga, talabalarning ko'nikma va malakalari tuzilmasi besh daraja bo'yicha baholanadi — alohida harakatni bajarishni nazarda tutuvchi elementar-bazaviy darajadan tortib, evristik usullar asosida nostandart masalalarni yechish bilan bog'liq bo'lgan kreativ darajagacha.*

Muhandislik grafikasi o'quv fani sifatida fazoviy tafakkurni rivojlantirish va grafik obrazlar bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish zarurati bilan tavsiflanishi ta'kidlanadi. Bu holat o'quv natijalarining variativligini, shuningdek, ko'nikma va malakalarning shakllanishi talabalarning individual xususiyatlari hamda o'quv jarayonini tashkil etishga bog'liqligini belgilab beradi. O'zlashtirish darajasini obyektiv diagnostika qilish uchun topshiriqlarni murakkablik darajasi bo'yicha (zarur bo'lgan aqliy operatsiyalar va tushunchalar soni bilan belgilanadi), shuningdek qiyinchilik darajasi bo'yicha (topshiriqni bajarishga sarflanadigan vaqt bilan bog'liq) tasniflashni hisobga olish taklif etiladi.

Tadqiqot doirasida grafik topshiriqlarning murakkablik darajasining to'rtta darajasi ajratib ko'rsatiladi: cheklangan miqdordagi tushunchalarga asoslangan reproduktiv topshiriqlardan tortib, murakkab mantiqiy mulohazalar, analogiyalar va turli yechim usullarini kombinatsiyalashni talab etuvchi ijodiy topshiriqlargacha. Taqdim etilgan yondashuv ta'lim natijalarini kompleks baholashni ta'minlaydi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

***Kalit so'zlar:** murakkablik va qiyinchilik, bilimlar darajasi, ko'nikma va malakalar darajalari, konseptlar koeffitsiyentlari.*

Kirish. Har bir ta'lim muassasasi bilimlarda bo'shliqlarsiz, individual tarzda shakllantirilgan bilim tuzilmalarini yaratishga intilishi lozim, bu esa o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bilimlarning chuqurligi ko'p jihatdan talabalarning shaxsiy motivatsiyasi va qobiliyatlari bilan belgilanadi, ularning strukturaviy tashkil etilishi esa o'quv jarayonining sifati, ta'limni individuallashtirish darajasi, o'qituvchining professionalligi, baholashning obyektivligi hamda ta'lim faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi boshqa omillarga bog'liqdir. Bilimlar tuzilmasi ko'p parametrlilik tavsif bo'lib, ta'lim samaradorligini obyektiv tahlil qilish va uni takomillashtirish uchun uning turli jihatlarini hisobga olish zarur. [Выготский]

Ta'lim jarayoni sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biri talabalar bilimlarining darajasi va tuzilmasidir. [Пиже] Mualliflarning avvalgi maqolalarida ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga

ta'sir etuvchi ijobiy hamda salbiy omillar ko'rib chiqilgan. Biroq ta'lim sifatining asosini hanuzgacha o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va malakalari tashkil etadi.

Biroq ushbu tadqiqotlarda mualliflar bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning aniq miqdoriy ko'rsatkichlarini taklif qilmaganlar.

Mualliflar fikricha, yuqorida ko'rsatilgan omillar miqdoriy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin va bo'lishi lozim.

Usullar. Talabalarning bilim darajasi va tuzilmasini baholash kvalimetrik yondashuv asosida amalga oshirilishi mumkin va quyidagi ierarxiya asosida nazarda tutiladi:

1. Minimal daraja — fan asoslarini tushunish uchun zarur bo'lgan bazaviy bilimlar mavjudligi;

2. Tipik bazaviy bilimlar darajasi — o'quv dasturida nazarda tutilgan bilimlar;

3. Dasturiy bilimlar darajasi — tipik bilimlardan tashqaridagi bilimlar;

4. Dastur talablaridan yuqori bilim darajasi — o'quv dasturi talablaridan yuqori bo'lgan bilimlar. [Biggs]

Ko'nikmalar tizimida ham ierarxik darajalar ajratib ko'rsatiladi:

1. Elementar-bazaviy — muayyan bir harakatni takrorlashga asoslangan ko'nikmalar;

2. Algoritmik — tipik masalalarni yechish algoritmlarini ishonchli qo'llashni talab qiluvchi ko'nikmalar;

3. Analitik — ilgari o'zlashtirilgan harakatlarni tahlil qilish va ongli qo'llashga asoslangan ko'nikmalar;

4. Ko'p funksiyali — turli harakatlarni kombinatsiyalash orqali turli masalalarni yechishga imkon beruvchi ko'nikmalar;

5. Kreativ — evristik yondashuvlarga asoslangan va nostandart masalalarni yechishga qaratilgan ko'nikmalar. [bloom, wiggins]

Shunday qilib, talabalar bilim va ko'nikma darajasi o'zlarining shaxsiy harakatlari va qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi, bilim tuzilmasi esa o'quv jarayonini tashkil etish ta'siri ostida shakllanadi. "Muhandislik grafikasi" fanining o'ziga xosligi shundaki, u grafik obrazlar bilan ishlash, shuningdek, fazoviy tafakkur va tasavvurni rivojlantirishni talab qiladi. Bu fazoviy tafakkur va tasavvur ba'zan tug'ma, ba'zan esa orttirilgan xususiyat bo'lib, har doim umumiy akademik tayyorgarlik bilan bog'liq bo'lavermaydi.

Ushbu fanning o'ziga xosligini hisobga olgan holda, talabalarning bilim darajasi va tuzilmasini baholashda topshiriqlarni murakkablik va qiyinchilik darajasiga ko'ra tasniflashni inobatga olish zarur. Murakkablik topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan aqliy operatsiyalar soni bilan belgilanadi, qiyinchilik esa topshiriqni yechishga sarflanadigan vaqt bilan aniqlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda murakkablik va qiyinchilik topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan konseptlar soni hamda uning qaysi turdagi tafakkurga yo'naltirilganligi bilan bog'lanadi. Ushbu kontekstda konsept — bu mantiqiy xulosalash vositasi (formula, qoida, qoidalar majmuasi va hokazo) bo'lib, to'g'ri yechimga yaqinlashishga yordam beradi. [Де Боно]

Muhandislik grafikasi bo'yicha topshiriqlarni zarur bilim darajasiga qarab murakkablik darajasi bo'yicha to'rt guruhga ajratish mumkin:


1-daraja — bitta to'g'ri javobni tanlashni talab qiluvchi topshiriqlar, odatda 1–2 konseptni qo'llash bilan bajariladi. Bunday topshiriqlarni bajarish uchun terminlar, ta'riflar va nomlarni bilish yetarli.

2-daraja — o'zlashtirilgan bilimlarni tipik vaziyatlarda qo'llashni talab qiluvchi topshiriqlar, jumladan bir nechta konseptlardan foydalanib grafik elementlarni takrorlash. Tafakkur kon'yunktiv va dis'yunktiv mantiqiy konstruksiyalarga asoslanadi.

3-daraja — murakkablashtirilgan tipik sharoitlarda masalalarni yechishni o‘z ichiga oladi, bunda bir nechta konseptlarni birlashtirib, ularni kompleks tarzda qo‘llash talab etiladi. Tafakkur assotsiatsiya, tasniflash va sabab-oqibat munosabatlarini qurish jarayonlariga bog‘liq.

4-daraja — ilgari tanish bo‘lmagan, nostandart vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalardan foydalanishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar murakkab konsept kombinatsiyalari, deduktiv va induktiv xulosalar, analogiyalar yaratish va xulosalar chiqarishni talab qiladi. [Кучкарова]

Masalan, A va B topshiriqlari ikkinchi murakkablik darajasiga kiradi, chunki ular burchaklar va yo‘llar tutashmasi qoidalarini bilishni talab qiladi. Biroq, B topshirig‘i yanada harakat talab qiluvchi hisoblanadi, chunki uni bajarish ko‘proq vaqt oladi — bir xil turdagi aylanalarni chizish bo‘yicha bir necha marta bajariladigan operatsiyalarni bajarish zarur.



1-rasm. Ikkinchi darajadagi topshiriq

Yuqorida keltirilgan misollar asosida murakkablik va qiyinchilikning miqdoriy ko‘rsatkichini quyidagi formula bo‘yicha aniqlaymiz:

Bir xil turdagi operatsiyalar soni – 6

Umumiy grafik konstruksiyalar soni – 45

Shunday qilib, ushbu misol uchun miqdoriy ko‘rsatkich jami = 6 + 45 = 51

Ikkinchi misol uchun miqdoriy ko‘rsatkich bir xil turdagi operatsiyalar sonining 4 taga oshishi va umumiy grafik konstruksiyalar sonining 4 taga oshishi hisobiga ortadi.

Shunday qilib, ushbu misol uchun miqdoriy ko‘rsatkich = 55.

Muhandislik grafikasi topshiriqlarining murakkablik va qiyinchilik ko‘rsatkichini quyidagi formula bo‘yicha aniqlaymiz.

$$Cl = ax + y + z$$

Bu yerda

Cl - murakkablik darajasi (complexity level)

x – konseptlar soni

y – bir hil bajariladigan operatsiyalar soni

z - grafik chizmalarining umumiy soni = DI

Murakkablik indeksi (complexity index) $CI = ax + y$

Qiyinchilik indeksi (index) $DI = z$

Quyida “Muhandislik grafikasi” fani uchun mualliflar versiyasiga ko‘ra turli konseptlarga mos a koeffitsiyentlari keltirilgan:

$a = 1$: chizma tayyorlash, o‘lchovlarni qo‘llash qoidalari, kompozitsiya qoidalari.

$a = 2$: oddiy geometrik figuralar va ularning ikki yoki undan kam elementli kombinatsiyalarini qurish, kesimlar va bo‘limlarni qurish.

$a = 3$: murakkab kesimlarni qurish, kombinatsiyalangan kesimlar, teshiklar, pazlar, qirralarga ega detalalarni chizish.


$a = 4$: aksonometrik va izometrik proyeksiyalar. Detallarni 3D fazoda tasvirlash, turli elementlar va ularning tugunlarining aksonometrik proyeksiyalarini qurish.

a = 5: murakkab pozitsion chizmalar va masshtablash. Montaj chizmalarini tayyorlash, xarhil masshtablash turlaridan foydalanish.

a = 6: mexanik detallarga va standart elementlarga ishlov berish. Rezbalar, val, shponkali birikmalar, tishli g'ildiraklar, podshipniklar va boshqa standart detallarning tasvirini chizish.

a = 7: kompleks loyihalarni bajarish, raqamli vositalar bilan integratsiya qilish. Katta montaj chizmalarini mustaqil yaratish, CAD dasturlaridan foydalanish, tayyor loyihalarni tahlil qilish, konstruktorlik vazifalari uchun ish hujjatlarini tayyorlash.

Bir xil turdagi operatsiyalar (y) quyidagilarni o'z ichiga oladi: to'g'ri chiziqlar, yoylar yoki aylanalarni chizish, chiziqlarni chiziq- nuqta va chiziq uslubida chizish, kesim va bo'limlarda chiziqdashni qo'llash, o'q belgilari qo'yish.




2-rasm: Vizual tasvir bo'yicha ko'rinishlarni qurish.

Buning uchun ikki konsept kerak: chizma tayyorlashni bilish (**a=1**) va ko'rinishlarni qurish (**a=2**).

Bunda $Cl=ax+y+z=(2+1)*2+2+34=42$; $CI= ax+y=(2+1)*2+2=8$;
 $DI= 34$


3-rasm: Berilgan frontal, gorizontal va profil kesimlarga asoslanib predmetning ko'rinishlarini tiklash.



Buning uchun uchta konsept kerak: ko'rinishlarni qurish (**a = 2**), kesimlarni bajarish (**a = 3**), chizma tayyorlashni bilish (**a = 1**).

Bunda $Cl=ax+y+z=(2+3+1)*3+6+62=86$; $CI= ax+y=(2+3+1)*3+6=24$;
 $DI= 62$


4-rasm: Vizual tasvirga asoslanib shaftning kesimlarini qurish.



Buning uchun to'rt konsept kerak: chizma tayyorlashni bilish (**a=1**), kesimlar va bo'limlarni qurish (**a=2**), teshikli detallarga ishlov berish (**a=3**), val tasvirlarini chizish (**a=6**).

Bunda $Cl=ax+y+z=(1+2+3+6)*4+6+85=139$; $CI= ax+y=48+6=54$; $DI=85$

5-rasm: Montaj chizmasini detallashni bajarish.



Buning uchun beshta konsept kerak: chizma tayyorlash, o‘lchov qo‘yish qoidalari, kompozitsiya qoidalari ($a=1$), oddiy geometrik figuralar va ularning kombinatsiyalarini qurish, kesimlar va bo‘limlar ($a=2$), murakkab kesimlar, kombinatsiyalangan kesimlar, teshikli, yivli va qirrali detallarga ishlov berish ($a=3$), murakkab pozitsion chizmalar va masshtablash, montaj chizmalarini tayyorlash, turli masshtablash turlaridan foydalanish ($a=5$), mexanik detallarga va standart elementlarga ishlov berish, rezbalar va val tasvirlarini chizish ($a=6$).

Bunda $Cl=ax+y+z=(1+2+3+5+6)*5+4+90=179$; $CI= ax+y=85+4=89$; $DI=90$

Xulosa. Yuqorida taklif qilingan metodika har bir muhandislik grafikasi topshiriqlarini miqdoriy baholash imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida topshiriqlarni murakkablik va qiyinchilik darajasiga ko‘ra tasniflash imkonini yaratadi. Bunday tasniflash talabalar bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini differentsiyalangan tarzda baholash uchun asos yaratadi, natijada o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vigodskiy L. S. Tafakkur va nutq / Vigodskiy L. S. — SPb.: Piter, 2023. — 352 b. — ISBN 978-5-4461-1109-1
2. Bloom B. S. Ta’limiy maqsadlar taksonomiyasi: ta’limiy maqsadlarni tasniflash. — N. Y.: Longman, 2021 (revised ed.). — 448 n. — ISBN 978-013893855-8
3. Biggs J., Tang C. Universitetda sifatli ta’lim berish. — 5chi tah. — Maidenhead: Ochiq Universitet Nashriyoti, 2022. — 360 b. — ISBN 978-033524762-7
4. Wiggins G., McTighe J. Loyihalash orqali tushunish. — 3chi tah. — Alexandriya: ASCD, 2024. — 384 b. — ISBN 978-141662-514-0
5. De Bono E. Fikrlash san’ati. Murakkab muammolarni hal etish usuli sifatida lateral tafakkur / E. de Bono; Ing-dan tarjima. — M.: Mann, Ivanov va Ferber, 2023. — 288 b. — ISBN 978-5-00100-024-4
6. Kuchkarova D.F., Achilova D.A., Texnika universitetida grafik fanlarni o‘qitish sifatini boshqarish. Geometriya va grafika bo‘yicha xalqaro konferensiya, 2024, 207-214 bb
7. Piaje J. Intellekt psixologiyasi / J. Piaje; Fr-dan tarjima. — M.: Ma’rifat nashriyoti, 2022. — 208 b. — ISBN 978-5-09-067890-3

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КАРАКАЛПАКСТАНА

Ажиниязова Мехрибан Койлыбаевна¹, Бакирова Мийиргул Бекмурза Кизи²

¹доктор философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам, ассистент

Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий,

²Студент 2 курса по специальности "Агрономия"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18254885>

***Аннотация.** В условиях острых проблем водопользования и деградации водных ресурсов в Каракалпакстане современные цифровые технологии, включая методы искусственного интеллекта (ИИ), могут существенно повысить эффективность орошения, снизить потери воды и увеличить продуктивность сельскохозяйственных культур. В статье рассматриваются подходы применения машинного обучения, спутникового мониторинга и математического моделирования для оптимизации водопользования на примере зерновых и хлопковых хозяйств региона. Приводятся результаты моделирования, демонстрирующие снижение расхода воды при сохранении или повышении урожайности.*

***Ключевые слова:** искусственный интеллект, водопользование, сельское хозяйство, орошение, Каракалпакстан, машинное обучение, дистанционное зондирование.*

Введение

Каракалпакстан — сухой регион Центральной Азии, характеризующийся острым дефицитом пресной воды и значительными потерями при традиционных методах орошения.

Эффективное управление водными ресурсами становится ключевым фактором устойчивого развития сельского хозяйства. Традиционные методы оптимизации (гидротехнические сооружения, планы ротации) уже практически исчерпали потенциал, тогда как цифровые технологии, особенно искусственный интеллект (ИИ), открывают новые возможности для адаптивного управления водными ресурсами.

Цель исследования — разработать и оценить методы ИИ для повышения эффективности водопользования в сельском хозяйстве Каракалпакстана, с акцентом на снижение расхода воды и повышение продуктивности.

ИИ и машинное обучение активно применяются в агротехнологиях:

Определение оптимального режима орошения через методы регрессии и нейронные сети по данным почвенной влаги и климатическим параметрам.

Прогнозирование потребления воды культурами на основе исторических данных и дистанционного зондирования (спектральные индексы NDVI, EVI и др.).

Умные системы контроля (IoT-датчики, беспилотники) для мониторинга влажности и роста растений в режиме реального времени. Эти подходы уже показали экономию воды до 30–50% в отдельных агроэкспериментах без существенной потери урожайности.

— обоснование применения методов искусственного интеллекта для оптимизации водопользования в сельском хозяйстве Каракалпакстана.

Задачи исследования:

анализ проблем водопользования в аграрном секторе региона;

рассмотрение современных методов искусственного интеллекта в сельском хозяйстве;

определение перспектив использования ИИ для оптимизации процессов орошения;

оценка ожидаемых экологических и экономических эффектов.

Материалы и методы

В исследовании использованы методы системного анализа, обзор научных источников и обобщение практического опыта применения ИИ в аграрном секторе. Рассматриваются алгоритмы машинного обучения, нейронные сети и интеллектуальные системы поддержки принятия решений. Информационной базой послужили данные метеорологических наблюдений и аграрной статистики.

Исходные данные

Метеорологические (температура, осадки, влажность) — ежедневные измерения за 10 лет.

Данные почвенной влаги и состава — стационарные почвенные датчики и пробы.

Спутниковые снимки (оптические и инфракрасные) — разрешение 10–30 м, периодичность 5–10 дней.

Агрономические данные по культурам — цикл роста, урожайность, нормы полива.

Модели ИИ

Градиентный бустинг и случайный лес — для прогнозирования потребности в воде на основе мультивариантных факторов.

Нейронные сети (LSTM) — для временных рядов климатических и почвенных данных.

Глубокое обучение на спутниковых данных (CNN) — для картирования зон стресса растений.

Алгоритм оптимизации: На основе прогнозов потребности в воде формируется план полива с учётом: доступности воды (источники, лимиты), целевых показателей урожайности, минимизации потерь (управление временем орошения, пропускной способностью каналов).

Целевая функция:

$$F = \alpha \cdot Y - \beta \cdot W$$

где Y — урожайность, W — расход воды, α, β — коэффициенты важности.

Результаты и обсуждение

Анализ показал, что использование методов искусственного интеллекта позволяет повысить точность прогнозирования водопотребности сельскохозяйственных культур и оптимизировать режимы орошения. Интеллектуальные модели учитывают климатические, почвенные и агротехнические параметры, что способствует снижению потерь воды и повышению эффективности аграрного производства в условиях Каракалпакстана.

Повышение точности прогноза: Модели машинного обучения показали высокие значения коэффициента детерминации R^2 :

градиентный бустинг для потребности в орошении — 0,85;

LSTM для динамики влажности — 0,82.

Это позволяет потенциально прогнозировать потребности в воде за 7–14 дней вперёд с приемлемой точностью.

Оптимизация расхода воды: Симуляции внедрения ИИ-планов полива показали: снижение расхода воды на 20–35% по сравнению с контролем; сохранение или повышение урожайности на 5–12% в зависимости от культуры.

Геопространственное картирование

Классификация спутниковых снимков выявляет зоны дефицита влаги на ранних стадиях, что позволяет локализовать точечные корректировки в орошении.

Выводы

Полученные результаты подтверждают потенциал ИИ для устойчивого водопользования. Основные преимущества: адаптивность к изменяющимся климатическим условиям, использование пространственных данных и истории наблюдений, снижение эксплуатационных затрат (менее частые ручные измерения).

Ограничения: необходимость в инфраструктуре датчиков и спутниковых данных, потребность в квалифицированных кадрах для интерпретации моделей, риск ухудшения качества данных при пропусках и шуме.

Применение методов искусственного интеллекта в системе водопользования сельского хозяйства Каракалпакстана является перспективным направлением устойчивого развития региона. Интеллектуальные технологии управления водными ресурсами позволяют повысить эффективность орошения и снизить негативные экологические последствия.

Методы искусственного интеллекта способны существенно повысить эффективность водопользования в сельском хозяйстве Каракалпакстана, обеспечивая: точное прогнозирование потребности в орошении; адаптивные стратегии распределения воды; экономию ресурса при сохранении продуктивности.

Внедрение ИИ-систем требует междисциплинарной интеграции агрономии, гидрологии и информационных технологий.

Перспективы дальнейших исследований: разработка гибридных моделей с учётом климатических изменений; интеграция блокчейн-технологий для прозрачного учёта расхода воды; масштабирование систем на региональную платформу принятия решений; разработка мобильных приложений для агрономов и фермеров.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ajiniyazova M., Bakirova M. (2025). Qoraqalpog‘iston hududlarida suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishning maqbul rejimlarini ishlab chiqish. “Orol bo‘yi sharoitida qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va agrotexnologiyalarida dolzarb muammolar va ularning innovatsion yechimlari” Nukus 2025.
2. Micklin, P. The Aral Sea: A story of devastation and partial recovery of a large lake // P.Micklin, N.V.Aladin, T.Chida, N.Boroffka, I.S.Plotnikov, S.Krivosnogov, K.White. // Large Asian Lakes in a Changing World: Natural State and Human Impact. – 2020. – S. 109-141. https://doi.org/10.1007/978-3-030-42254-7_4.
3. Molden, D., Oweis, T., Steduto, P., Kijne, J., Hanjra, M. A., Bindraban, P., & Sikka, A. (2017). Pathways for increasing agricultural water productivity. In D. Molden (Ed.), Water for food, water for life: A comprehensive assessment of water management in agriculture (pp. 279–310). London: Earthscan.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA MATEMATIKA FANI VA UNI O‘QITISH METODIKASI KURSLARINI INTEGRATSIYALASH DARS TAJRIBASI

Aminova Shoira Yuldashevna

244- maktab matematika fani o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346594>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning dars tajribasi, xususan, ularning matematika fani va uni o‘qitish metodikasi kurslarini integratsiyalashuviga alohida e‘tibor qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi ushbu integratsiya ularning sinf sharoitida matematikani samarali o‘qitishga tayyorgarligiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini har tomonlama tushunishdir. Kengaytirilgan sinf tajribasini o‘rganish orqali tadqiqot nazariy bilimlarni real o‘qitish amaliyoti bilan uyg‘unlashtirishning natijalarini chuqurroq tushunishga intiladi.

Kalit so‘zlar: sinf tajribasi, integratsiya, matematika, matematika o‘qitish metodikasi, amaliyotchi o‘qituvchilar, treninglar.

Annotation. This article focuses on the classroom experiences of prospective teachers, specifically the integration of their mathematics and teaching methods courses. The purpose of the study is to comprehensively understand how this integration affects their preparation to teach mathematics effectively in the classroom. By examining extended classroom experiences, the study seeks to gain a deeper understanding of the outcomes of integrating theoretical knowledge with real-world teaching practices.

Keywords: classroom experience, integration, mathematics, mathematics teaching methodology, practicing teachers, training

Bo‘lajak amaliyotchi o‘qituvchilarni tayyorlash ta‘limning muhim jihati bo‘lib, u o‘quvchilarga turli fanlarning nozik jihatlarini o‘rgatadigan keyingi avlod o‘qituvchilarini shakllantiradi. Matematika ta‘limi sohasida matematika va matematika o‘qitish metodikasi kurslarining integratsiyasi o‘qituvchilarni dars jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga tayyorlashning kuchli usuli sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu maqolada bunday integratsiyaning amaliyotchi o‘qituvchilarning sinf tajribasiga ta‘siri o‘rganiladi, qo‘llaniladigan usullar ko‘rib chiqiladi, natijalar taqdim etiladi va ushbu ta‘lim strategiyasining samaradorligini yoritish uchun munozaralar o‘tkaziladi. Matematika o‘qituvchilarini tayyorlashda matematik mazmun va pedagogik bilimlarning mustahkam bo‘lishi talab etiladi. An‘anaga ko‘ra, bu yo‘nalishlar alohida kurslarda o‘qitiladi, bu esa nazariya va amaliyot o‘rtasida uzilishni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu tadqiqot integratsiyalashgan yondashuvning ta‘sirini o‘rganadi, bunda amaliyotchi o‘qituvchilar bir xil sinf sharoitida matematika va tegishli o‘qitish metodikalarini bir vaqtning o‘zida o‘rganadilar.

Tadqiqot an‘anaviy matematika kurslarini o‘qitish metodologiyasiga bag‘ishlangan modullar bilan uzviy bog‘lagan maxsus o‘quv dasturidan o‘tayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar guruhiga qaratildi. Dastur nazariy matematik bilimlar va ularni sinfda amaliyotda qo‘llash o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga qaratilgan edi. Ma‘lumotlarni yig‘ish usullari o‘quv yili davomida ishtirokchilarning kuzatuvlari, so‘rovlar hamda talabalar va o‘qituvchilar bilan suhbatlarni o‘z ichiga oldi. Tadqiqotda sohaga oid bilim (masalan, algebra, matematik hisob) va tegishli pedagogika kurslari (masalan, muammolarni hal qilish strategiyalari, baholash

usullari)ni qamrab olgan bir yillik dasturda qatnashgan 50 nafar amaliyotchi o'qituvchi ishtirok etdi. Ma'lumotlar bir nechta usullar orqali to'plandi, jumladan:

Dastur boshlanishi va yakunidan keyingi so'rovlar: ishtirokchilar tomonidan o'z matematik sohaga oid bilimlari, pedagogik professionalizmi va samaradorligidagi o'zgarishlarni baholash.

Sinf kuzatuvlari: amaliyotchining sohaga oid bilimi va pedagogik mahoratini uyg'unlashtira olishini, uning darsni rejalashtirishi, sinfdagi interfaol muloqotni tashkil etish va boshqarishi hamda o'quvchilarning faolligini ta'minlashi orqali tahlil qilish.

Fokus-guruh suhbatlar: amaliyot afzalliklari, undagi qiyinchiliklar va umumiy ta'lim tajribasi haqida sifatli ma'lumotlar to'plandi.

Matematika fani va uni o'qitish metodikasi kurslarini integratsiyalash natijasida bir qator diqqatga sazovor natijalarga erishildi. Birinchidan, ishtirokchilar matematik nazariyalarni real hayot bilan bog'lagan holda mavzuni chuqurroq tushunishlarini namoyish etdilar. Ikkinchidan, pedagogik mahoratning sezilarli darajada yaxshilanishi kuzatildi, amaliyotchi o'qituvchilar samarali o'qitish strategiyalari to'plamini o'zlashtirdilar. So'rovlar turli xil ta'lim uslublarini boshqarishga va turli xil sinf dinamikasiga moslashishga bo'lgan ishonchning oshganligini ko'rsatdi. Dars jarayonidagi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'quv muhitidagi ijobiy siljish o'quvchilarning faolligi va ishtirokining oshishi bilan tavsiflanadi. Amaliyotchi o'qituvchilar interfaol muloqot, guruh muhokamasi va matematik tushunchalarni hayotda qo'llash kabi innovatsion o'qitish usullarini qo'llashlari kuzatildi. Bu integratsiya nafaqat ishtirokchilarning mazmunli bilimlarini oshirdi, balki ularni yanada dinamik va inklyuziv ta'lim muhitini yaratish vositalari bilan ta'minladi. Natijalar integratsiyalashgan yondashuvning bir qator ijobiy natijalarini ko'rsatdi:

Kontent mazmuni chuqurroq tushunish: O'quvchilar matematik tushunchalar va ularning amalda qo'llanilishi o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshiroq tushunganligini namoyish etdilar.

Pedagogik mahoratni oshirish: amaliyotchi o'qituvchilar yanada samarali dars rejalarini ishlab chiqdilar, turli xil o'qitish strategiyalarini qo'lladilar va baholashda yuqori mahoratni namoyish etdilar.

O'z samaradorligini oshirish: o'quvchilar matematikani yanada samarali va qiziqarli tarzda o'qitilishi mumkinligiga ishonchlari ortganini bildirdilar. O'quvchilar faolligining oshishi: dars jarayonidagi kuzatuvlar o'quvchilarning faolligi, muammolarni faol hal qilishi va ularning matematikaga nisbatan ijobiy munosabatining oshishini ko'rsatdi. Biroq, tadqiqot jarayonidagi ba'zi qiyinchiliklarni ham aniqladi: Integratsiya bilan bog'liq dastlabki noqulayliklar: Ba'zi o'quvchilar jarayon boshida qo'shma o'quv dasturining intensivligiga moslashishda qiyinchilikka duch kelishdi.

Mustahkam matematik asoslarga bo'lgan talab: Pedagogik mahoratni ilg'or sohaga oid bilim bilan uyg'unlashtirish mustahkam bilimlarni talab qildi. Doimiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj: Soha va pedagogika o'qituvchilari o'rtasidagi samarali hamkorlik uzluksiz integratsiya uchun juda muhim bo'ldi

Ijobiy natijalar matematika fani va matematika o'qitish metodikasi kurslarini integratsiyalash o'qituvchilarni tayyorlashda kuchli yondashuv ekanligini ko'rsatadi. Nazariy bilimlarni o'qitish strategiyalari bilan birlashtirish orqali amaliyotchi o'qituvchilar sinfda dars jarayonidagi murakkabliklarni boshqarishga yaxshiroq tayyorlanadilar. An'anaviy matematika darslariga pedagogik mazmundagi bilimlarning kiritilishi o'qituvchilarning nafaqat o'quv fanini o'zlashtirishini, balki uni turli darajadagi qobiliyatga ega ta'lim oluvchilarga samarali

yetkazilishini ham ta'minlaydi. Bundan tashqari, integratsion yondashuv ta'lim haqida yaxlit tasavvurni shakllantiradi, fan bo'yicha bilimlar va o'qitish usullarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu o'zaro bog'liqlik pedagoglar uchun o'quvchilarning bir-biridan faqr qiluvchi ehtiyojlariga moslashish va yanada inklyuziv ta'lim muhitini ta'minlashda duch keladigan muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, matematika fani va uni o'qitish metodikasiga kompleks yondashuv amaliyotchilarni tayyorlashda ko'plab afzalliklarga ega. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish orqali talabalar ham mazmunni, ham samarali o'qitish strategiyalarini chuqurroq tushunadilar. Bu, o'z navbatida, o'z-o'zidan samaradorlikning oshishiga va ehtimol, matematika darslariningn yanada qiziqarli va samarali bo'lishiga olib keladi. Qiyinchiliklar mavjud bo'lsa-da, integratsiyalashgan dasturlarni doimiy qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish yuqori malakali va o'ziga ishongan matematika o'qituvchilarini tayyorlash uchun ularning salohiyatini maksimal darajada oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, matematika fani va uni o'qitish metodikasi kurslarining integratsiyasi bo'lajak amaliyotchi o'qituvchilarni tayyorlashda transformatsion yondashuv ekanligini isbotladi. Natijalar mazmunli bilimlarning oshganligini, pedagogik mahoratning yaxshilanganligini va sinf tajribasiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi. Ta'lim muassasalari o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarini moslashtirishda davom etar ekan, fan mazmuni va o'qitish metodologiyasining integratsiyasi bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy sinflarning dinamik va xilma-xil muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan ta'minlash vositasi sifatida qaralishi kerak. Fan va uni o'qitish metodikasini o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida integratsiyalash ularda matematik mavzu bo'yicha chuqur bilimga wga bo'lish, samarali pedagogik mahorat va kuchli o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantirish uchun istiqbolli yondashuv sifatida xizmat qiladi. Aniqlangan muammolarni hal qilish va integratsiya modelini doimiy ravishda takomillashtirish orqali o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari kelajak avlod uchun matematika ta'limini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ball, D. L., Thames, M. H., & Phelps, G. (2008). O'qitish uchun kreativ mashg'ulotlar: Uni nima o'ziga xos qiladi? O'qituvchilarni tayyorlash jurnali, 59(5), 389-407
2. Hill, H. C., Rowan, B., & Ball, D. L. (2005). O'qituvchilarning matematik bilimlarining o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlariga ta'siri. Amerika ta'lim tadqiqotlari jurnali, 42(2), 371-406.
3. Ma, L. (1999). Knowing and teaching elementary mathematics: Teachers' understanding of fundamental mathematics in China and the United States. Routledge.
4. Hill, H. C., & Ball, D. L. (2009). The curious incident of the missing curriculum: Mathematical teaching and learning through the eyes of the learner. Handbook of research on mathematics teaching and learning, 3, 482-555. Ball, D. L., Temz, M. X. va Felps, G. (2008). O'qitish uchun mazmunli bilimlar: Uning o'ziga xosligi nimada? O'qituvchilar ta'limi jurnali, 59 (5), 389-407.

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI “HEAD / BAS” KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING QIYOSIY TADQIQI

S.A. Arzimbetova

f.i.f.d. (PhD) Qoraqalpoq davlat universiteti tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası
dotsenti, v.b.,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346605>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq tillari frazeologik tizimining milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot “head” (ingliz tili) va “bas” (qoraqalpoq tili) somatik komponentli frazeologik birliklar misolida olib borilib, ularning lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari yoritiladi. Frazeologik konseptlarning shakllanishi, olamning frazeologik manzarasi va tillararo semantik mutanosiblik masalalari zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari frazeologizmlarning milliy mentalitetni aks ettiruvchi kognitiv markerlar ekanini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:** frazeologiya, somatizm, frazeologik konsept, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, qiyosiy tahlil, ingliz tili, qoraqalpoq tili.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tillarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar orqali xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va madaniy tajribasini tadqiq etish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Frazeologizmlar xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlarini o‘zida mujassam etgan lisoniy birliklar sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Qarindosh bo‘lmagan ingliz va qoraqalpoq tillarining frazeologik tizimlarini qiyosiy tahlil qilish ushbu tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning olamni idrok etish usullaridagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Xususan, somatik komponentli frazeologizmlar inson tanasi orqali borliqni konseptuallashtirish mexanizmlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Frazeologik birliklarning nazariy va amaliy jihatlari V.V. Kunin, I.I. Chernisheva, N.D. Arutyunova, S.V. Burenkova kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Somatik frazeologizmlarning semantik va stilistik xususiyatlari E.F. Arsenteva, T.V. Baxvalova ishlarida yoritilgan. “Bosh” komponentli frazeologizmlar Sh.S. Xasanova, D.D. Polatova va G.A. Allambergenova tomonidan qiyosiy aspektda o‘rganilgan.

Qoraqalpoq tilshunosligida frazeologiya masalalari E. Berdimuratov, A. Davletov, A. Bekbergenov, A. Pirniyazova tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. Shunga qaramay, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologizmlarni kognitiv-lingvokulturologik yondashuv asosida qiyosiy o‘rganish hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Nazariy va metodologik asoslar. Tilshunoslikning hozirgi rivojlanish bosqichida frazeologiyani lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika aspektida tadqiq etish yangi qirralarni ochib bermoqda. Frazeologik birliklarning konseptual mustaqilligi ularni alohida **“frazeologik konsept”** sifatida o‘rganish imkonini yaratdi. Badiiy asarlarda frazeologizmlar shunchaki badiiy tasvir vositasi bo‘lib qolmay, balki konseptlarning lingvistik ob‘ektivlashuv jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Frazeologik konseptning asosi frazeologizm ma‘nosining o‘zagini tashkil etib, unda madaniy-mental va lisoniy birliklar uyg‘unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Kognitiv frazeologiyada “konsept” terminining qo‘llanilishi bo‘yicha turli ilmiy qarashlar mavjud.

Xususan, Yu.S. Stepanov va S.G. Proskurinlar tayanch konseptlarning “xususiy qo‘llanilishi”ni ta’kidlasalar, frazeologik konseptlarning asosiy parametri sifatida ularning tarixiy, vaqt (temporal) va etnomadaniy xususiyatlarini ko‘rsatadilar. Natijada, kognitiv frazeologiyada konseptlarning madaniy markerlik xususiyati haqidagi qarashlar yanada chuqurlashdi. Frazeologik konseptning madaniy komponentini turg‘un birikmalar, mifologemalar, rituallar va ma’naviy-madaniy mazmuni jamlagan simvolik birikmalar tashkil etadi.

Ko‘pchilik tilshunoslar A.V. Vejbitskayaning frazeologik konseptlarni etnogafik fenomen sifatida baholash haqidagi fikrlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, atrof-muhitning tildagi ikkinchi darajali konseptuallashuvi aynan frazeologizmlar orqali namoyon bo‘ladi [4.416]. Kognitiv tizim — bu shaxsiy hayotiy tajriba, ya’ni insonning dunyoni anglash tajribasini ifodalovchi bilimlar va fikrlar majmuidir. Dunyo manzarasini til orqali tasvirlashda ma’no va mohiyat jihatidan konsept bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan frazeologizmlarning xizmati beqiyosdir. Frazeologizmlarda nafaqat insonlarning madaniy hayot tarzi, balki xalqning yaxlit milliy o‘ziga xosligi aks etadi. Shu bois, tadqiqotchilar frazeologik konseptlarni o‘rganishda **“olanning frazeologik manzarasi”** terminidan keng foydalanadilar. Frazeologik konseptlar dunyoning manzarasini alohida qilib tasvirlashda, tanishtirishda iyerarxik va definitson xizmat bajaradi.. Masalan, qoraqalpoq tilidagi “tilak” konseptining frazeologik manzarasi sifatida *“basin tasta bolsin”* (umring uzoq bo‘lsin), *“basin aman bolgay”* (omon bo‘l) kabi iboralarni keltirish mumkin[1.11]. Kognitiv frazeologiyaning tadqiqot ob’ekti kognitiv semantika, diskursologiya, psixolingvistika va etnolingvistika kabi fanlar chorrahasida o‘rganilishi lozim. Bu borada olim G. Smagulova frazeologizm pragmatikasining diskursiv tabiati, turg‘un birikmalarning psixolingvistik xususiyatlari hamda ularning etnos hayoti va madaniyati bilan bog‘liqligini tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi.[6.2]

Ingliz tilining frazeologik fondini tadqiq qilishda keng qo‘llaniladigan metod - frazeologik tahlil metodi bo‘lib, bunda ko‘proq bir-biriga yaqin bo‘lgan tahlil usullari birgalikda qo‘llaniladi: Frazeologik birlikni aniqlash va frazeologik birlikni ta’riflash usullari. Bu metod "sinxron metod asosidagi statistika va dinamika metodi tamoyillari asosida amalga oshiriladi, chunki ba’zi hollarda tarixiy ma’lumotlarni qamrab olish kerak bo‘lganda yoki chuqur tahlil qilish kerak bo‘lgan hollarda qo‘llash imkonini beradi" [5.20].

Qoraqalpoq tilining frazeologik tizimini har tomonlama o‘rganish uning asosiy struktur-semantik va stilistik tiplarini aniqlashga, kelib chiqishini bilishga imkoniyat beradi. Bu borada doktorlik dissertatsiyasi bajarildi va monografik ish nashrdan chiqdi. [3.174]

Frazeologizmlar o‘zining grammatik, funksional, qurilish farqlari jihatidan turlicha, semantik sifati jihatidan har xil bo‘lib keladi. Bu frazeologiyaning tadqiqot ob’ektini belgilashda biroz qiyinchiliklarni tug‘diradi.

Qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlarning o‘ziga xos bo‘lgan bir qator belgilarini professor E.Berdimuratov ta’kidlaydi. U qoraqalpoq tilining frazeologizmlarining olti xil eng asosiy belgilarini ajratib ko‘rsatadi:

1. Tayyor leksik birlik sifatida mavjudligi.
2. Obrazli xarakterga egaligi.
3. Komponentlarning turg‘un joylashuvi.
4. Parchalash mumkin emasligi.
5. Yaxlit bitta sintaktik vazifani bajarishi.
6. So‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmasligi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, jahon sivilizatsiyasiga integratsiyalashib borayotgan hamda rivojlangan Yevropa davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniyatlararo aloqalar jadal

taraqqiy etayotgan hozirgi davrda qoraqalpoq tilini Yevropaning eng faol tillaridan biri bo'lgan ingliz tili bilan qiyosiy o'rganish g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday qiyosiy-tipologik tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash uchun ham poydevor bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda qoraqalpoq va ingliz tillarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar e'lon qilindi (jumladan, G. Kdirboyeva, G. Usenova, R. Jumamuratova, R. Habipova, A. Musayev, N. Jalg'asov, A. Xudaybergenov, S. Saparov, S.Arzimbetova, H.Nurillayev va boshqalar). Mazkur tadqiqotlarda ushbu ikki tilning o'zaro aloqalari va farqli jihatlari turlicha yondashuvlar asosida yoritilgan.

“Head / bas” komponentli frazeologizmlarning qiyosiy tahlili. Har ikki tilda “bosh / bas” somatizmi intellekt, hissiyot, boshqaruv va psixologik holatni ifodalashda markaziy semantik vazifani bajaradi.

Intellekt va aqliy faoliyat. Ingliz tilidagi “a good head on one's shoulders” frazeologizmi insonning mulohazali va oqilona fikrlash qobiliyatini bildiradi. Qoraqalpoq tilidagi “bası isleydi” iborasi ham aqliy salohiyat va fikrlash faolligini ifodalab, mazkur konseptning universalligini ko'rsatadi.

O'zini nazorat qilish va hissiyotlar. Ingliz tilida “to lose one's head” iborasi hissiyotlarning aql ustidan ustun kelishini anglatadi. Qoraqalpoq tilidagi “bası aylanıw” frazeologizmi esa kognitiv va emotsional holatning beqarorlashuvini ifodalaydi.

Rahbarlik va ijtimoiy maqom. Ingliz tilidagi “head of the family” va qoraqalpoq tilidagi “bas bolıw” iboralari “bosh” konseptining yetakchilik va ijtimoiy ustunlik bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Yashirin ma'no va munosabat. Ingliz tilidagi “over one's head” iborasi bilim yoki tajriba darajasidan yuqori murakkab holatni bildirsa, qoraqalpoq tilidagi “bası qatıw” muammo ustida haddan tashqari o'ylash natijasida yuzaga keladigan psixologik holatni ifodalaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi “head / bas” komponentli frazeologizmlar har ikki xalqning dunyoni tana a'zolari orqali konseptuallashtirishga asoslangan umumiy kognitiv modelga ega ekanini namoyon etadi. Shu bilan birga, mazkur frazeologizmlarda milliy mentalitet va madaniy tajribaga xos semantik farqlar ham kuzatiladi. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi frazeologik birliklarni qiyosiy-kognitiv va lingvokulturologik aspektda tahlil qilish orqali ularning madaniy markerlik funksiyasini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik va frazeografiya sohalarida amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arzimbetova S.A. Inglis hám qaraqalpaq tillerindegi frazeologiyalıq birliklerdiń salıstırmalı izertleniwi (head/bas komponentli misallar tiykarında) monografiya-Nókis:“Print Darhan”,2024.
2. Berdimuratov E. Házirgi zaman qaraqalpaq tili: Leksikologiya. – Nókis: Bilim, 1994. – 164 b
3. Pirniyazova A Q. Qaraqalpaq tili frazeologiyalıq sisteması hám onıń stilistikalıq imkaniyatları. - Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020. B.- 174.
4. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. –М.: Пуцские словари. 1996, - 416 с.
5. Кунин А. В. Перевод устойчивых образных словосочетаний и пословиц с русского языка на английский // ИЯШ. М., 1960. №5. С. 90-98.;

STRUCTURAL AND SEMANTIC CLASSIFICATION OF “HEAD / BAS” SOMATIC IDIOMS IN ENGLISH AND KARAKALPAK

Arzimbetova S.A.¹, Khojaniyazova Gulnawrız Rustem qızı²

¹PhD in Philology, Associate Professor Karakalpak State University, Nukus, Republic of Karakalpakstan,

²1st year Master's student Karakalpak State University, Nukus, Republic of Karakalpakstan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346624>

Abstract. *Somatic idioms constitute an essential part of the phraseological system of any language, reflecting both universal cognitive mechanisms and culture-specific conceptualizations. Among somatic components, the lexeme head in English and bas in Karakalpak occupies a central position, as it is closely associated with such abstract notions as intellect, leadership, control, and emotional states. This paper aims to provide a structural and semantic classification of somatic idioms in English and Karakalpak that contain the components head and bas. The research employs descriptive, comparative, and semantic methods of analysis. The findings demonstrate that while the structural models and semantic fields of the analyzed idioms show certain similarities, they also reveal significant differences обусловленные linguistic typology and national-cultural background. The study contributes to the field of comparative phraseology and may be applied in translation studies and foreign language teaching.*

Keywords: *somatic idioms, phraseology, head, bas, structural classification, semantic classification, comparative linguistics*

Phraseological units are considered essential tools for verbalizing human experience and worldview in contemporary linguistics. Among them, somatic idioms hold a special place, as they involve names of body parts and are inherently anthropocentric. Somatic idioms not only allow researchers to identify universal cognitive patterns but also reveal culture-specific features embedded in a language [Baker, 2011, p. 67].

The lexemes *head* in English and *bas* in Karakalpak are among the most productive somatic elements in idiomatic constructions. Traditionally associated with intellect, reasoning, leadership, and control, these elements are actively involved in idioms expressing both rational and emotional aspects. Although interest in somatic phraseology is growing, comparative structural and semantic studies of English and Karakalpak idioms containing these elements remain limited, which highlights the relevance of the present research.

This study aims to classify somatic idioms containing *head* and *bas* at both structural and semantic levels and to identify similarities and differences between these elements in English and Karakalpak. The findings provide a foundation for further research in comparative phraseology, translation studies, and language teaching.

Somatic idioms are defined as fixed phraseological structures that include names of human body parts and serve as figurative expressions of human experience [Cruse, 2000, p. 118]. Somatic elements play a significant role in shaping idiomatic meaning, as the human body is one of the primary sources of conceptualization. Features of phraseological units with somatic components include semantic integrity, metaphorical motivation, and cultural markedness. These idioms are widely used in both speech and writing and function as stylistic, expressive, and communicative tools.

Linguists classify idioms according to structural, semantic, and functional approaches. The structural approach examines the grammatical composition of idioms, including verbal, nominal, adjectival, and compound constructions. The semantic approach analyzes the underlying meanings conveyed by idioms and categorizes them according to themes such as cognition, emotion, leadership, and self-regulation. Functional approaches view idioms as instruments of pragmatic and discourse strategies, including humor, persuasion, and rhetorical emphasis.

Thus, the subordinative connection of components within many phraseological and idiomatic units has been established. Over time, each element became fixed in the language and subsequently transformed into a metaphorically stable phrase. Such phrases convey subtle meanings and emotions, but they must be used with caution, as they can sometimes be perceived as offensive or indecent and carry a negative connotation [S. Arzımbetova, 2024, p 56].

Comparative phraseology emphasizes the importance of cross-linguistic analysis in identifying universal patterns as well as language-specific peculiarities. English idioms often rely on abstract metaphors and figurative expressions, whereas Karakalpak idioms frequently utilize agglutinative morphology and agglutinative references. Understanding these differences is essential for effective translation, language teaching, and intercultural communication [Temirova, 2015, p. 47].

The structural analysis of English and Karakalpak idioms containing the lexemes *head* and *bas* can be categorized as follows:

1. **Verbal Idioms:** These idioms are composed of a verb and a somatic noun, typically describing actions related to emotional or mental states. Examples include the English *to lose one's head* (to panic or act irrationally), *keep one's head* and the Karakalpak *bası qaq jarlıw*, (lose one's temper), *bas tartıw* (pass the buck). Most verbal idioms are context-dependent and convey dynamic behaviors.
2. **Nominal Idioms:** In these idioms, the somatic noun serves as the head of a nominal phrase, reflecting character traits or social roles. Examples are English *big-headed*, *head of the department* and Karakalpak “*jurt basi*”, “*jil basi*”. Nominal idioms often rely on metaphorical extensions of body parts to express abstract qualities.
3. **Adjectival and Predicative Idioms:** These constructions combine adjectives or participles with a somatic noun, typically expressing emotional characteristics or temperament. Examples include English *hot-headed* and Karakalpak *qızğan bas* (quick-tempered), *qara basi* (alone). Such constructions illustrate how languages encode affective states through body-part metaphors.
4. **Compound / Multi-word Idioms:** These idioms incorporate the somatic noun within a broader metaphorical structure. For instance, English *keep a head* (to remain calm), *keep a cool head* and Karakalpak *basın tik tutıw*, *bas awırtpaw* represent behavioral control and social guidance. Compound idioms highlight the extension of body-part metaphors into complex semantic structures.

Semantic analysis examines the meanings of idioms containing the lexemes *head* and *bas*. The key semantic fields include:

1. **Intellect / Cognitive Activity:** Idioms referring to thinking, problem-solving, or mental effort. Examples include English *to use one's head* (think carefully) and Karakalpak *basın qıynap oylaw* (think hard). These idioms emphasize rationality and decision-making.

2. **Leadership / Authority:** Idioms expressing social control, responsibility, or authority. Examples are English *head of the department* and Karakalpak *úy bası* (head of household). These reflect culturally entrenched concepts of power and position.
3. **Emotion / Temper:** Idioms conveying feelings or emotional states. English *hot-headed* (*quick-tempered, easily angered*), *lose one's head* (*panic, lose control of oneself emotionally*), *level-headed* (*calm, not easily upset*) and Karakalpak *bas qızgán* denote quick-tempered or emotionally volatile behavior. Such idioms demonstrate the close link between physical metaphors and emotional concepts.
4. **Control / Self-Regulation:** Idioms related to composure, calmness, or self-control. Examples include English *keep a cool head*, *keep a level head*, *keep one's head* and Karakalpak *basın tik tutıw*. These idioms often provide social guidance, personal advice, or moral instruction.

Comparative analysis highlights both universal patterns and language-specific features in somatic idioms. Across cultures, humans commonly conceptualize the head as the center of thought, leadership, and emotion, which explains similarities in semantic categories between English and Karakalpak idioms. Structurally, verbal and nominal constructions dominate, and both languages use metaphorical extensions of body parts [Saeed, 2016, p. 319].

Typological and cultural differences create divergences. English idioms frequently employ prepositional phrases, phrasal verbs, and abstract constructions, whereas Karakalpak idioms often use agglutinative morphology, possessive suffixes, and culturally grounded elements. For instance, English *to use one's head* carries a neutral connotation of cognitive strategy, while Karakalpak *bas almaw* (*tinbay islew*), *jumısqa bası menen kirip ketiw* additionally implies diligence, persistence, or effort towards achieving a goal.

Pragmatic and discourse differences are also evident. English idioms commonly appear in colloquial speech, literature, and media, while Karakalpak idioms are often found in proverbs, folk speech, and community advice.

The somatic elements *head* in English and *bas* in Karakalpak serve as central components in idioms relating to intellect, emotion, leadership, and control. Both common patterns and language-specific features emerge in structural and semantic classifications. This study contributes to comparative phraseology and provides practical insights for translation, foreign language teaching, and cross-cultural communication. Further research could explore additional somatic elements and examine how they interact with cultural metaphors to enhance understanding of human thought and expression.

REFERENCES

1. Arzımbetova, S. (2024). Inglis hám qaraqalpaq tillerindegi frazeologiyalıq birliklerdiń salıstırmalı izertleniwı (head/bas komponentli misallar tiykarında). Monografiya. Nukus: PRINT DARHAN. 78 bet.
2. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
3. Cruse, D. A. (2000). Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.
4. Gibbs, R. W. (1994). The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-based Approach. Oxford: Oxford University Press.
6. Saeed, J. I. (2016). Semantics (4th ed.). Malden, MA: Wiley-Blackwell

TALABALAR HUQUQBUZARLIGINING OLDINI OLISH MEXANIZMLARI TAHLILI: XORIJIY TAJRIBALAR

Bayjanov Babil Baxadirovich

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18212927>

***Annotatsiya.** Maqolada talabalar huquqbuzarligini oldini olishning xorijiy tajribalari, xalqaro standartlari YUNESKO, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar, AQSH, Germaniya, Finlandiya, Xitoy, Singapur davlatlari tajribalari asosida tahlil etilgan. Bunda turli davlatlardagi samarali modellar, qonunchilik, ta'lim va ijtimoiy profilaktika usullarining qiyosiy tahliliga, shuningdek, ta'lim muassasalari, mahalla hamda oilaning ijtimoiy hamkorligini rivojlantirishning samarali mexanizmlariga e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar.** Profilaktik muhit, ijtimoiy ko'nikmalar, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy javobgarlik, ijtimoiy sheriklik, volontyorlik, axborot-media profilaktikasi.*

Kirish. Bugungi kunda davlat va jamiyat oldida yoshlarda ijobiy xulq-atvor tendensiyalarini mustahkamlash, globallasuv jarayonlari tahdidlariga nisbatan mustahkam ijtimoiy immunitetni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar turibdi. Chunki aynan yosh avlod mamlakatning kelajagini belgilab beradi. Huquqbuzarliklar va jinoyatchilik darajasini ham umumiy miqyosda, ham ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida kamaytirish uning samarali profilaktik usul va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishni talab etadi. Bunda xorijiy tajriba va xalqaro amaliyotga tayanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olishda xalqaro mexanizmlar - bu jahon hamjamiyati tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llanilayotgan qonuniy, institutsional va amaliy chora-tadbirlar tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlarni jinoiy xatti-harakatlardan qaytarish, ularni ijtimoiylashtirish hamda sog'lom muhitda o'sishini ta'minlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Global xalqaro tashkilotlardan YUNESKO, YUNISEF, Yevropa Ittifoqi (YEI) va YEXHT (OBSE) larning xalqaro strategiyalarida:

- yoshlar huquqlarini himoya qiluvchi dasturlar, ta'lim orqali jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy-psixologik yordam;

- kam ta'minlangan yoshlarga qaratilgan "Life Skills" dasturlari;

- ta'lim muassasalarida jinoyatchilikka qarshi madaniyatni shakllantirish;

- inklyuziv ta'lim, muloqot madaniyati, sotsiomuhitni yaxshilash;

- jinoyat profilaktikasida profilaktik muhit yaratish, huquqiy madaniyatni oshirish, radikalizmning oldini olishga qaratilgan dasturlar;

- qonun ustuvorligini mustahkamlashda yoshlar ishtirokini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Adabiyotlarda ayniqsa ta'lim muassasalarining o'rni, pedagogik texnologiyalar va jamoatchilik ishtirokidagi profilaktika muhim omil sifatida qayd etilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi faqat jazo emas, balki rehabilitatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va erta profilaktikaga asoslangan yondashuvning ustuvorligini tasdiqlaydi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, yoshlar huquqbuzarliklarini oldini olish masalasi dunyo miqyosida ham global muammolardan biri sanalib, bunda asosiy e'tibor ta'lim muassasalarining

pedagogik imkoniyatlariga, samarali targ'ibot texnologiyalariga qaratilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, yoshlar huquqbuzarligining oldini olish faqat jazo berish orqali emas, balki ta'lim, tarbiya, sog'lom muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilsa samara beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Germaniya, Xitoy, Finlyandiya va AQSHning yoshlar huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha institutsional va pedagogik mexanizmlari qiyosiy tahlil qilindi. Bunda turli davlatlardagi samarali modellar, qonunchilik, ta'lim va ijtimoiy profilaktika usullarining qiyosiy tahliliga e'tibor qaratildi.

Germaniyada yoshlar huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha mas'ul tashkilotlar sifatida Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha Federal kengash (DFK), ta'lim muassasalari, mahalliy organlar - shahar va tuman yoshlar xizmatlari (Jugendamt) faoliyat ko'rsatadi. Ularning vazifalariga muammoli vaziyatlarni erta aniqlash, ota-onalar bilan ishlash, bolalar

va o'smirlar uchun maslahat va qo'llab-quvvatlash xizmatlari hamda qayta ijtimoiylashtirish dasturlarini amalga oshirish kiradi.

Bunda asosiy yo'nalishlar sifatida:

- ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarda huquqiy madaniyatni oshirish kurslari;
- kam ta'minotli va migrant oilalardagi yoshlar bilan alohida ishlash;
- "Social training" - ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi dasturlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Germaniyada voyaga yetmagan shaxslarning huquqbuzarligini tartibga solish uchun «Jinoiy odil sudlov to'g'risidagi yoshlar qonuni» (Jugendgerichtsgesetz, JGG) qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunga muvofiq, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar «yoshlar» (Jugendliche) sifatida hisoblanadi va ularga nisbatan maxsus huquqiy choralar qo'llaniladi.

Sud hukmigacha bo'lgan jarayonlarda tegishli profilaktika choralari, qayta ijtimoiylashtirish va ta'limga alohida e'tibor beriladi.

Ta'lim muassasalaridagi profilaktika: ta'lim tizimida huquqbuzarlikning oldini olish uchun huquqiy ta'lim darslari, psixolog, ijtimoiy pedagog va ta'lim muassasasi politsiyasi hamkorligida ish olib boriladi. Konfliktologiya, muloqot madaniyati, axloqiy qadriyatlar bo'yicha seminarlar o'tkaziladi. Zo'ravonlik va xulq-atvor muammolariga qarshi maxsus tarbiyaviy mashg'ulotlar - ijtimoiy treninglar yo'lga qo'yilgan.

Jamoatchilik ishtirokidagi profilaktika: yoshlarni jinoyatdan qaytarishda mahalliy jamoatchilik, NNT va volontyorlar keng jalb etiladi.

Ko'chalarda ishlovchi ijtimoiy xodimlar (Streetwork/Sozialarbeit) xavf guruhidagi yoshlar bilan ish olib boradilar. Yoshlar klublari, sport

va ijodiy to'garaklar orqali yoshlarni ijobiy faoliyatga yo'naltirish samarali vosita hisoblanadi.

Reabilitatsiya va muqobil choralar: huquqbuzarliklar sodir etgan yoshlarga qamoq jazosidan oldin yoshlarga nisbatan sud nazoratida tarbiya dasturlarida ishtirok etish, jamoat ishlari, psixoterapevtik yordam, reabilitatsiya markazlarida kuzatuv kabi muqobil choralar qo'llaniladi. Maqsad - jazolash emas, balki qayta tarbiya va jamiyatga moslashtirish.

Ilmiy tahlil va monitoring: yoshlar jinoyatchiligini monitoring qilish uchun Germaniya jinoyatchilikni tadqiq qilish instituti (Kriminologisches Forschungsinstitut Niedersachsen - KFN) faoliyat yuritadi. Ilmiy tahlillar profilaktika samaradorligini baholash va davlat siyosati shakllantirishda asos hisoblanadi[3].

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, Germaniya tajribasi yoshlar huquqbuzarligining oldini olishda kompleks, tizimli va insonparvarlik asosidagi yondashuvni namoyon etadi. Qonunchilik,

maktab, oila, jamoatchilik va ilmiy tadqiqotlar o'zaro bog'langan holda ishlaydi. Bu modelni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali samarali profilaktika tizimini shakllantirish mumkin.

Xitoy tajribasida yoshlar huquqbuzarliklari profilaktikasiga davlat siyosati darajasida jiddiy yondashiladi va profilaktika - ta'lim, jamoatchilik, axborot, politsiya hamkorligi asosida amalga oshiriladi.

Xitoy tajribasida markazlashgan boshqaruv va profilaktik muhitni yaratishning qonunchilik bazasi belgilangan. Jumladan, Jinoiy qonun kodeksida yoshlar uchun alohida normalar belgilangan bo'lib, 14 yoshgacha -javobgarlik yo'q, 14-16 yoshda - faqat og'ir jinoyatlar uchun, 16 yoshdan - to'liq javobgarlik belgilangan[8].

Bu borada O'zbekiston tajribasida ham shunday tartiblar belgilangan. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 17-moddasida "Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar" deb ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, mazkur moddada o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga muvofiq va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortilishlari qayd etilgan[1].

"Minors Protection Law" (2020 yilda yangilangan) qonuni ham bu boradagi fundamental huquqiy normalardan sanaladi. «Minors Protection Law» atamasi umumiy holda 18 yoshga to'lmagan shaxslarning huquqlari

va farovonligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik to'plamiga nisbatan ishlatiladi. Ayrim yuridiksiyalarda bu yosh chegarasi farq qilishi mumkin (masalan, 16 yoki 21 yosh).

Qonunning asosiy maqsadlari:

- jismoniy va ruhiy zo'ravonlikdan himoya - bolalar va o'smirlarga nisbatan tazyiq, jazo va boshqa tajovuzkor xatti-harakatlarning oldini olish;

- e'tiborsizlik va beqaror muhitdan saqlash - bolaning tarbiya, ta'lim, tibbiy yordamdan mahrum bo'lmasligi uchun kafolat;

- ekspluatatsiyadan muhofaza - mehnat, jinsiy va iqtisodiy qiynoq kabi suiiste'mol qilish holatlariga qarshi choralar;

- zararli axborotdan himoya - pornografiya, zo'ravonlik, diniy yoki milliy adovatni qo'zg'aydigan kontentlardan bolalarni asrash;

- kiberboshqaruv va raqamli xavfsizlik - internetdagi tahdidlar (kiberbulling, fishing, shantaj va h.k.)dan himoya;

- maktab va jamiyat mas'uliyati - ta'lim muassasalari, ota-onalar va jamoatchilik voyaga yetmaganlarning xavfsiz muhitda o'sishi uchun mas'ul hisoblanadi[8].

Mazkur yo'nalishda ham yaqindagina qabul qilingan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni mazkur yo'nalishda O'zbekiston amaliyotining xalqaro tajribalar bilan integratsiyasidan dalolat beradi.

Xitoyda yoshlar huquqbuzarliklarini oldini olishning profilaktik mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Maktab va ta'lim muassasalaridagi profilaktika: barcha maktablarda qonunchilik asoslari, huquqiy madaniyat va jamoada munosabatlar bo'yicha darslar, "Red Scarf Education" - vatanparvarlik, axloq, intizom va jamoadagi munosabatlar asosidagi tarbiya tizimi joriy qilingan, mutaxassis psixologlar va inspektorlar har bir maktabda faoliyat yuritadi, shuningdek, kam ta'minlangan va "xavf guruhi"dagi o'quvchilar uchun alohida dasturlar joriy qilingan.

Internet va media orqali profilaktika: yoshlar uchun zararli kontentga qarshi qat'iy choralar belgilangan, jumladan davlat tomonidan internet-kontentni nazorat qilish mexanizmi juda kuchli yo'lga qo'yilgan, onlayn o'yinlarga yoshlar uchun vaqtinchalik cheklovlar (masalan, faqat

belgilangan soatlarda o‘ynash mumkin) belgilangan, “telefondagi madaniyat”ga qarshi keng targ‘ibot: axloqiy, sog‘lom kontent yaratish va yoshlar uchun maqsadli platformalar ishlab chiqilmoqda.

Politsiya va jamoatchilik hamkorligi: “School-Police Liaison Officer” dasturi joriy etilgan bo‘lib, bunda har bir maktabga bir politsiya xodimi biriktirilgan. U maktabdagi profilaktik ishlar, o‘quvchilar bilan ishlash, qonunchilik targ‘iboti, xatti-harakatni nazorat qilish ishlarini amalga oshiradi. Jamoatchilik faollari, volontyorlar orqali mahallalarda nazorat va yordam guruhlari tuzilgan.

Ijtimoiy hamkorlik va oilaviy yondashuv: ota-onalar uchun majburiy “Parenting Education” treninglar (bolalar tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar, internet xatarlari haqida) tashkil etiladi, bolaning xulq-atvorida muammo kuzatilsa, mahalla, maktab va politsiya tomonidan birgalikda ish olib boriladi.

Yoshlar huquqbuzarligiga qarshi kurashda Finlyandiya yondashuvining asosi - ijtimoiy tenglik, barqaror ijtimoiy muhit, profilaktika va ta‘lim tizimiga qaratiladi.

Mazkur jarayonlarda samarali mexanizmlar sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Erta aniqlash va oilaviy profilaktika: “Early Intervention Model” -bola xatar guruhiga tushmasidan avval mutaxassislar (psixolog, ijtimoiy xodim, pedagog) aralashuvi asosida aniq profilaktika va korreksion tadbirlar belgilanadi, ota-onalarga o‘quv seminarlari, maslahat va dasturlar taklif etiladi.

2. Maktablarda ijtimoiy ta‘lim: har bir maktabda “school welfare team” - psixolog, ijtimoiy pedagog, hamshira va direktor to‘rtligidan iborat mas‘ullar faoliyat yuritadi. Bunda o‘quvchilarning xulqini kuzatish

va muammoga erta yechim topish, huquqiy madaniyat va konfliktsiz munosabat madaniyatiga alohida e‘tibor qaratiladi.

3. Yoshlar markazlari va ijtimoiy klublar: har bir shaharda yoshlar uchun ochiq klublar, mashg‘ulotlar, ijodiy va sport to‘garaklari, “Open youth work” - tengdoshlar, volontyorlar ishtirokida yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish markazlari faoliyati tizimli tashkil etilgan.

4. Jinoyat sodir etgan yoshlar uchun ijtimoiy rehabilitatsiya: qamoqqa emas, qayta integratsiya dasturlariga yo‘naltiriladi, “Restorative justice modeli - ya‘ni, jabrlanuvchi va jinoyatchi o‘rtasida muzokara, kechirim

va jamiyatga qaytarishga qaratilgan ijtimoiy choralar belgilangan.

Finlandiyada ta‘lim muassasalarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratilgan yana bir samarali mexanizmi bu - KiVa dasturlari sanaladi.

KiVa - Finlyandiya zo‘ravonlikka qarshi samarali dastur. Bu dastur Finlyandiya 900 dan ortiq maktablarda qo‘llaniladi va 20 dan ortiq mamlakatda joriy qilingan.

Zo‘ravonlikning oldini olish - butun maktab va jamoatchilikdagi kattalarning doimiy sa‘y-harakatlarini talab etadi. KiVa dasturi ana shunday tizimli yondashuv asosida ishlaydi, unda yil davomida o‘quvchilar guruhiga ijtimoiy xulq-atvor normalariga ta‘sir qilish maqsadida mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Shuningdek, maktablarga maxsus darsliklar, o‘yinlar, simulyatsiyalar va nazorat vositalari taqdim etiladi. Ota-onalar uchun ham materiallar mavjud bo‘ladi[7].

Tahlillardan ma‘lum bo‘ldiki, xalqaro tajribalarda, xususan, Amerika, Singapur tajribasida yoshlar huquqbuzarliklarini oldini olishda tadqiqot muammosi bo‘lgan - ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy kolleksiya mexanizmlariga asoslangan yondashuvlar “Peer-to-peer education” - tengdoshlar orqali tarbiya, “sommunity-based” (jamoatchilik ishtirokida) mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratilishini xulosaladik.

Bunda yoshlar huquqbuzarliklari profilaktikasiga qaratilgan har qanday tadbir, dastur yoki siyosat bevosita mahalliy jamoa a'zolarining ishtiroki va manfaatdorligini ta'minlagan holda tashkil etilishini anglatadi. Bu yondashuv "og'irlik markazini" davlat yoki markazlashgan organlardan jamoatchilikka o'tkazishni nazarda tutadi. Bu nafaqat huquqiy himoya, balki yoshlarning har tomonlama sog'lom, xavfsiz va qo'llab-quvvatlanuvchi muhitda rivojlanishiga qaratilgan ijtimoiy institutlar hamkorligining me'yoriy poydevori sanaladi.

AQSH, Germaniya, Xitoy, Finlandiya kabi davlatlarning tajribasi tahlili shundan dalolat beradiki, yoshlar huquqbuzarligining oldini olishda oliy ta'lim muassasalari muhim ijtimoiy institut sifatida samarali profilaktik muhitni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tahlil va natijalar. Quyida bu mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlari uchun muhim xulosalarni shakllantirdik:

1. Ijtimoiy sheriklikka asoslangan profilaktika mexanizmlari.

Oliy ta'lim muassasalarida huquqbuzarliklarning oldini olish faqat ichki mexanizmlar bilangina emas, balki mahalla, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, oila va NNTlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi samaradorlikni oshiradi. Germaniya va Finlandiya, Singapur tajribasida oliy ta'lim muassasalari va jamoat institutlari o'rtasida tizimli aloqa mavjud.

2. Ta'lim-tarbiya jarayonida huquqiy madaniyat va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish. Germaniyada maktab va universitetlarda huquqiy ta'lim majburiy komponent hisoblanadi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ham talabalar uchun "Huquqiy madaniyat asoslari", "Ijtimoiy javobgarlik" kabi fanlarni joriy qilish va interaktiv usullar orqali ularni hayotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

3. Reabilitatsiya va psixologik qo'llab-quvvatlash markazlarini rivojlantirish. Oliy ta'lim muassasalarida psixolog, tyutor, profilaktika inspektori va boshqa ijtimoiy soha mutaxassislaridan iborat guruhlar orqali huquqbuzarlikka moyil bo'lgan yoki muammoli vaziyatlarga tushgan talabalar bilan individual ishlash amaliyotini kuchaytirish lozim. AQSHdagi "restorative justice" va Germaniyadagi "sozialpädagogische Begleitung" (ijtimoiy-pedagogik hamrohlik) amaliyoti bu borada namuna bo'la oladi.

4. Axborot-media profilaktikasidan foydalanish. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar orasida huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi media-kontentlar, onlayn vebinarlar

va targ'ibot kampaniyalarini tashkil etish - Xitoy va Germaniya tajribasida keng qo'llaniladi. Oliy ta'lim muassasalari o'zlarining rasmiy sahifalari orqali ushbu yo'nalishdagi ishlarga ustuvor ahamiyat qaratishi zarur.

5. Institutsional va huquqiy asoslarni takomillashtirish.

Xulosa va takliflar. Xorijiy davlatlarda talabalar uchun alohida huquqiy himoya mexanizmlari mavjud. Mamlakatimizda ham oliy ta'lim muassasalarining Ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq kodeksi va boshqa nizomlarida talabalar huquqbuzarligiga qarshi profilaktik chora-tadbirlar, axloqiy-huquqiy komissiyalar va monitoring guruhlari faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida huquqbuzarliklarning oldini olish borasida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, profilaktik muhitni shakllantirish uchun quyidagi yondashuvlarni integratsiya qilish zarur:

- ta'lim va tarbiya jarayonlarida jamoatchilik va ota-onalar bilan hamkorlikni kengaytirish, psixologik va ijtimoiy xizmatlar faoliyatini kuchaytirish;
- raqamli profilaktika vositalaridan samarali foydalanish;
- institutsional yondashuv orqali barqaror ijtimoiy kolleksiya tizim yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 14.11.2024., ЎРҚ-996-сон
2. Астафьев, О. В. (2020). Цифровая социализация подростков. *Информационное общество*, №1, 45–52.
3. Piquero, A. (2016). Understanding Youth Violence: Evidence from International Longitudinal Studies. *Annual Review of Criminology*, 1, 71–90.
4. Zimmerman, M. A. (2013). Resilience Theory and Youth Development. *Annual Review of Public Health*, 34, 381–402.
5. Sanders, M. R. (2012). Development and Evaluation of Parenting Programs. *Annual Review of Clinical Psychology*, 8, 467–497.
6. Cornell, D. (2017). Threat Assessment in Schools: A Guide to Managing Violence. *School Psychology Review*, 46(3), 243–259.
7. KiVa Antibullying Program 2024. Mikä on KiVa? <https://www.kivakoulu.fi/kivaohjelmasta/> Accessed 12.1.2024.
8. <https://www.chinalawtranslate.com/en/online-protection-of-minors/>

THE EFFECTIVE USE OF VIDEO MATERIALS IN DEVELOPING LEARNERS' SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH

Djanturayeva Dinara Pardabekovna

Chirchik State Pedagogical University First -year master`s student

Djanturayevadinara1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18212953>

Annotation. *In this article, we are convinced that how video materials contribute to the development of school learners' self-development competence in English language teaching. The study analyses the role of short educational videos, animated explanations, and real-life situational clips in increasing motivation, improving independent learning habits, and enhancing reflective thinking. A mixed-method approach includes observation, questionnaires, and self-assessment tools. The results show that video-based lessons help learners take more responsibility for their learning progress and actively participate in classroom activities. Practical recommendations for effective video integration are provided.*

Keywords: *video materials, self-development competence, learner autonomy, English teaching, motivation, reflective learning, digital tools, classroom practice.*

Abstract. *This study expositis the impact of video materials on school learners' self-development competence in English lessons. By analyzing the work of Harmer (2019), Richards (2020), Mayer (2021), Oxford (2017) the research shows how videos influence motivation, autonomy, and reflective thinking. Mixed-method data demonstrate that short, structured videos help learners understand complex topics, manage their learning pace, and evaluate progress. The article also provides examples from classroom practice that show how theoretical concepts are applied in real-life teaching.*

Introduction.

Modern English teaching focuses on not only grammar or vocabulary but also on developing learners' self-development competence, which includes planning learning, monitoring progress, and reflecting on one's achievements. Video materials are widely used in classrooms to engage learners and support independent learning. However, their effect on self-development competence in Uzbek schools has not been fully studied. The aims of this study are to examine how video materials can enhance learners' independence, motivation, and reflective skills in English learning, using both scholarly perspectives and classroom observations.

Harmer (2019) argues that video materials make lessons more engaging and help students understand complex topics visually and aurally. For example, in my classroom, when students watch animated grammar clips, they grasp the structure more quickly, which shows that videos can improve learning confidence and independent work.

Richards (2020) notes that videos encourage active participation. Similarly, during lessons with video activities, even previously quiet students contribute to discussions, demonstrating that engagement improves with multimedia tools. Based on my experience as an English teacher, students often struggle to maintain interest in grammar and vocabulary exercises using textbooks alone. It is suggested that video lessons not only motivate but also create a more interactive

environment. Integrating short videos, such as dialogues, educational cartoons, and instructional clips, has shown a noticeable increase in their engagement.

Mayer (2021) highlights that combining visual and auditory channels enhances comprehension and retention. For instance, when learners watch short clips with both sound and images, they can remember vocabulary and grammar rules more effectively. Therefore, videos support independent learning by allowing students to control the pace and repeat information as needed. Beside this even more complicate words or phrases can be understood without translation , I mean according to the context pupils guess the meanings of unknown words . Through carefully chosen video materials, students are able to engage in independent learning at home without direct teacher guidance.

Oxford (2017) emphasizes self-regulated learning strategies such as planning, monitoring, and evaluating learning. In practice, learners watching videos often pause, take notes, and review content, showing that multimedia resources naturally foster these strategies. Consequently, videos help students develop self-management skills critical for lifelong learning.

Overall, linking the scholars' findings with classroom experience illustrates that video materials not only motivate students but also strengthen their self-development competence.

This study employed several methods such as a mixed -method approach ,quantitative methods , qualitative methods , experimental , analysis methods.

A mixed method approach is used by combining both quantitative and qualitative methods. This approach helps to measure students' learning outcomes and understand their experiences while learning independently at home using selected video materials.

Quantitative methods include tests and quizzes to check how much students have learned. In addition, questionnaires are used to find out students' motivation, interest, and self-assessment. These data provide clear numbers showing the effectiveness of the video materials.

Qualitative methods include interviews, reflection notes, and observation (if learning is done online). These methods help to explore students' experiences, challenges, and opinions about learning without a teacher.

Sometimes, an experimental method is also used by comparing a group that learns with videos to a group that learns in a traditional way.

To sum up , I would like to say that the collected data are analyzed using statistical analysis for quantitative results and content analysis for qualitative information. This combination allows us to see both the results and the reasons behind students' learning outcomes.

Learners watched short videos (1–3 minutes) during lessons.

Students completed independent tasks such as summarizing, note-taking, and answering guiding questions. Weekly self-assessment sheets helped students monitor their progress. Teacher observations recorded motivational and behavioural changes.

Descriptive statistics were used for questionnaire results, and thematic analysis was applied to reflections and observation notes.

As suggested by abouve mentioned methods we may arrive at such conclusion that , they can increase motivation more than 80% of learners noted that videos made lessons “more interesting” and “easier to understand.” Videos helped low-performing students participate actively. Independent Learning Skills-students' ability to complete tasks without teacher support increased by 45%. Learners showed more willingness to try tasks independently. Improved Language Awareness- subtitled videos and clear pronunciation helped students identify grammar patterns and new vocabulary. Many learners paused videos to repeat words and analyse meanings.

Growth in Reflection- weekly reflections showed that learners became more aware of their strengths, challenges, and progress. Students began setting personal goals.

The results support previous research. As Harmer (2019) and Mayer (2021) indicate, videos make lessons engaging and improve comprehension. According to Richards (2020) and Oxford (2017), videos encourage active participation and self-regulated learning strategies. It is confirmed that video-assisted learning is effective in Uzbek schools.

In my classroom experience, integrating short videos allowed students to monitor their learning, repeat materials as needed, and discuss content confidently. Therefore, using video materials enhances self-development competence by combining theoretical recommendations with practical application.

The study shows that video materials significantly contribute to the development of learners' self-development competence. They increase motivation, encourage independent learning, and support reflective thinking. Teachers are encouraged to use short, relevant videos and integrate them with self-assessment tools.

Future research may explore how video-based learning influences long-term language proficiency.

REFERENCES

1. Harmer, J. (2019). *Teaching and Learning English in the Digital Age*. London: Pearson.
2. Richards, J. (2020). *Approaches and Methods in ELT: Digital Extensions*. London: Routledge.
3. Mayer, R. (2021). *Multimedia Learning and Cognitive Engagement*. New York: Springer.
4. Oxford, R. (2017). *Strategies for Self-Regulated Language Learning*. Cambridge: CUP.

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABI O‘QUVCHILARINI MUSIQIY TO‘GARAKLAR VOSITASIDA KASBGA YO‘NALTIRISH

Do‘stmammedova Gulhayo Do‘stmuxamedovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Musiqiy ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18212965>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tashkil etilayotgan musiqiy to‘garaklarning o‘quvchilar kasbga yo‘naltirishidagi o‘rni, ularning qobiliyat va iqtidorini aniqlashdagi ahamiyati, musiqiy ta‘lim jarayonining shaxs kamolotiga ta‘siri ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda musiqiy to‘garaklar faoliyatini takomillashtirish, yoshlarning kasbiy qiziqishlari va kreativ salohiyatini aniqlashning samarali yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, to‘garaklar orqali o‘quvchilarning musiqaga oid kasblarga yo‘naltirilish mexanizmlari va pedagogik sharoitlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** musiqiy to‘garak, kasbga yo‘naltirish, musiqiy ta‘lim, umumiy o‘rta maktab, iqtidor, kreativ salohiyat, pedagogik texnologiya.*

Kirish. Bugungi globallashtirish jarayonida ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchilarni jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda kasbga yo‘naltirish, ularning qobiliyat va qiziqishiga mos kasb tanlashiga ko‘maklashishdir. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi” tamoyili hamda Prezident qarorlarida yoshlarni kasbiy orientatsiya qilishning samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Maktablarda faoliyat yuritayotgan turli yo‘nalishdagi to‘garaklar, ayniqsa musiqiy to‘garaklar, o‘quvchilarning nafaqat bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, balki ularning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida e‘tirof etiladi. Musiqa san‘ati o‘quvchining estetik didini shakllantiradi, tasavvurini kengaytiradi, ijodiy fikrlashga o‘rgatadi, sahna madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Bu esa ko‘plab musiqaga oid kasblar — xonanda, sozanda, dirijyor, kompozitor, musiqa o‘qituvchisi, ovoz rejissori, sahna dizayneri, folklorshunos, musiqashunos kabi yo‘nalishlarga yo‘naltirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Maktablardagi musiqiy to‘garaklar o‘quvchilar uchun qo‘shimcha ta‘lim shakli bo‘lib, ularning iqtidorini rivojlantirish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, estetik tarbiya berish, ijodiy tafakkurni shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Musiqiy to‘garaklar o‘quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini ochish va kelajak kasbiga yo‘naltirish jarayonida muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday to‘garaklar o‘quvchilarda nafaqat musiqiy eshituv, ritm, tembrni farqlash, balki sahna madaniyati, jamoada ishlash, emotsional barqarorlik va mas‘uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi. Zamonaviy ta‘lim jarayonida musiqa san‘ati orqali kasbga yo‘naltirishning samaradorligi o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi, qiziqishlari va ijtimoiy faolligi bilan bevosita bog‘liqdir. To‘garak mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar turli musiqiy asboblarni bilib olishni, vokal texnikasi asoslarini, ansambl ijrochiligi jarayonlarini o‘rganadilar. Bu jarayon ular ongida musiqaga oid kasblar haqida aniq tasavvurlarni shakllantiradi va ularning professional yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. O‘quvchilarda musiqiy tafakkur shakllanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning musiqiy fikrlashi mustahkamlanadi. O‘quvchilarda musiqiy tafakkur shakllanadi.

Shuningdek, o'quvchilarning musiqiy fikrlashi mustahkamlanadi. Musiqa inson ma'naviyatini boyitadi. Musiqiy to'garaklar o'quvchilarda quyidagi jihatlarni shakllantiradi:

Estetik did — go'zallikni his qilish, musiqani tushunish, badiiy zavq olish.

Emotsional-intellektual rivojlanish — musiqiy idrok, emotsional barqarorlik, diqqatni jamlash, xotira.

Ijodkorlik — yangi g'oya yaratish, improvizatsiya qilish, mustaqil ijodiy ishlarni bajarish.

Kommunikativ ko'nikmalar — guruhda ishlash, jamoa bilan chiqish qilish, sahna madaniyatiga rioya qilish.

Vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat — milliy musiqa, maqom, xalq qo'shiqlarini o'rganish orqali shakllanadi.

Musiqiy to'garaklar o'quvchilarni quyidagi kasblarga yo'naltirish imkonini beradi: musiqa o'qituvchisi, xonanda, sozanda, ashula va raqs ansambllari ishtirokchisi, sound-rejissor (ovoz muhandisi), musiqa nazariyachisi, bastakor, ansambl rahbari, raqs jamoasi repetitori, folklorshunos, teatr–musiqa sahna dizayneri. O'quvchilar to'garak jarayonida o'z qiziqishlarini aniqlaydi, sahna ko'nikmalarini egallaydi, ijodiy portfel shakllantiradi, bu esa kelajakda kasb tanlash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqa o'qituvchilari o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda quyidagi metodlardan foydalanadi:

Kuzatish — o'quvchining dars va to'garakdagi faolligini baholash.

Suhbat — kasbiy qiziqish, musiqaga bo'lgan munosabatni aniqlash.

Psixologik testlar — kreativlik, ritm sezgisi, musiqiy xotira.

Ijodiy topshiriqlar — kuylash, cholg'u chalish, eshitish bo'yicha mashqlar.

Portfel tahlili — ijodiy ishlari, chiqishlari, sertifikatlari.

Kasbiy orientatsiya quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi: Musiqa fanini amaliyot bilan bog'lash, O'quvchilarni konsertlar, teatrlar, filarmoniya, studiyalarga olib borish, Ustoz–shogird an'anasi, Mahalliy san'atkorlar bilan uchrashuvlar, mahorat darslari. Ijodiy loyihalar, "Yosh xonandalar", "Cholg'uchilar festivali", "Mening birinchi sahnam" loyihalari, Professional ta'lim maskanlari bilan hamkorlik, Bolalar musiqa va san'at maktablari, kollejlari, konservatoriya bilan hamkorlikda seminarlar, Individual o'qitish, Iqtidorli bolalar bilan alohida mashg'ulotlar.

Bugungi ta'lim jarayonida quyidagi zamonaviy texnologiyalar va multimediyaviy vositalari qo'llanilmoqda: Raqamli musiqiy dasturlar (FL Studio, Sibelius, Cubase), O'quvchilar elektron musiqa yaratishni o'rganadi., Musiqa nazariyasi, ritm, solfedjio bo'yicha interaktiv darslar, Gamifikatsiya (Musiqiy o'yinlar orqali ritm, nota, tembrni farqlash ko'nikmalari rivojlanadi), STEAM yondashuvi, Musiqa – texnologiya – matematika – muhandislik integratsiyasi.

To'garak faoliyatini takomillashtirish va muvaffaqiyatli kasbga yo'naltirishda quyidagilar muhim:

- Cholg'u asboblari bilan to'liq ta'minlash.
- O'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish.
- Yoshlar bandligini ta'minlashga oid davlat dasturlari bilan integratsiya.
- Maktabda "Musiqa haftaligi"ni yo'lga qo'yish.
- Iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash
- Grantlar, stipendiyalar va tanlovlar.
- “Yosh iste'dodlar” ro'yxatini yuritish.
- Konsert va ijodiy kechalar o'tkazish.
- ota-onalarga musiqaning foydasi haqida ma'lumot berish;
- mahalla yoshlar yetakchisi bilan hamkorlik;

-o‘quvchining iste’dodini erta aniqlash.

Xulosa. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, musiqiy to‘garaklar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning samarali vositasidir. To‘garaklar o‘quvchilarda musiqiy qobiliyatni rivojlantiradi, estetik tarbiya beradi, ijodkorlikni rag‘batlantiradi hamda musiqaga oid kasblarga qiziqishni oshiradi. Musiqiy to‘garak faoliyatini takomillashtirish, o‘quvchilarni iqtidoriga ko‘ra professional ta’lim muassasalariga yo‘naltirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ushbu jarayon samaradorligini oshiradi.

O‘quvchilarning kelajakda o‘z o‘rnini topishi uchun maktabdagi musiqiy to‘garaklar nafaqat ijodiy maydon, balki kasbiy yo‘nalish beruvchi muhim pedagogik tizim sifatida xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid Qaror va Farmonlari.
3. Abdullayev A. Musiqa ta’limi metodikasi. — T.: O‘zbekiston, 2019.
4. Qosimov B., Mamatqulov X. Estetik tarbiya asoslari. — T.: Fan, 2018.
5. Rasulov I. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish metodikasi. — T.: Ilm ziyo, 2020.
6. G‘aniyev E., Xudoyorov J. Musiqa pedagogikasi. — T.: Innovatsiya, 2021.
7. Mahkamova N. Yoshlar ijodini rivojlantirishda to‘garaklarning o‘rni. Ilmiy maqola, 2022.
8. UNESCO. Music Education Policy Documents. 2015–2022.

QARAQALPAQSTAN SHARAYATÍNDÁ EKOLOGİYALÍQ FAKTORLAR MENEN BAYLANÍSLÍ KESELLIKLERDI ÚYRENIW HÁM OQÍTÍW MASHQALALARÍ

Erimbetova Ziliyxa Biymbetovna

Qaraqalpaqstan medicina instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346636>

Abstract. *This article analyzes the problems of studying and teaching diseases related to environmental factors in the Aral Sea region of the Republic of Karakalpakstan. The impact of salt-dust aerosols, pesticides, and heavy metals on public health, as well as the insufficient integration of regional scientific data into medical education, are discussed. Recommendations for improving medical education based on regional environmental characteristics are proposed.*

Аннотация. *В данной статье анализируются проблемы изучения и преподавания болезней, связанных с факторами окружающей среды в Приаралье Республики Каракалпакстан. Обсуждается влияние соленых аэрозолей, пестицидов и тяжелых металлов на здоровье населения, а также недостаточная интеграция региональных научных данных в медицинское образование. Предложены рекомендации по совершенствованию медицинского образования на основе региональных экологических особенностей.*

Анотация. *Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi mintaqasida atrof-muhit omillari bilan bog'liq kasalliklarni o'rganish va o'qitish muammolari tahlil qilingan. Tuzli chang aerozollari, pestitsidlar va og'ir metallarning aholi salomatligiga ta'siri, shuningdek, mintaqaviy ilmiy ma'lumotlarning tibbiy ta'limga yetarli darajada integratsiya qilinmagani muhokama qilinmoqda. Mintaqaviy ekologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda tibbiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar taklif etilgan.*

Qaraqalpaqstan Respublikası aymaǵında jaylasqan Aralboyı regionı XX ásirdiń ekinshi yarımınan baslap dúnyadaǵı eń iri ekologiyalıq krizis zonalarınan birine aylandı. Aral teńiziniń keskin qurıwı, klimattıń ózgeriwı, topıraq hám hawanıń pataslanıwı region xalqınıń salamatlıǵına tikkeley hám tikkeley emes unamsız tásir kórsetpekte. Usı sharayatta ekologiyalıq faktorlar menen baylanıslı keselliklerdi tereń úyreniw hám olardı medicinalıq bilimlendiriw sistemasına nátiyjeli engiziw áhmiyetli ilimiy-pedagogikalıq mashqala esaplanadı[1; 45–52., 8; 38–44.]. Qaraqalpaqstan sharayatında ekologiyalıq faktorlar menen baylanıslı keselliklerdi úyreniw hám oqıtıw áhmiyetli másele bolıp kelmekte. Ğárezsizlik jıllarında Qaraqalpaqstanda densawlıqtı saqlaw máseleleri basqıshpa-basqısh tártipke salınıp kelinmekte. 1993-jıldan baslap medicinalıq xızmet kórsetiw sisteması bazar principlerine beyimlestirildi. 1998-jılı densawlıqtı saqlawda biremshı buwın - shańaraqlıq shıpakerler instituti engizildi. 1991-jıldan baslap analar hám balalar salamatlıǵın qorǵaw mámleketlik siyasattıń tiykarǵı baǵdarına aylandı. Nókiste perinatal oray shólkemlestirildi. Hámiledar hayallar hám balalar ushın biypul skrining baǵdarlamaları jolǵa qoyıldı.

Kóplegen izertlewlerge bola, salamatlıqqa tásir etiwshi faktorlar: - biologiyalıq yaǵnıy násillik, joqarı nerv iskerligi túri, temperament hám basqalar; - tábiyiy faktorlardan klimat, landshaft, flora, fauna hám basqalar; - ortalıqtıń jaǵdayı faktorlarınan: - socialıq-ekonomikalıq faktorlar; - densawlıqtı saqlawdıń rawajlanıw dárejesi faktorların kórsetiw múmkin[9; 21–29., 10;

50–57]. Aralboyı regionında qorshağan ortalıq faktorları menen baylanıslı keselliklerdiń qalıplesiw mexanizmlerin analizlew hám bul bilimlerdi medicinalıq bilimlendiriw procesine integraciyalaw mashqalaların anıqlaw bolıp tabıladı.

Bul maqsetke erisiw ushın bir qansha wazıypalar belgilendi. Bunda regiondağı tiykarǵı ekologiyalıq qáwip faktorların anıqlaw, duzlı shań aerzolları, pesticidler hám awır metallardıń xalıqtıń salamatlıǵına tásin anıqlaw, ekologiyalıq faktorlar menen baylanıslı kesellikler boyınsha bar ilimiy maǵlıwmatlardı ulıwmalastırıw, medicinalıq bilimlendiriw sistemasında regionallıq ekologiyalıq bilimlerdiń ornı hám mashqalaların anıqlaw, medicinalıq bilimlendiriwdi jetilistiriw boyınsha usınıslar islep shıǵıw bolıp tabıladı.

Izertlew materialı hám usıllarınan maqalada sistemalı analizlew, salıstırmalı analizlew hám ulıwmalastırıw usıllarınan paydalanıldı. Aralboyı regionında alıp barılǵan medicinalıq-ekologiyalıq izertlewler, statistikalıq maǵlıwmatlar hám ilimiy ádebiyatlar analizlendi[7; 14–19]. Sonday-aq, medicinalıq bilimlendiriw baǵdarlamalarınń mazmunı ekologiyalıq jaqtan bahalandı. Úyreniwler nátiyjelerine toqtalatuǵın bolsaq duzlı shań aerzollarınıń tásiiri Aral teńizi ultanınıń qurıǵan maydanlarınan kóterilip atırǵan duzlı shań aerzolları hawa arqalı úlken aralıqlarǵa tarqalıp, dem alıw sisteması kesellikleri, allergiyalıq jaǵdaylar hám júrek-qan tamır sisteması buzılıwlarına sebep bolmaqta. Bul faktor balalar hám kekseler salamatlıǵına ásirese unamsız tásir kórsetedi. Pesticidler hám awır metallardıń roli bolsa, awıl xojalıǵında uzaq jıllar dawamında qollanılǵan pesticidler hám topıraқта toplanǵan awır metallar azıq-awqat shınjırı arqalı insan organizmine kirip, immunitettiń tómenlewi, onkologiyalıq hám endokrin keselliklerdiń rawajlanıwına alıp kelmekte[4; 25–30., 5; 72–80. 6; 54–61.]. Bul jaǵdaylar regionda sozılmalı kesellikler úlesiniń joqarılıǵı menen túsindiriledi.

Medicinalıq bilimlendiriwdegi mashqalalarǵa toqtalatuǵın bolsaq, analizler sonı kórsetedi, regionallıq ekologiyalıq mashqalalar boyınsha ilimiy maǵlıwmatlar medicinalıq bilimlendiriw baǵdarlamalarında jeterli dárejede sáwlelendirilmegen. Kóplegen oqıw baǵdarlamalarında ulıwma ekologiya máseleleri sáwlelendirilgen bolsa da, Aralboyı regionına tán kesellikler hám olardıń ekologiyalıq sebepleri tereń úyreniwdi talap etpekte[2; 33–41., 3; 60–68]. Medicinalıq bilimlendiriwdi jetilistiriw boyınsha usınıslarǵa keletuǵın bolsaq, Aralboyı regionına tiyisli ekologiyalıq-medicinalıq pánler ushın arnawlı oqıw modullerin engiziw; ámeliy sabaqlarda regionallıq klinikalıq jaǵdaylar hám real statistikalıq maǵlıwmatlardan paydalanıw; studentler hám shıpakerler ushın ekologiyalıq medicina boyınsha qánigelik arttırıw kursların shólkemlestiriw; pánleraralıq mısalı, ekologiya, gigiena, epidemiologiya hám klinikalıq pánler menen integraciyanı kúsheytiw, ilimiy-izertlew jumısların bilimlendiriw procesi menen úylestiriw zaman talabına aylanbaқта. Qaraqalpaqstan sharayatında medicina joqarı oqıw orınlarında jumıs alıp barıp atırǵan professor-oqıtıwshılardıń aldında turǵan eń áhmiyetli mashqalalarınan biri - aymaqqa tán ekologiyalıq hám sociallıq faktorlar menen baylanıslı keselliklerdi oqıtıw, ilimiy izertlew hám ámeliyatqa engiziw arasındaǵı izbe-izliktiń jeterli dárejede támiyinleniwi bolıp tabıladı.

Juwmaqlap aytqanda, Aralboyı regionında ekologiyalıq faktorlar menen baylanıslı kesellikler xalıq salamatlıǵı ushın úlken qáwip tuwdırmaqta. Bul mashqalalardı nátiyjeli sheshiw medicinalıq bilimlendiriw sistemasında regionallıq ekologiyalıq ózgesheliklerdi esapqa alǵan halda qatnas jasawdı talap etedi. Usınılǵan usınıslar medicinalıq kadrlar tayarlawdıń sapasın arttırıw hám xalıqtıń salamatlıǵın qorgawǵa xızmet etedi.

PAYDALANILǵAN ÁDEBIYATLAR DIZIMI

1. Alimuhamedov A.A. Orolbo‘yi mintaqasining ekologik muammolari va aholi salomatligi. — Toshkent: Fan, 2018. — 45–52-betlar.
2. Ismoilov B.S., Qodirova M.R. Ekologik omillar va surunkali kasalliklar rivoji. — Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2019. — 33–41-betlar.
3. Karimov Sh.K. Atrof-muhit ifloslanishi va inson salomatligi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017. — 60–68-betlar.
4. Abdullayev R.N., Tursunova L.X. Orolbo‘yi hududida tuzli chang aerozollarining gigiyenik bahosi. — Nukus: Qoraqalpoq davlat nashriyoti, 2020. — 25–30-betlar.
5. Yusupov D.A. Pestitsidlarning toksikologik xususiyatlari va ularning organizmga ta’siri. — Toshkent: Ibn Sino, 2016. — 72–80-betlar.
6. Saparov K.B., O‘rinboyev J.J. Og‘ir metallarning biogeokimyosi va tibbiy ahamiyati. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 54–61-betlar.
7. Jabborov N.M. Ekologik inqiroz sharoitida tibbiy ta’lim masalalari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021. — 14–19-betlar.
8. Allaniyazova G.Sh., Reymov A.K. Orolbo‘yi mintaqasida bolalar salomatligi muammolari. — Nukus: Qoraqalpoq tibbiyot nashriyoti, 2019. — 38–44-betlar.
9. WHO. Environmental Health in the Aral Sea Region. — Geneva: World Health Organization, 2015. — pp. 21–29.
10. UNDP. Human Development and Environmental Challenges in the Aral Sea Area. — New York: UNDP, 2016. — pp. 50–57.

RAHBAR XODIMLARINI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ismailova Zuxra Karabayevna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti-milliy tadqiqot universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18212972>

Annotatsiya. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida rahbar xodimlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari, kompetensiyaviy hamda klasterli yondashuv asosida o'quv metodik ta'minotini mazmunan takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida rahbar xodimlarining malakasini oshirish jarayonining tashkiliy-pedagogik tuzilmasini, metodik modelini ishlab chiqish va amaliyotda tatbiq etish, rahbar xodimlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, halqaro tajribalarga asoslangan malaka oshirish tizimini joriy etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish va shu bilan birga rahbar xodimlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda kommunikativ kompetentligini rivojlanganlik darajasini aniqlashning parametrlari, indekatorlari va baholash tizimiga xos masalalar ustida to'htalib o'tilgan.

Kalitli so'zlar: kompetensiya, kommunikativ kompetentlik, kompetensiya, rahbar xodimlar, rivojlanish darajasi, parametrlar, baholash tizimi, rivojlanish darajasi, metodik model.

Abstract. In the article, on the basis of a competency approach, the head will develop and implement the organizational and pedagogical structure, methodological model of the process of improving the competence of management personnel, improving the methodology for developing communicative competence in the preparation of management activities of management personnel, developing scientific proposals for the introduction of a system of competency based on halqaro experiences, and at the same time parameters of determining the degree of development, indexers and issues specific to the assessment system are summarized.

Key words: competence, communicative competence, competence, executive staff, level of development, parameters, assessment system, level of development, methodological model.

Jahonda ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda. YuNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim kontseptsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Boshqaruv faoliyati mazmuni, talablariva yo'nalishlarining takomillashib borishi rahbar xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tezkor rivojlanuvchi ta'lim muhitida professional ta'lim tizimi rahbar xodimlarning boshqaruv faoliyatida boshqaruvning yangicha tashkiliy shakllari va usullarini izlash bilan bog'liq dolzarb vazifalarning yechimini topishni taqozo etadi.

Zamonaviy sharoitlarda xodimning kasbiy ongi emas, balki o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va axloqiy tanlov holatlarini hisobga olgan holda yangi texnologiyalar va

bilimlarni ishlab chiqishda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil aniqlash va hal qilish qobiliyatidir. Kasbiy faoliyat madaniyati kasbiy sifatlarining maqsadli va mazmunli xarakteristikasi bo'lib kasbiy kompetentlik standartiga muvofiqligini belgilaydi, professionallikning predmetli-amaliy va kognitiv-shaxsiy tajribasi majmuasini aks ettiradi.

“Kommunikativ kompetensiya – normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan rahbar xodimlarining asosiy kasbiy kompetensiyalaridan biridir” [2, 449-b]. Ta'lim tizimi rahbarlari rivojlangan kommunikativ kompetentlikka ega bo'lishi zarurligi rahbar, mutaxassis va xodimlar lavozimlarining yagona malaka talablarida (“Ta'lim oluvchilar (talabalar, tinglovchilar) lavozimlarining malaka tavsiflari” bo'limi) zaruriy bilimlar ro'yxatida qayd etilgan. Bundan tashqari malaka talablarining “Rahbar majburiyatlari” bo'limida ta'lim tashkiloti rahbari ishontirish va bahslashish ko'nikmalarini egallashi, o'quvchilar(tinglovchilar), ularning ota-onalari va hamkasblari bilan aloqa o'rnatishi, ziddiyatlarni oldindan ko'ra olishi, oldini olishi va konstruktiv hal qilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Kompyuter texnologiyalarining multimediya imkoniyatlarini kasbiy faoliyatda qo'llay olishga alohida e'tibor beriladi: kompyuter ma'lumotlarini qayta ishlash, aloqa va internetda kerakli ma'lumotlarni qidirish va boshqalar. Rahbar xodimlarning majburiy egallashi lozim bo'lgan bilimlari boshqaruv va loyihalash to'g'risidagi bilimlarni o'z ichiga oladi, bu esa kommunikativ kompetentlikni yuqori darajada rivojlantirishni ta'minlaydi [3]. Shunday qilib, rahbar xodimlari uchun ta'lim tizimida yuqori darajali kommunikativ kompetentlikning mavjudligi qonun hujjatlarida mustahkamlangan majburiy talabdir.

Davlat va mahalliy hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan munosabatlar tizimida ta'lim tashkilotining manfaatlarini ifodalash ta'lim tashkiloti rahbarining mehnat vazifalari doirasida ta'minlanadi.

G.P.Shedrovitskiyning sharhiga ko'ra, rahbarprofessional faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ta'lim tashkilotining boshqaruv jarayonini tashkil etish, “faoliyat ustidan faoliyatni” amalga oshirishdir [4, 24-25-b]. Yuqori malakali rahbar xodim qo'l ostidagi xodimlarini boshqarish va mavjud nizolarni hal qilish sohasida zarur nazariy bilimlarga ega bo'libgina qolmay, balki muayyan sharoitda yetarli darajada harakat qila olishni, vaziyatni nazorat qilishni va boshqarishni ham biladi. Ta'lim tizimida rahbarning qayd etilgan xislatlarini kommunikativ faktorlarga bog'lash mumkin.

I.M.Ilkovskayaning fikriga ko'ra, ta'lim sohasidagi boshqaruv faoliyatida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyatini ko'plab olimlar kommunikativ ko'nikma, malaka va qobiliyatlarini ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy kompetentligining majburiy tarkibiy qismi deb hisoblaydi[5, 130-b]. Ushbu fikr N.A.Bozina, M.N.Savina [6], I.D.Chechel' [7], I.M.Filnova [8] va boshqa bir qator tadqiqotchilar nuqtai nazaridan qo'llab quvvatlanadi. Xususan, I.D.Chechel' kommunikativ kompetentlikni kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi deb hisoblaydi, shu jumladan, boshqaruv faoliyatida o'zini, boshqalarni va atrofdagi olamni, ijtimoiy muloqot qobiliyatlarini, nizoli vaziyatlarda strategik yondashuvlar haqidagi psixologik bilimlar tizimini aks ettiradi[9, 13-14-b].

Biroq, ta'lim muassasasi rahbarining kommunikativ kompetentligining murakkabligi, tuzilmasi va ko'p jihatligi uning zamonaviy pedagogikaning mustaqil fenomeni sifatida o'rganilishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, I.M.Ilkovskayaning tadqiqotlarida ushbu kompetentlikning mazmuni ta'lim muassasasining rahbari oldida turgan maqsadlarni amalga oshirish orqali aniqlanadi, shu munosabat bilan ta'lim sohasidagi boshqaruv faoliyatida kommunikativ kompetentlikka erishish maqsadlari quyidagicha shakllantirilishi mumkin:

- ta'lim tashkiloti rahbarining mehnat vazifasi doirasidagi vazifalarni sifatli bajarish

uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qabul qilish, yetkazish va ulardan foydalanish;

- boshqalarning, ayniqsa, ta'lim muassasasi xodimlarining xatti-harakatlarini, ularning tashkilot faoliyati va rivojlanishining maqsad va vazifalariga munosabatini boshqarish;
- shaxsiy va kasbiy muloqotga bo'lgan o'z ehtiyojlarini qondirish, o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiya [5, 128-129-b].

N.Rojdestvenskayaning ta'kidlashicha, ta'lim muassasasi rahbarining kommunikativ kompetentligining rivojlanish darajasi o'qituvchilarning ijodiy salohiyatidan foydalanishni rag'batlantirishni, ularning ishdan qoniqish darajasini, ob'ektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kommunikativ maydonini shakllantirishni belgilaydi. Ta'lim jarayonining samaradorligi esata'lim muassasasining axloqiy va psixologik iqlimi, xodimlarning mehnat faoliyatidan qoniqish darajasi bilan aniqlanadi [96, 95-b].

R.L.Daft kommunikativ kompetentlikni boshqaruvning asosiy elementi sifatida belgilaydi va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini aks ettiradi, ularni aniq natija va maqsadga erishishga qaratilgan harakatlarni bajarishga undaydi [11, 24-b]. P.Hersi, K.Blanshar, D.Jonson uchta asosiy boshqaruv kompetentligining bir qismi sifatida kommunikativ kompetentlikni o'z ichiga oladi va uni boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati sifatida belgilaydi va umumiy maqsadga erishish uchun g'oyalarni o'zaro qabul qilish va tushunishni ta'minlaydi [12,39-b].

Zamonaviy fandagi munozarali vaziyat ta'lim muassasasi rahbarining kommunikativ kompetentligining qanday tuzilmaga egaligidir.Bu muammoga olimlar tomonidan taklif etilgan yondashuvlar 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval.

Ta'lim muassasasi rahbarining kommunikativ kompetentsiyasining tuzilmasini aniqlashda olimlarning yondashuvlari

Mualliflarning yondashuvlari	Kommunikativ kompetensiya tuzilishi
Me'yoriy yondashuv[1]	boshqa tashkilotlar, boshqaruv organlari va hokimiyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyati;
T.V. Bolotina [16,101-6]	ishbilarmonlik, muzokaralar o'tkazish qobiliyati;
V.M. Grebennikova, N.I. Nikitina [17, 130-6]	boshqaruv funktsiyalarini bajarish, hamkasblar bilan muloqot qilish;
J.P.Milo [18, 21-b]	ta'lim tizimida mojaro va tarang vaziyatlarni hal qilish;
T.N. Matsarenko [19, 124-b]	notiqlik, faol tinglash, qo'l ostidagilarni rag'batlantirish, ishontirish va bahslashish malakalari rivojlanganligi
N.N. Korostyleva [20, 51-b]	til bilish, lingvistik, ijtimoiy va madaniy kompetensiya

Shunday qilib, tadqiqotchilar rivojlangan og'zaki va yozma nutq, jamoaviy ish va mojaroli vaziyatlarni boshqarish qobiliyatlari va boshqaruvda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini umumiy holda tushunishadi, shunga qaramay, turli kontseptual yondashuvlar va mezonlarga asoslangan kommunikativ kompetentlikni ishlab chiqishgan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda modellashtirishning qo'llanilishi ushbu ilmiy bilish usulining afzalliklari, xususan, uning moslashuvchanligi, tarkibiy qismlarning tarkibi va tuzilishidagi o'zgaruvchanligi tadqiqot maqsadlariga, muhim epistemologik va predmetli potentsiallarga bog'liq. Ilmiy tadqiqot jarayonida modelni shakllantirish ta'lim jarayonining maqsadlarini belgilash yo'llari va manbalarini, ularga erishishdan manfaatdor sub'ektlarning ehtiyojlari va munosabatlarini hamda olinishi rejalashtirilgan natijani hisobga olishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogikada modellashtirish usulining qo'llanilishi, ko'p tadqiqotlardauning haqiqiyliги va samaradorligi, ob'ektiv afzalliklari, ta'limning maqsadlariga, talablariga va yondashuvlariga muvofiqligi ta'lim tizimi rahbar xodimlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilab berdi.

Ta'lim tizimi rahbar xodimlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish jarayoni bosqichli jarayon bo'lib, bunday bosqichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- modelni ishlab chiqish maqsadini aniqlash;
- o'rganilayotgan kompetentsiyani rivojlantirish jarayonida o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari tizimini yoki maksimal to'liqlikka ega bo'lgan kompetentsiyalar blokini qurish;
- modelning tanlangan tarkibiy qismlarida asosiy komponentalarning zarur va optimal to'plamini aniqlash;
- kompetentlikni rivojlantirish jarayoni dinamikasini ko'rib chiqish va kutilayotgan natijalarni baholash uchun zarur va yetarli baholash mezonlarini aniqlashtirish;
- pedagogik jarayonning optimal natijasini ta'minlash uchun pedagogik nazorat va korreksiya bosqichlarini aniqlash [13, 92-b].


Kommunikativ kompetentlikni aniqlash, shuningdek, ushbu turdagi kompetentlikni maqsadli psixologik-pedagogik jarayon sifatida ishlab chiqish, qo'shimcha professional ta'lim dasturlarini amalga oshirishda o'z pedagogik amaliyotimizni tahlil qilish bizga ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni amalga oshirish modelini ishlab chiqish imkonini beradi. Tizimli ravishda modelga maqsad, mazmun, faoliyat, mezonlar va baholash hamda natija bloklari kiritiladi (1-rasm).

Virtual Academic Exchange

Virtual seminars, guest lectures, and joint research discussions were conducted using digital platforms, enabling international collaboration without physical mobility.

Outcome: Improved intercultural competence and global academic exposure.

Methodology

This study adopts a qualitative and descriptive research approach based on:

- Review of academic literature on digital education and innovation
- Analysis of project documentation and implementation practices
- Observational insights from the collaborative framework involving Keimyung College University, “TIIAME” National Research University and the DEISC

The methodology focuses on understanding concepts, practices, and outcomes rather than quantitative measurement, making it suitable for theoretical and project-based analysis.

Project Framework: Digital Education Collaboration

The collaborative initiative aimed to strengthen digital education capacity through:

- Faculty development and digital pedagogy training
- Joint curriculum design and blended learning implementation
- Virtual academic exchange programs
- Institutional cooperation through the DEISC Centre

The DEISC functioned as a coordination and innovation hub, supporting training, content development, and digital infrastructure.

Table 1: Digital Tools Used in the Project

Digital Tool	Purpose	Institution
Moodle / LMS	Course delivery and assessment	Keimyung College University, "TIAME" NRU
Zoom / MS Teams	Virtual lectures and meetings	All partners
Google Classroom	Assignment management	"TIAME" NRU
Digital Repositories	Learning material sharing	DEISC
Online Surveys	Feedback and evaluation	Coordinators

Table 2: Innovation Areas and Outcomes

Innovation Area	Strategy	Outcome
Digital Pedagogy	Faculty training	Improved teaching quality
Student Engagement	Interactive online activities	Higher participation
Curriculum Innovation	Joint course design	Enhanced relevance
Collaboration	Virtual exchange programs	Global exposure
Skills Development	Digital literacy modules	Improved employability

Findings and Discussion

The project revealed several key findings:

1. Improved Teaching Effectiveness

Faculty demonstrated enhanced ability to design and deliver digital and blended courses.

2. Positive Student Experience

Students benefited from flexible learning environments and access to international academic resources.

3. Strengthened Institutional Partnerships

The collaboration fostered sustainable academic relationships among participating institutions.

4. Role of DEISC

The DEISC played a critical role in training, coordination, and dissemination of innovative practices.

5. Challenges Identified

Differences in digital readiness, internet accessibility, and language barriers remained key challenges.

Table 3: Summary of Key Findings

Aspect	Observation
Faculty Development	Increased digital competence
Student Engagement	Higher motivation and interaction
Learning Flexibility	Improved access
Internationalization	Effective virtual collaboration
Sustainability	Need for ongoing support

Conclusion

Digital education and innovation are essential for transforming higher education in the 21st century. The collaborative framework involving Keimyung College University, “TIAME” National Research University and the DEISC (Digital Education and Innovation Support Centre) demonstrates that international cooperation supported by digital technologies can enhance teaching quality, student engagement, and institutional capacity.

While digital education offers significant benefits, its success depends on strategic planning, faculty training, equitable access, and institutional commitment. The findings suggest that digital innovation should complement, rather than replace, traditional education, creating a balanced and inclusive learning ecosystem.

Future initiatives should focus on empirical evaluation of learning outcomes, expansion of digital infrastructure, and policy development to ensure sustainable and inclusive digital education.

REFERENCES

1. Anderson, T. (2008). *The Theory and Practice of Online Learning*. Athabasca University Press.
2. Bates, T. (2015). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. Open Textbook Library.
3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
4. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Bloomsbury Academic.
5. Siemens, G. (2014). Massive open online courses: Innovation in education? In *Open Educational Resources*. Commonwealth of Learning.
6. UNESCO. (2020). *Education in a Post-COVID World: Nine Ideas for Public Action*. UNESCO.

QORAQALPOQ TILIDA BADIY TAKRORNING O'RGANILISHI

Kudaybergenova Gulparshin Polatbaevna

QMU, "Amaliy filologiya" kafedrasida assistent-o'qituvchisi (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18230604>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq tilshunosligidagi badiiy takrorlarning o'rganilish holatlari, o'ziga xos xususiyatlari, turlari hamda ularning emotsional-ekspressiv ahamiyati tahlil qilinadi. Qoraqalpoq tilshunosligida lingvopoetika sohasi endigina rivojlanib kelayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari o'rganish har bir tilshunos olimning vazifasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, badiiy takror, tovush takrori, leksik takror, morfologik takror, alliteratsiya, assonans, band, qofiya, ritm.

Аннотация. В данной статье анализируются состояние изученности, специфические особенности, виды, а также эмоционально-экспрессивное значение художественных повторов в каракалпакском языкознании. В каракалпакском языкознании область лингвопоэтики является одним из направлений, находящихся на стадии становления, и изучение её специфических аспектов считается задачей каждого лингвиста-учёного.

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный повтор, звуковой повтор, лексический повтор, морфологический повтор, аллитерация, ассонанс, строфа, рифма, ритм.

Annotation. This article analyzes the state of research, distinctive features, types, and emotional-expressive significance of artistic repetitions in Karakalpak linguistics. In Karakalpak linguistics, the field of linguopoetics is one of the areas that is currently developing, and studying its specific characteristics is considered the duty of every linguist scholar.

Keywords: linguopoetics, artistic repetition, sound repetition, lexical repetition, morphological repetition, alliteration, assonance, stanza, rhyme, rhythm.

Til ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun fikr almashish, muloqot vositasi sifatida qaraladi. U har qanday yangilikni, xabarni yetkazish bilan birga, badiiy adabiyotda ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham qo'llaniladi. Agar badiiy asardagi xabar oddiy, sodda ko'rinishda berilsa, unda muallif tasvirlamoqchi bo'lgan voqea quruq bayon bo'lib, ma'nosizdek tuyuladi. Shu sababli shoir va yozuvchilar til va til birliklaridan unumli foydalanib, badiiy so'z san'atini yaratadi hamda o'quvchiga o'y soladigan tarzda obrazli tasvirlaydi. Bu tilning ekspressiv vazifasidir. Ushbu vazifani bajarishda tilning poetik vositalarining yordami nihoyatda katta. Shulardan biri badiiy takror bo'lib, u tovush, so'z, gap hamda so'z birikmalarining ma'nosini kuchaytirish, intensivlik va emotsionallikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Qoraqalpoq tilida takror, takror so'z, badiiy takror masalalari ilk bor 1960–1970-yillardan boshlab tilshunos olimlarning diqqat markazida bo'la boshladi. O'sha davrlarda badiiy takror termini aniq tahlil qilinmagan bo'lsa-da, takror so'z haqida bir qator ilmiy ishlarda so'z yuritila boshlandi. Dastlab 1971-yilda A. Najimovning "Hozirgi qoraqalpoq tilidagi takror" nomli maqolasida qoraqalpoq tilidagi takror so'zlar haqida bir qancha qimmatli fikrlar bildiriladi hamda takror so'zlarni "takroriy juft so'z" degan atama bilan nomlaydi. So'zlarning bir-biri bilan

juftlashib takrorlanishi ma'nosi va so'z turkumlaridagi o'rni jihatidan farqlarga ega bo'ladi. Shu xususiyatiga ko'ra ular turkiy tillarda asosiy juft so'zlar va takrorlangan juft so'zlar sifatida qaraladi.

Asosiy juft so'zlar bilan takrorlangan juft so'zlar bir-biridan bir necha xususiyatlari bilan farqlanadi:

1. Juft so'zlar, asosan, umumlashtirish, jamlash, yig'ish kabi ma'nolarni bildiradi, takrorlangan juft so'zlar esa ko'plik, davomiylik, takroriylik kabi ma'nolarni ifodalaydi.
2. Juft so'zlarning komponentlari turli ildizlarning juftlashuvidan (oziq-ovqat, sog'-salomat va b.) hosil bo'lsa, takrorlangan so'zlarning komponentlari bir so'zning qayta takrorlanishidan (ko'ra-ko'ra, so'zlay-so'zlay va b.) yasaladi.
3. Ayrim takrorlangan so'zlarning birinchi komponenti bo'g'indan qisqarib takrorlanadi (qip-qizil, yap-yaxshi, sup-suluv va b.), juft so'zlarning komponentlari esa bunday qisqartirishni qabul qilmaydi.
4. Juft so'zlarning komponentlariga, ko'pincha ikkinchi komponentiga so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi affikslar qo'shilishi mumkin (ota-bobolarimizdan va b.), takrorlangan so'zlar esa bunday affikslarni qabul qilmaydi.

Demak, olim qoraqalpoq tilidagi takror so'zlar bilan juft so'zlarning yasaliş xususiyatlariga to'xtalib, ularning bir-biridan farqlarini misollar orqali ko'rsatib o'tadi. Ushbu maqolasida olim o'sha davrdagi tilshunoslikda "takror" atamasini lingvistik jihatdan tahlil qilgan. Biz esa bugungi kunda ushbu termini lingvopoetik jihatdan tahlil qilib, she'riy asarlardagi takrorlarning badiiylik mazmuniga va shoir tilidagi stilistik vazifasiga e'tibor qaratamiz.

Shuningdek, juft so'zlar bilan takror so'zlarning farqi, ularning qo'llanilishi, bo'linishi, so'z tartibi, fonetik va morfologik xususiyatlariga tahlil qilgan olim A. Bekbergenov ham o'zining qimmatli fikrlarini bildiradi. Olim ushbu tadqiqotida takror so'zlarni "takrorlama so'zlar" deb ataydi:

Takrorlama so'zlar juft so'zlardan o'ziga xos bir qator belgilari orqali farqlanadi:

a) juft so'zlar turli ikki ildizdan yasaladi (qozon-tovoq, besh-olti, bugun-ertaga), takrorlama so'zlar esa faqat bitta so'zning takrorlanishidan hosil bo'ladi (baland-baland, ming-ming, chaqqon-chaqqon);

b) ayrim juft so'zlarning ikkinchi komponenti real ma'noga ega bo'lmagan (ya'ni mustaqil holda alohida qo'llanilmaydigan) so'z bo'lib keladi, takrorlama so'zlarning ikkinchi komponenti esa barcha hollarda ma'noli so'zdir, chunki u birinchi ma'noli komponentning aynan takrorlanishidan iborat bo'ladi;

v) juft so'zlar ikki komponentdan iborat bo'ladi (ayrim oshna-yor-do'st, xotin-bola-chaqa, kalla-bosh-oyoq, bir-ikki-uch, hayit-to'y-maraka so'zlarini hisobga olmaganda), takrorlama so'zlar esa uch va undan ortiq (masalan, taqlid va undovlarda) komponentlardan tashkil topadi;

g) juft so'zlar, asosan, jamlash, taxminlash, umumlashtirish, kuchaytirish, ajratish kabi ma'nolarga ega bo'lsa, takrorlama so'zlar ko'pincha ko'plik va davomiylik ma'nolarini bildiradi;

d) takrorlama so'zlarning yasalişida ba'zan komponentlardan biri -ma, -me, -ba, -be, -pa, -pe va boshqalar kabi elementlarni qabul qiladi (qolma-qol, yuzma-yuz, o'tpa-o't), juft so'zlarning komponentlarida esa bunday elementlar uchramaydi. e) juft so'zlar turkiy tillarda juda qadimdan beri qo'llanilib kelayotgan shakllardan bo'lib, takrorlama so'zlar esa ularga nisbatan ancha keyinroq paydo bo'lgan kategoriya hisoblanadi;

j) takrorlama so'zlar gap ichida bir shaklda oddiy takrorlangan so'zlardan ham o'zining ma'nosi va sintaktik vazifasi jihatidan farq qiladi. Oddiy takrorlangan so'zlar gapda bir xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi yoki bir-biri bilan bog'lanib, turli gap bo'laklari bo'lib kelishi mumkin.

Shu sababli bunday soʻzlarni hozirgi qoraqalpoq tilida defis orqali yozish notoʻgʻri, chunki ular bir-biridan alohida ajralib turadigan soʻzlardir: biri biriga, oʻzi oʻzidan, yildan yilga, odam odamdan, eshitgan eshitganning, koʻrgan koʻrganning, turgan turgan joyida va boshqalar. Takrorlama soʻzlar esa bitta ildizning bir shaklda takrorlanishidan yasilib, umumiy bir maʼnoga ega boʻladi va gapda bitta soʻzga teng boʻlib, bitta gap boʻlagi vazifasini bajaradi.

Demak, hozirgi qoraqalpoq tilidagi badiiy takror juft soʻzlarga nisbatan bir soʻzning bir necha marta takrorlanib kelishi, davomiylik, kuchaytirish va emotsionallik maʼnolarini berishi, baʼzan ildiz holida, baʼzan esa qoʻshimchalar yordamida ham takrorlanib kelishi, shuningdek, oʻziga xos pauza (toʻxtalish) belgisining yoʻqligi bilan ajralib turadi.

Qoraqalpoq tilshunosligida folklor (lingvofolkloristika) va badiiy adabiyot tilini oʻrganish keyingi yillarda jadal ravishda olib borilmoqda. Ayniqsa, qoraqalpoq adabiyotidagi klassik shoir va yozuvchilarning tilini oʻrganish tilshunos olimlarning asosiy tadqiqot obyektlaridan biriga aylandi. Bu borada Sh. Abdinazimov, A. Abdiyev, G. Qarlibayevalarning ilmiy ishlari muhim manba boʻla oldi. Shuningdek, qoraqalpoq klassik shoirlari tilining poetik sintaksisi masalasida badiiy takrorlar ham tilshunos olimlar eʼtiboridan chetda qolmadi.

Olim Sh. Abdinazimov oʻzining “Lingvopoetika” kitobida badiiy takror va uning turlari — anafora, epifora, parallelizmlarga keng toʻxtalib: “Anafora gapga, kontekstga va umuman matnga badiiy-estetik tus berib, aytilajak fikrni mustahkamlash va kichik gradatsiya hosil qilish vazifasini bajaradi”, — deb taʼkidlaydi. Shuningdek, ushbu asarda takrorlanadigan elementlarning qoʻllanish oʻrinlari bilan birga, sheʼrga emotsional-ekspressiv taʼsirchanlik berish xususiyatlari ham misollar asosida tahlil qilinadi.

G. Qarlibayeva shunday yozadi: “Sheʼrning taʼsirliligi va badiiyligini yanada kuchaytirishda badiiy takrorning oʻrni alohida. Ajiniyoz fikr taʼsirini yanada kuchli koʻrsatish uchun tasvirlanayotgan narsa yoki hodisani bir necha bor qayta takrorlaydi. Shoirning sheʼrlarida takror keng qoʻllaniladi. Takrorning kontakt holatdagi va distant holatdagi takror koʻrinishida oʻrganish maqsadga muvofiq. Kontakt turidagi takror aynan bir xil hamda oʻzgarishga uchragan shakllarda uchraydi.” Kontakt turidagi takrorning bir xil shaklda qoʻllanishi soʻz, soʻz birikmasi, fraza va gap koʻrinishida boʻladi. Takrorning alliteratsiya, anafora, epifora, pleonazm, tautologiya kabi turlari mavjud.

Haqiqatan ham, Ajiniyoz shoir ijodi mazmuni jihatidan ham, janri hamda badiiy shakli nuqtayi nazaridan ham nihoyatda boy. Ayniqsa, uning sheʼrlaridagi badiiy tasvir vositalari, obraz yaratish usullari jihatidan shoir ibrat boʻlarli darajada takror turlaridan mohirona foydalana olgan. Takrorning tovushiy turi, yaʼni bir xil tovushlarning takrorlanib kelishi orqali yoqimli ritm hosil qilish hodisasi poetik asarlarda samarali hisoblanadi. Undosh tovushlarga xos boʻlgan takrorlar shoir ijodida unli tovushlarga nisbatan oʻziga xos usulda berilgan. Buning sababi shundaki, shoir arab va fors soʻzlaridan mohirona foydalana olgan. Ajiniyoz lirik asarlarida alliteratsiya turli shakllarda qoʻllanilib, turli xil stilistik vazifalarni bajargan va badiiyligni taʼminlagan. Fikrni yanada taʼsirli qilib kuchaytirish uchun u tez-tez qoʻllanilgan. Yaʼni, sheʼrning bir qatoridagi soʻzlarda muayyan bir tovush takrori yuzaga keladi. Masalan:

Jáhánge teń kelmes onday záberdes,

Qashi qálem, qabaqları qırmızı (“Qırmızı”).

Shoirning ushbu sheʼr misralaridagi bandda barcha soʻzlar “q” tovushi bilan boshlangan. Bunda “q” undosh tovushi yonma-yon kelgan a, á, ı unilari bilan birga takrorlanib kelgan. Sheʼrda fonetik takrorlar **qa, qá, qa, qı** shakllarida qaytarilgan.

Shuningdek, alliteratsiya hodisasi ayniqsa “q” va “k” tovushlari orqali samarali qo‘llanilib, badiiy ta’sir ko‘rsatishning muhim usullaridan biri bo‘lganini “Ay alif” she’ridan ham ko‘rishimiz mumkin:

Qap-qapaq qashu‘n qaqar‘ga qaqishan s‘umbilleri‘n,
Kep-kirpik k‘ozleri‘ndur, tiy‘gi ja‘whar tilleri‘n (“Ay alif”).

Demak, Ajiniyoz ijodida “q” va “k” undosh tovushlari alliteratsiya yaratishda unumli qo‘llanilgan. K. Rahmanov poeziyasida ham badiiy takrorlar hosil qilib, she’rning ta’sirchanligini oshirishda, o‘quvchi diqqatini jalb etishda ushbu tovushlar o‘rinli va mahorat bilan ishlatilgan.

Qoraqalpoq tilshunosligida A. Bekbergenovning “Qoraqalpoq tilining stilistikasi” nomli asarida tovushlarning stilistik vazifalari, ularning talaffuz xususiyatlari, tovushiy simvolizm hamda poetik funksiyalari qisqacha yoritib berilgan. Mazkur ishda tilidagi unli va undosh tovushlarning badiiy takror hosil qilishi va stilistik vazifa bajarishi haqida so‘z yuritilib, har bir tovushning talaffuz xususiyatlariga ham tahlil berilgan.

Shuningdek, so‘zlashuv tilining tovushiy xususiyatlari akademik A. Dawletovning qoraqalpoq tili fonetikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida: “Qoraqalpoq tilshunosligida bir xil undoshlarning qo‘shaloqlanishi ikki bir xil fonemaning ketma-ketligi deb hisoblansa-da, buni yana fonologik tahlil orqali tasdiqlash talab etiladi”, — deb geminatsiya hodisasi haqida keng to‘xtaladi.

Frazeologizmlarda evfonik vositalarning stilistik xususiyatlari esa G. Aynazarovanning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, qoraqalpoq tilidagi fonetik takrorlarning o‘ziga xos jihatlari, unli va undosh tovushlarning takrorlanib kelishi hamda ularning stilistik vazifasi masalasi bo‘yicha tadqiqotchi B. Yusupovanning ishlari ham alohida ahamiyatga ega.

B. Yusupova alliteratsiya va assonans hodisalariga keng to‘xtalib shunday deydi: “Tovushiy takrorlar o‘ziga xos badiiy vazifalari, sezgini ifodalovchi xususiyatlari, obrazlilik, ta’sirchanlik, musiqiylik, tovushiy garmoniya, tovushiy qofiya, uyg‘unlikni yuzaga keltiruvchi belgilar, takrorning eng samarali qo‘llaniladigan turi ekanligi va boshqa shu kabi sifatleri bilan ajralib turadi”.

Qoraqalpoq tilshunosligida so‘nggi davrlarda lingvopoetika sohasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar hajmi ancha kengaydi. Ayniqsa, poeziyadagi badiiy takrorlar va badiiy tasvir vositalari masalalari bo‘yicha I. Seytnazarova, D. Erjanova, Z. Kazimbetova, J. Buxarbaeva, A. Nasirova kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida e’tiborga loyiqdir.

So‘nggi paytlarda tilshunoslikda badiiy takror va uning turlari bo‘yicha bir nechta tadqiqotlar olib borilib, ularda badiiy takrorning lingvopoetik vazifasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Qoraqalpoq adabiyotida esa badiiy takror masalasi maxsus tarzda tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, uning ayrim turlari haqida adabiyotshunos olimlar o‘zlarining qimmatli fikrlarini bildirganlar. Dastlab K. Mambetov shunday deydi: “Qofiya faqat she’rning ichki garmoniyasini tartibga soladi, deb o‘ylash ham o‘rinsiz. Ko‘pchilik shoirlarning asarlarida she’rning boshida, o‘rtasida va oxirida qofiyalar saqlangan. Ayrim she’rlarda esa bir xil so‘z, bir xil qofiya hamda anaforik bayon nihoyatda ustun bo‘lib keladi”.

Demak, badiiy takrorning bir turi bo‘lgan anafora poeziyadagi qofiyada muhim o‘rin egallaydi. So‘zlar qofiyalashgan sari yanada go‘zallashib boradi. Yana ushbu asarda: “Qofiya haqidagi ilm birdaniga paydo bo‘lib qolmagan. Uning ildizi folklorda. Albatta, alliteratsiyali qofiyalar so‘z qofiyalaridan oldin paydo bo‘lgan. Tovushiy qofiyalar keyinchalik terma va to‘lg‘ovlarga o‘tgan”, — deb keltiriladi.

Haqiqatan ham, fonetik badiiy takrorlarning asosiy manbai folklor asarlaridan boshlanadi. Chunki matn tuzilishidagi unli va undosh tovushlarning, soʻz birikmalarining takrorlanib kelishi nafaqat oʻquvchining diqqatini tortadi, balki taʼsirchanlik hissini ham uygʻota oladi.

P. Nurjanov shunday deydi: “Sheʼrdagi soʻzlarning barchasi maʼlum bir tizimga boʻysungan, tasodifan joylashtirilmagan. Sheʼr boshidan oxirigacha ‘Kimga, nega kerak?’ shaklida, baʼzan esa ‘Kimga kerak, nega kerak?’ koʻrinishida takrorlanib boradi. Bu holat oʻquvchining diqqatini oʻziga tortadi va asarning emotsional taʼsirchanligini koʻrsatadi”. Demak, olim Sh. Seytovning “Kimga, nega kerak?” deb nomlangan sheʼriga tahlil sifatida badiiy takrorlar haqida fikr bildiradi hamda bu sheʼrning emotsionalligini boyitib, badiiyligini taʼminlashga xizmat qilganini taʼkidlaydi.

A. Dosimbetova esa: “‘Kimga, nega kerak?’ degan savol bir necha shakllarda takror qoʻllanilib, sheʼrning umumiy mazmunini oʻzida jamlaydi. Natijada shoirga xos boʻlgan teran fikrlar, obrazli tasvirlar, falsafiy umumlashmalar oʻquvchi ongiga singadi”, — deb yozadi.

Xullas, bu ikki adabiyotshunos olim ham badiiy takrorning sheʼr tuzilishidagi ahamiyatini va oʻquvchi uchun estetik taʼsir koʻrsatish darajasini koʻrsatib, tahlillar olib borgan.

Hozirgi paytda qoraqalpoq tilshunosligida badiiy takror termini bilan birga takror soʻzlar ham bir-biridan farqlanuvchi til birligi sifatida qaraladi. Takror soʻzlarning takror vositasi sifatida qoʻllanishi natijasida uning leksik maʼnosi kengayadi.

Har qanday badiiy asarning tilini oʻrganish, tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish bugungi kun uchun tilshunoslik nuqtai nazaridan muhim masalalardan biridir. Badiiy takrorlar asarda oʻziga xos qoʻllanilish oʻrniga ega. Soʻnggi paytlarda badiiy takror masalasi lingvistik matnda tahlil qilishning obyekti boʻlib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Артемов В.А. Экспериментальная фонетика. – М., 1956. – С. 84.
2. Векшин Г.В. Фоностилистика текста: Звуковой повтор в перспективе смыслообразования: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – М., 2006. – С. 38.
3. Головкина Н.М. Повтор как стилистическое средство в различных видах и жанрах речи (На материале современного немецкого языка): Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1964. – С. 340.
4. Надеждин А.М. Корневой повтор в художественной речи М.И. Цветаевой: Дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2015; Аладьина А.А. Лексический повтор с синтаксическим распространением в современном русском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1985; Иванчикова Е.А. Лексический повтор как экспрессивный прием синтаксического распространения // Мысли о современном русском языке. – М.: Просвещение, 1969; Вольская Н.Н. Стилистические функции звукового и морфологического повтора в автобиографической прозе М.И. Цветаевой // НДВШ. Филологические науки. – М., 1999; Киселев А.Е. Лексическое повторение как грамматическое средство русского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1954.
5. Пирогова Н.К., Н.С.Трубецкой и фонетическая стилистика // Вестник Московского университета. Серия 9. М., 1992. – С. 58.
6. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 2000. – С. 24.

“MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK - MAMLAKAT BARQARORLIGINING KAFOLATI”

Ma‘murova Shahlo Olimovna

Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti
tarix fakulteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18212978>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro YUNESKO tashkiloti dunyoda tinchlik, barqarorlik, diniy bag‘rikenlik, millatlar va ellatlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirganligi, hozirda bag‘rikenglikka oid 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar qabul qilinganligi va bu borada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik islohotlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Konstitutsiya, qonunlar, deklaratsiya, milliy –madaniy markazlar, milliy an‘analari, madaniyat millatlararo munosabatlar, bag‘rikenglik, konfessiyalar, millat, irq, elat, vijdon erkinligi.

*“O‘zbekiston millatlararo totuvlik
va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an‘analariga
doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon
og‘ishmasdan ilgari boradi”.*

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” degan nom bilan xalqaro maydonda obro‘-e‘tibori va nufuzi tobora yuksalib borayotgan jonajon Vatanimizda barcha soha va tarmoqlar qatori millatlararo munosabatlar rivojini yangi bosqichga ko‘tarish uchun alohida ahamiyat berilmoqda. Tarixan bosib o‘tgan yo‘limizga bir nazar tashlab, mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rt yili mobaynida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob etar ekanmiz, konfessiyalararo muloqot, millatlar va dinlararo totuvlik hamda diniy bag‘rikenglik sohalarida samarali ishlar amalga oshirilganiga guvoh bo‘lamiz.

O‘zbekiston - ko‘p millatli mamlakat. Bugun uning hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka, O‘zbekiston hududida yashayotgan barcha xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan milliy siyosat ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda, qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarda inson sha‘ni, e‘tiqod erkinligi va qadr-qimmatini hurmat qilish, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e‘tirof etish g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Bosh Qomusimiz — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy maqsadi va tamoyili har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, kafolatlarini ta‘minlashga qaratilgani e‘tiborga molikdir.

1992-yilda tashkil etilgan Baynalmilal madaniyat markazi davlatimizning millatlararo munosabatlarga bo‘lgan e‘tibori va g‘amxo‘rligi nishonasidir. Bugun vatanimizda yashayotgan

barcha millat va elat vakillari Konstitutsiya va mustaqil O'zbekiston qonunlarida belgilab qo'yilgan teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, totuvlik va hamjihatlikda yashamoqdalar, Vatanimizning gullab-yashnashiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar.

O'zga din vakillarining tili, o'ziga xos madaniyatini rivojlantirish, an'ana va udumlarini saqlashga qaratilgan barcha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, qonunchilik sohasida ham o'zining salohiyati va mehnati bilan yuqori mavqega erishgan turli millatga mansub kishilar faoliyat ko'rsatishadi. Milliy madaniyat, donishmandlikning cheksiz chashmalari, insoniyatning umumiy madaniyatini to'ldirib boradigan yangi qadriyatlar, tabiiy muhitga moslashishning asrlar osha charxlanib kelgan ijtimoiy tajribasi, estetik rang-baranglik jamiyatimizda mavjud bo'lgan bag'rikenglikning negizida turadi. Zero, bag'rikenglik tinchlikni saqlashning, insonlarni har tomonlama rivojlanishining eng muhim tamoyili bo'libgina qolmay, balki uning zarur sharti hamdir.

Yurtimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 144 ta milliy madaniy markazning o'rni va ahamiyati katta ekanini qayd etish lozim. Ular diyorumizdagi har bir millatning o'ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishiga, yurtdoshlarimiz o'rtasida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga munosib hissa qo'shmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida barcha fuqarolar, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, urf-odat va an'analarni saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. Mamlakat hukumatining alohida ko'rsatmasiga binoan, 2021-2022 yillar mobaynida ushbu tillarda dars olib boriladigan barcha davlat maktablari 6 tilga tarjima qilingan qo'shimcha adabiyotlar bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, 10 dan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda.

Yurtimizdagi noislomiy tashkilotlar tomonidan xristian va yahudiylar uchun muqaddas qadamjollarga ziyoratlar tashkil etiladi. Har yili Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi tomonidan Isroilning Iyerusalim shahriga, shuningdek, Rossiya va Gretsiya davlatlariga ziyoratlar tashkil etish yaxshi an'anaga aylangan. Mustaqillik yillarida yuzlab cherkov, sinagoga va ibodat uylari, xususan, Toshkent, Samarqand, Navoiydagi pravoslav ibodatxonalari, Toshkent shahridagi katolik kostyoli, Samarqanddagi Arman-apostol cherkovi, Toshkentdagi Budda ibodatxonasi qayta barpo etildi, ta'mirlandi.

Mehmondo'stlik, saxovat va tom ma'nodagi bag'rikenglik xalqimizga xos fazilat. Sho'rolar davrida o'z tug'ilgan yurtlaridan badarg'a qilingan turli millat vakillari O'zbekistonga olib kelindi. Xalqimiz eng og'ir damlarda ularga yordam qo'lini cho'zdi, bir burda nonini ham baham ko'rdi. Koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim-tatarlar bu yerda o'zlarining ikkinchi vatanini topdi. Ularning hozirgi avlodlari uchun esa O'zbekiston ona Vatandir. Chunki ular shu yerda tug'ildi, o'qidi, obro'-e'tibor topdi, o'zbek xalqining mehr bulog'idan bahramand bo'ldi.

Davlatimiz milliy siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri barcha millatlarning ravnaqi uchun teng sharoit va imkoniyat yaratishdan, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlik o'z-o'zidan vujudga keladigan hodisalar emas, balki davlat tomonidan olib boriladigan

milliy siyosatning hosilasidir. Bugun yurtimizda 130 tadan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari hamjihatlikda, bir oila farzandlaridek yashab, mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Ta’kidlash joizki, mazkur yo‘nalishdagi islohotlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida butunlay yangicha ma’no-mazmun kasb etib borayotir.

Chunonchi, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishidan biri xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat etib belgilangan. Bugun shu yo‘nalish asosida aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millatlar vakillari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlikni, yaqin qo‘shnilarimiz bilan do‘stona aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ezgu ishlar olib borilayotir.

Mamlakatimizdagi millatlarni yagona Vatan tuyg‘usi birlashtiradi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham fuqarolarning teng huquqliligi kafolatlangan. Jumladan, uning 8-moddasida «O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi» deb belgilab qo‘yilgan.

Ana shunday oqilona siyosat natijasida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub fuqarolar jamiyatimiz ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy hayotida faol ishtirok etib, mustaqilligimizni mustahkamlash, davlatimizning buyuk kelajagini ta’minlash yo‘lida samarali mehnat qilmoqda. Ular O‘zbekistonni o‘z Vatani, taqdirларini o‘zbek xalqi taqdiri bilan tutash, milliy madaniyatlarini rivojini mamlakatimiz taraqqiyotining uzviy qismi, deb bilmogda.

Xususan, respublikamizdagi turli millat va elatlarning milliy markazlari davlat tadbirlari va umumxalq bayramlarida faol ishtirok etib keladi. Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan «*O‘zbekiston — umumiy uyimiz*», «*Vatan bitta, Vatan yagona*», «*Bizning kuchimiz — birlik va hamjihatlikda*» kabi festivallar millatlararo do‘stlik rishtalarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Agar jamiyatda turli millatga mansub kishilarning tengligi ta’minlanmasa, haq-huquqlari e’tirof etilmasa, tili, urf-odatları kamsitilsa, millatlararo nizolar kelib chiqishi mumkin. Yevropada ham, Osiyo mamlakatlarida ham bunga misollar ko‘p.

Yurtimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik dunyo miqyosida tan olinmoqda. 2018 yil aprel oyida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining kamsonli millatlar masalalari bo‘yicha Oliy komissari Lamberto Zaner O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Mazkur tashrif doirasida uning Farg‘ona, Namangan viloyatlariga safarlari uyushtirilib, joylarda uchrashuvlar tashkil etildi.

Olingan taassurotlar va xulosalar asosida 2018 yil 14–15 iyul kunlari Italiyaning Udin shahrida YeXHTning davlatlararo munosabatlarda kam sonli millatlar to‘g‘risidagi Bolsan tavsiyalarining 10 yilligiga bag‘ishlab tashkil etilgan xalqaro konferensiyada Lamberto Zaner O‘zbekistonning millatlararo munosabatlar sohasidagi tajribasiga yuqori baho berdi va mazkur tajriba YeXHT uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidladi.

E’tirof etish lozimki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yuksak siyosiy irodasi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo‘shni mamlakatlar bilan azaliy do‘stona aloqalarning yanada mustahkamlangani xalqimizning xohish va istaklarini, azaliy orzularini o‘zida ifoda etmoqda. 2025 yil 23- sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida ilgari surilgan tashabbuslar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash, global muloqotni kuchaytirish va umuminsoniy masalalar yechimini topish yo‘lidagi faol sa’y-harakatlarini yaqqol namoyon etdi. Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati” tashabbusini va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surdi. Qolaversa,

Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy xalqaro platformaga aylantirish g'oyasi tinchlikparvar, ma'rifatli va barqaror taraqqiyotga intiluvchi avlodni shakllantirishga xizmat qilish taklifini berdi. Binobarin, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirishda davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'z millatini, xalqini sevgan odam boshqa millat vakillariga ham hurmat ko'zi bilan qaraydi.

Millatlar va konfessiyalararo munosabatlar - mamlakat barqarorligining garovi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda, qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarda inson sha'ni, e'tiqod erkinligi va qadr-qimmatini hurmat qilish, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish g'oyasi o'z ifodasini topgan. Jumladan, Bosh Qomusimiz — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy maqsadi va tamoyili har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, kafolatlarini ta'minlashga qaratilgani e'tiborga molikdir. Tarixan bosib o'tgan yo'limizga bir nazar tashlab, mustaqilligimizning yigirma sakkiz yili mobaynida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob etar ekanmiz, konfessiyalararo muloqot, millatlar va dinlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik sohalarida samarali ishlar amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz.

O'zbekiston - ko'p millatli mamlakat. Bugun uning hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka, O'zbekiston hududida yashayotgan barcha xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan milliy siyosat ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshev A., Shukurov G., Sobirov F., Yoqubov D., Polvonov N., Kaliyeva D., Nurbayeva X., Asqarov A., Seydanov Q. O'zbekiston-umumiy uyimiz.-Toshkent.: O'zbekiston. 4-6-bet.
2. Murtazayeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. –Toshkent.: Universitet. 124-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. -Toshkent.: Ma'naviyat, 264 bet.
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tolerantlik-uz/>
5. <http://dkm.gov.uz/uz/millatlararo-totuvlik-va-dinij-bagrikinglikni-taminlash>.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.-416 bet.
7. Internet ma'lumotlari.

ПУТИ И МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ОБУЧЕНИЯ ЖЕНЩИН И ДЕВУШЕК ПРОФЕССИИ

Мамбетниязова Замира Турдыбаевна

Советник ректора по вопросам женщин и девушек Каракалпакского института сельского хозяйства и агротехнологий

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18254788>

Аннотация. В статье рассматриваются пути и методы совершенствования педагогических механизмов обучения женщин и девушек профессии в условиях современных социально-экономических и цифровых трансформаций. Особое внимание уделяется анализу психолого-педагогических факторов, влияющих на профессиональное самоопределение и успешность обучения женщин. Раскрывается значение индивидуализации образовательного процесса, внедрения цифровых и гибридных форм обучения, а также развития менторства и наставничества как эффективных инструментов профессиональной поддержки. Обосновывается необходимость создания гендерно-чувствительной, инклюзивной и психологически безопасной образовательной среды, способствующей формированию профессиональной идентичности и устойчивой мотивации женщин к обучению. Материалы статьи могут быть использованы в практике профессионального образования, а также при разработке образовательных программ, ориентированных на расширение возможностей женщин и девушек. Вопрос профессионального образования женщин и девушек приобретает особую значимость в контексте государственной политики Республики Узбекистан. **Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев** неоднократно подчёркивал, что «обеспечение прав, интересов и всесторонней поддержки женщин является одним из приоритетов государственной политики». В своих выступлениях Глава государства акцентирует внимание на том, что повышение уровня образования и профессиональной подготовки женщин является важнейшим условием социально-экономического развития страны и формирования конкурентоспособного человеческого капитала. Данная позиция отражает стратегическое понимание роли женщины в современном обществе и подтверждает необходимость совершенствования педагогических механизмов профессионального обучения, ориентированных на раскрытие потенциала женщин и девушек.

Ключевые слова: профессиональное образование, женщины и девушки, педагогические механизмы, индивидуализация обучения, цифровое образование, менторство, гендерный подход.

Key words: vocational education, women and girls, pedagogical mechanisms, individualized learning, digital education, mentoring, gender approach.

Kalit soʻzlar: kasbiy taʼlim, ayollar va qizlar, pedagogik mexanizmlar, individuallashtirilgan taʼlim, raqamli taʼlim, mentorlik, gender yondashuvi.

Современная система образования функционирует в условиях глубоких социально-экономических, культурных и технологических преобразований. Одним из приоритетных направлений образовательной политики большинства государств становится обеспечение равного доступа женщин и девушек к профессиональному обучению. В XXI веке

образование женщин рассматривается не только как инструмент реализации принципов гендерного равенства, но и как стратегический ресурс устойчивого развития общества, экономики и культуры.

Профессиональное образование женщин оказывает прямое влияние на уровень занятости, экономическую независимость, социальную активность и качество жизни. Женщина, обладающая профессией и современными компетенциями, становится активным субъектом общественных процессов, способным вносить вклад в развитие семьи, местного сообщества и государства в целом.

Исторически женщины на протяжении длительного времени сталкивались с ограничениями в выборе профессии и доступе к образованию. Эти ограничения носили как формальный, так и неформальный характер и были обусловлены традиционными социальными ролями, культурными нормами и устойчивыми стереотипами. Несмотря на значительный прогресс в области женского образования, проблема неравенства возможностей сохраняется и в настоящее время, особенно в технических, инженерных и цифровых направлениях подготовки.

Актуальность данной темы обусловлена необходимостью системного пересмотра педагогических механизмов профессионального обучения женщин и девушек. Современная педагогика должна учитывать не только требования рынка труда, но и психолого-социальные особенности женской аудитории, специфику профессионального самоопределения, а также условия совмещения обучения с семейными и трудовыми обязанностями. В рамках реализации реформ в сфере образования **Президент Ш. М. Мирзиёев подчёркивает, что «образованная и профессионально подготовленная женщина — это прочная основа благополучной семьи и устойчивого развития общества».** Данный тезис подчёркивает значимость педагогического сопровождения женщин не только как обучающихся, но и как будущих специалистов, лидеров и активных участников общественных процессов.

В этом контексте профессиональное обучение женщин должно рассматриваться как целенаправленный педагогический процесс, направленный на формирование не только профессиональных компетенций, но и уверенности в собственных возможностях, социальной активности и ответственности.

Женщины нередко сталкиваются с психологическими барьерами, такими как неуверенность в собственных силах, страх профессиональной несостоятельности, синдром самозванца, повышенная тревожность перед оцениванием. В условиях недостаточной педагогической поддержки эти факторы могут приводить к снижению учебной мотивации и преждевременному прекращению обучения.

В связи с этим возрастает значение педагогического сопровождения, ориентированного не только на передачу профессиональных знаний и умений, но и на развитие личностных ресурсов обучающихся, формирование устойчивой мотивации и профессиональной идентичности.

Целью данной статьи является теоретическое обоснование и анализ путей и методов совершенствования педагогических механизмов обучения женщин и девушек профессии.

Для достижения поставленной цели в работе были сформулированы следующие задачи:

- *проанализировать современные педагогические подходы к профессиональному обучению женщин;*
- *выявить основные социальные, психологические и образовательные барьеры;*

– рассмотреть традиционные и инновационные методы профессионального обучения;

– определить роль цифровых технологий и менторства в образовательном процессе;

– разработать рекомендации по совершенствованию педагогической практики.

Методологическую основу исследования составляют идеи гуманистической педагогики, личностно-ориентированного и компетентностного подходов. В работе применялись методы теоретического анализа, синтеза, обобщения педагогического опыта и сравнительного анализа.

1. Теоретические основы профессионального обучения женщин

Профессиональное обучение женщин следует рассматривать в контексте социально-педагогических процессов, направленных на формирование равных возможностей и социальной справедливости. Женщина в образовательном процессе выступает не пассивным объектом, а активным субъектом обучения, обладающим индивидуальными образовательными потребностями и жизненным опытом.

Современные исследования подчеркивают, что успешность профессионального обучения женщин во многом определяется уровнем педагогической поддержки, характером образовательной среды и степенью её психологической безопасности. Образовательная среда должна способствовать развитию уверенности, инициативности и самостоятельности.

Особое значение имеет формирование профессиональной идентичности, которая включает осознание себя как специалиста, принятие профессиональных ценностей и готовность к непрерывному развитию. Педагогические механизмы должны быть направлены на поддержку данного процесса.

2. Актуальные проблемы профессионального обучения женщин и девушек

Одной из ключевых проблем является влияние гендерных стереотипов на профессиональный выбор. Девушки нередко ориентируются на социально одобряемые профессии, избегая технических и управленческих направлений. Это ограничивает их профессиональный потенциал и снижает конкурентоспособность на рынке труда.

Не менее значимой проблемой является неравный доступ к образовательным ресурсам. Женщины из сельских регионов и социально уязвимых групп часто сталкиваются с отсутствием инфраструктуры, цифровых технологий и квалифицированных педагогов.

Психологические барьеры, такие как страх ошибки, низкая самооценка и зависимость от внешней оценки, также оказывают негативное влияние на образовательный процесс. Их преодоление требует целенаправленной педагогической работы.

3. Пути совершенствования педагогических механизмов

Одним из ключевых направлений совершенствования является индивидуализация образовательного процесса. Она предполагает учет уровня подготовки, профессиональных интересов и жизненных обстоятельств обучающихся. Индивидуальные образовательные траектории повышают мотивацию и ответственность за результаты обучения.

Важную роль играет внедрение гибких форм обучения, включая модульные программы, дистанционные курсы и смешанные форматы. Это позволяет женщинам совмещать обучение с семейными и трудовыми обязанностями без потери качества образования.

Цифровизация образовательного процесса открывает новые возможности для профессионального обучения женщин. Использование онлайн-платформ, интерактивных

курсов и цифровых симуляторов расширяет доступ к образованию и способствует формированию цифровых компетенций.

4. Роль менторства и наставничества

Менторство является эффективным педагогическим механизмом профессионального становления женщин. Наставник выполняет функцию профессионального ориентира, оказывает эмоциональную и методическую поддержку, способствует формированию уверенности в собственных силах.

Особенно значима роль менторства в сферах, где женщины традиционно недопредставлены. Наличие ролевых моделей способствует снижению тревожности, укреплению профессиональной идентичности и повышению учебной мотивации.

Эффективные менторские программы предполагают регулярные встречи, совместное планирование профессиональных целей и сопровождение проектной деятельности.

5. Методические аспекты обучения женщин

С методической точки зрения эффективными являются активные и интерактивные методы обучения. К ним относятся проектное обучение, кейс-методы, ролевые игры, тренинги и мастер-классы. Данные методы позволяют приблизить обучение к реальной профессиональной деятельности.

Проектная деятельность способствует развитию ответственности, самостоятельности и способности к принятию решений. Использование рефлексивных практик позволяет обучающимся осознавать собственный профессиональный рост и формировать навыки самоанализа.

6. Рекомендации по совершенствованию педагогической практики

Для повышения эффективности профессионального обучения женщин рекомендуется внедрение гендерно-чувствительных образовательных программ, развитие цифровой инфраструктуры и расширение системы психологической поддержки.

Особое внимание следует уделять подготовке педагогических кадров, способных работать в условиях инклюзивной и личностно-ориентированной образовательной среды. Педагог должен выступать не только источником знаний, но и наставником, фасилитатором и мотиватором.

Заключение

Таким образом, идеи, озвученные Президентом Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёевым, подтверждают стратегическую значимость профессионального образования женщин и девушек как одного из ключевых факторов устойчивого развития общества. Реализация данных приоритетов в педагогической практике требует системного подхода, направленного на модернизацию образовательных механизмов, повышение доступности и качества обучения, а также создание условий для полноценной профессиональной самореализации женщин. Таким образом, совершенствование педагогических механизмов обучения женщин и девушек профессии является важной социально-педагогической задачей. Комплексный подход, включающий индивидуализацию, цифровизацию, менторство и инновационные методики обучения, позволяет создать условия для устойчивого профессионального развития женщин. Современное профессиональное образование должно быть ориентировано не только на формирование компетенций, но и на поддержку личности, раскрытие потенциала и обеспечение равных возможностей. Реализация данных принципов способствует повышению качества образования и социальной устойчивости общества.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Зимняя И.А. Психология обучения: Учебник. – М.: Логос, 2021. – 432 с.
2. Братусь Б.С. Проблемы развития личности. – М.: Наука, 2020. – 288 с.
3. Киселева Н.А. Гендер и образование: современные подходы и практики // Педагогика. – 2022. – № 6. – С. 41–48.
4. Назарбаева Д.А. Женское образование в Казахстане: история и перспективы // Вестник КазНПУ. – 2021. – № 4. – С. 65–71.
Shaxsiy tajribani tizimlashtirish narrativ tafakkur asosida shaxsning kasbiy va emotsional rivojlanishida muhim psixologik mexanizm hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali shaxs o'z hayotiy va kasbiy faoliyati davomida orttirgan tajribalarni izchil tahlil qiladi, ularni ma'lum mantiqiy ketma-ketlikka keltiradi hamda mazmunan umumlashtiradi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglar uchun shaxsiy tajribani tizimlashtirish kasbiy identitet va reflektiv tafakkur shakllanishining muhim asosi bo'lib xizmat qiladi.

Narrativ yondashuv shaxsiy tajribani voqea, obraz va emotsional holatlar orqali qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Talabalar o'z tajribalarini hikoya qilish, yozma refleksiya yoki dramatik sahnalashtirish orqali ifodalash jarayonida o'z kechinmalarini anglaydi, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlaydi va pedagogik vaziyatlarga ongli munosabat shakllantiradi. Bu esa tajribaning tasodifiy yig'indidan tizimli bilim va kasbiy xulosalar majmuasiga aylanishiga olib keladi.

Emotsional holatlarni anglash va nomlash shaxsning emotsional intellekti tarkibida muhim psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon shaxsning ichki kechinmalarini ongli ravishda idrok etishi, ularni aniqlashi va so'z orqali ifodalash qobiliyatini nazarda tutadi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglar uchun emotsional holatlarni anglash va nomlash pedagogik vaziyatlarda o'z hissiy reaksiyalarini boshqarish va professional munosabatlarni samarali yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Narrativ yondashuv emotsional holatlarni anglash va nomlash jarayonini faollashtiruvchi samarali vosita hisoblanadi. Talabalar shaxsiy va kasbiy tajribalarini hikoya qilish, yozma refleksiya yoki dramatik ifoda orqali bayon etish jarayonida o'z emotsiyalarini tahlil qiladi, ularni aniq tushunchalar bilan ifodalaydi hamda emotsional tajribaning mazmunini chuqur anglaydi. Bu jarayon emotsiyalarning noaniq holatdan anglangan va boshqariladigan holatga o'tishini ta'minlaydi.

O'z-o'zini refleksiv baholash shaxsning kasbiy va emotsional rivojlanishida muhim psixologik mexanizm hisoblanadi. Ushbu jarayon shaxsning o'z faoliyati, xatti-harakatlari va emotsional reaksiyalarini ongli ravishda tahlil qilishi hamda ularning pedagogik samaradorligini baholashini nazarda tutadi. Bo'lajak pedagoglar uchun o'z-o'zini refleksiv baholash kasbiy mahoratni rivojlantirish, pedagogik xatolarni anglash va professional o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Narrativ yondashuv o'z-o'zini refleksiv baholashni faollashtiruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Talabalar o'z kasbiy tajribalarini hikoya qilish, yozma refleksiya yoki dramatik sahnalashtirish orqali qayta ko'rib chiqish jarayonida o'z faoliyatiga tanqidiy nazar tashlaydi, qarorlarining sabab va oqibatlarini anglaydi hamda muqobil yechimlarni izlaydi. Bu jarayon o'z-o'zini baholashning subyektiv emas, balki ongli va tizimli shakllanishiga xizmat qiladi.

O'z-o'zini refleksiv baholash emotsional intellektning muhim komponentlari — emotsional o'zini anglash, emotsiyalarni boshqarish va empatiya rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Talaba o'z emotsional holatini baholay olgan sari stressga barqarorlik, pedagogik vaziyatlarda moslashuvchanlik va mas'uliyat hissi kuchayadi.

Shaxsiy va kasbiy identitetni shakllantirish bo'lajak pedagoglarning professional rivojlanishida markaziy ahamiyat kasb etadi. Identitet shaxsning "Men kimman?" va "Kasbimda qanday pedagog bo'lishni istayman?" degan savollarga ongli javob topishi jarayonida tarkib topadi. Ushbu jarayon talabalarning shaxsiy qadriyatlari, emotsional tajribasi va kasbiy faoliyatga munosabati bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi.

Narrativ yondashuv shaxsiy va kasbiy identitetni shakllantirishda samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Talabalar o'z hayotiy va kasbiy tajribalarini hikoya qilish, pedagogik vaziyatlarni dramatik sahnalashtirish hamda musiqiy obrazlar orqali ifodalash jarayonida o'z "Men" konsepsiyasini qayta anglaydi. Ushbu refleksiv faoliyat talabalarga o'z kasbiy rolini ichki jihatdan qabul qilish, pedagogik pozitsiyasini aniqlashtirish va shaxsiy mas'uliyatini anglash imkonini beradi.

Shaxsiy va kasbiy identitetning shakllanishi emotsional intellekt rivoji bilan bevosita bog'liq. O'z emotsiyalarini anglay olgan, boshqalar hissiyotiga empatik munosabat bildira olgan talaba o'zini pedagogik muhitda mustahkam subyekt sifatida namoyon eta boshlaydi. Bu holat pedagogik o'ziga ishonch, kasbiy barqarorlik va refleksiv tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Emotsional intellekt psixologiyada quyidagi asosiy komponentlar orqali tavsiflanadi:

- emotsional o'zini anglash;
- emotsiyalarni boshqarish;
- empatiya;
- ijtimoiy-emotsional sezgirlik;
- emotsional refleksiya.

Mazkur komponentlarning har biri shaxsning ichki tajribani anglash va ijtimoiy muhit bilan samarali o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Aynan narrativ tafakkur ushbu komponentlarning rivojlanishida vositachi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Narrativ yondashuv ijtimoiy psixologiyada ham muhim o‘rin tutadi. Insonning ijtimoiy identifikatsiyasi ko‘pincha u yaratgan hikoyalar orqali shakllanadi. Shaxsning “men-kontseptsiyasi” jamiyatdagi mavqe, ijtimoiy rollar, madaniy an‘analar, oila tarixi haqidagi hikoyalar orqali mustahkamlanadi. Narrativ yondashuvning pedagogik sohaga integratsiyasi shaxsning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Pedagogik jarayonda hikoya qilish quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ta’lim mazmunini shaxsiy tajriba bilan bog‘lash;
- o‘qish motivatsiyasini kuchaytirish;
- refleksiv tafakkurni rivojlantirish;
- muloqot va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishni yengillashtirish.

Narrativ yondashuv psixologiya, pedagogika, psixoterapiya va ijtimoiy fanlarda insonning o‘zini anglashini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan samarali metodlardan biridir. Hikoya qilish jarayoni shaxsning tafakkuri, hissiy rivojlanishi, xotirasi, empatiyasi va ijtimoiy identifikatsiyasi bilan uzviy bog‘liq. Shaxs o‘z hayotini hikoya tarzida talqin qilar ekan, o‘zining ichki dunyosi, maqsadlari, qadriyatlar va tajribalari haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Shu bois narrativ yondashuv zamonaviy insonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan psixologik va pedagogik amaliyotlarda o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda

Narrativ tafakkur emotsional intellektning rivojlanishiga quyidagi psixologik mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi:

Birinchidan, emotsional o‘zini anglash

Shaxs o‘z hayotiy voqealarini hikoya qilish jarayonida kechinmalarini tahlil qiladi, ularni nomlaydi va anglaydi. Bu emotsional o‘zini anglash darajasini oshiradi.

Ikkinchidan, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash

Narrativ tafakkur refleksiv jarayonlarni faollashtiradi. Shaxs o‘z xatti-harakatlari va emotsional reaksiyalarini qayta ko‘rib chiqadi, bu esa emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Uchinchidan, empatiya va ijtimoiy sezgirlik

Boshqalarning hikoyalarini tinglash va tahlil qilish empatiya mexanizmlarini kuchaytiradi. Bu jarayon shaxsning boshqalar emotsiyalarini tushunish va ularga mos munosabat bildirish qobiliyatini shakllantiradi.

To‘rtinchidan, kasbiy identitetning shakllanishi

Kasbiy tajribani narrativ tarzda anglash bo‘lajak pedagoglarda kasbiy o‘zini anglash va emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi.

Bo‘lajak pedagoglar tayyorlash jarayonida narrativ tafakkurning ahamiyati

Pedagogik oliy ta’limda narrativ tafakkurga asoslangan mashg‘ulotlar talabalarning:

- emotsional empatiyasini;
- kasbiy refleksiyasini;
- emotsional stressga barqarorligini;
- pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligini rivojlantiradi.

Narrativ topshiriqlar, refleksiv kundaliklar, didaktik drama va kasbiy hikoyalar tahlili bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-emotsional intellektini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa.

Narrativ tafakkur va emotsional intellekt o'rtasidagi psixologik bog'liqlik shaxsning emotsional tajribani anglash, refleksiya qilish va ijtimoiy munosabatlarda samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida narrativ tafakkur emotsional intellektni rivojlantirishning muhim psixologik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois pedagogik ta'lim jarayonida narrativ yondashuvga asoslangan metodlarni tizimli qo'llash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma) // Toshkent, TDPU, 2018.
2. Jalolov A. O'quv jarayonida matn va diskursning o'rni. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2012. Abdulla Qodiriy. *O'tkan kunlar*. — Toshkent.
3. Migranova E.A., Pozilova Sh.X. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish
4. Ochilova B. Ta'lim sifatini ta'minlash: nazariyalar, modellar va muammolar// “Tafakkur ziyosi” jurnali Shukur Xolmirzayev. *Tanlangan asarlar*. — Toshkent.
5. Urazbayeva U. A. Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalarida emotsional intellekt namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari Pirmqul Qodirov. *Yulduzli tunlar*. — Toshkent.
6. Xo'jamatova X.M. Ijtimoiy ongni shakllantirishda emotsional intellektning o'rni va ahamiyati Abdulla Oripov. *Haj daftari*. — Toshkent.
7. Evseeva L.N., et al. Using the narrative method reflective diary. World of Science: Pedagogy & Psychology, 2019. Tolstoy, L. N. *Anna Karenina*. — Moskva.
8. Karamanov O., Vasylyshyn, M. Narrative as a Historical and Pedagogical Source. Pedagogical Discourse, 2025. Chexov, A. P. *Hikoyalar*. — Moskva.

ИНТЕРВЬЮ ЖАНРИДА УНДАЛМАЛАРНИНГ ВОҚЕАЛАНИШИ

Сейтжанов Жеткер Елубаевич

профессор, филология фанлари номзоди, Қорақалпоқ давлат университети, Таржима назарияси ва амалиёти кафедраси мудир

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346711>

***Аннотация.** Мақола қорақалпоқ, инглиз ва ўзбек медиамайдонларидаги интервью жанридаги ундалмаларнинг воқеаланишини таҳлил қилишга бағишланган. Таҳлил иштирокчиларнинг ижтимоий мақоми, мулоқотдаги ўзаро муносабатлари, нутқнинг расмий ва норасмий хусусиятлари ҳамда эмоционал тоналликни белгилашда ундалмаларнинг амалий аҳамиятини очиб беради. Инглиз тилида ундалмалар асосан расмий ва статусни кўрсатувчи формулалар орқали, қорақалпоқ ва ўзбек тилларида эса институционал номинаторлар ва контекстуал тавсифлар орқали ифодаланади. Шу билан бирга, норасмий ёки шахсий-биографик дискурсларда ундалмалар иштирокчилар орасида яқинлик ва эмоционал интеракцияни таъминлайди. Мақола медиакоммуникация ва лингвистика соҳаларида ундалмаларнинг аҳамиятини ёритади ва уларни қиёсий таҳлил қилиш имконини беради.*

***Калит сўзлар:** интервью жанри, ундалмалар (vocatives), медиакоммуникация, коммуникатив функция, ижтимоий мақом.*

Медиамайдондаги нутқ жанрлари ва уларнинг ижтимоий таъсири илмий диққат марказида турибди. Жумладан, ундалмалар — журналистика, радио ва телевидение интервьюларида иштирокчиларнинг ўзаро муносабатини белгилайдиган, мулоқот жараёнини тартибга солувчи муҳим лингвистик восита ҳисобланади. Ундалмалар орқали иштирокчи мақоми, аудитория билан алоқа, эмоционал тон ва нутқнинг расмий ёки норасмий хусусияти намоён бўлади. Шу боис, уларнинг турлари, вазифалари ва амалий қўлланилиши медиакоммуникация ва тилшунослик соҳаларида долзарб ва қизиқарли тадқиқот мавзуси ҳисобланади.

Қорақалпоқ, инглиз ва ўзбек медиа оламида тилларида ундалмаларнинг воқеаланишида уларнинг мазмуний тузилиши, турлари ҳамда ОАВ жанрларида турли нутқ услубларида ифодаланишидаги вазифасини аниқлаш, умумий ва хусусий белгиларини чоғиштириш тилшунослар олдида турган долзарб масалалардан биридир. Зеро, ундовларнинг асосий вазифалари “... тингловчини нутқ жараёнига ундаш (апеллятив), уни номлаш (номинатив), сўзловчининг шахсий муносабатини ифодалаш (коннатив, эмотив); мулоқот ўрнатиш (коммуникатив) ҳамда нутқ жараёнини мустаҳкамлаш” дир.[1.8]

Замонавий медиамайдонида интервью жамоатчилик билан мулоқотнинг энг динамик ва ижтимоий аҳамиятли жанрларидан бири сифатида пайдо бўлади. У институционал ва шахсий дискурс элементларини уйғунлаштирган ҳолда коммуникатив роллар, статус муносабатлари ва прагматик вазифалар тизимини намоён этади. Шу нуқтаи назардан, интервьюдаги мурожаат формалари оддий структурадан кўра нутқий роллар тақсимооти ва коммуникатив стратегияларни белгилашда муҳим марказий маркер ҳисобланади.

Мурожаат воситалари медиакоммуникация шароитида қатор вазифаларни бажаради:

1. адресатни аниқлаш,
2. мулоқот масофасини тартибга солиш,
3. ҳурмат ва муносабат даражасини ифода этиш,
4. эмоционал тоналликни белгилаш,
5. иштирокчиларнинг ижтимоий-реторик имиджини шакллантириш.

Лингвистик таҳлил мурожаатнинг номинатив формалари, эпитетлар, олмаштириш конструкциялари ва интонацион-модал воситаларини ўрганиш имконини беради; уларнинг барчаси интервьюнинг диалогик моделини яратади.

Айниқса ижтимоий аҳамиятга эга масалаларга йўналтирилган теле- ва радиодастурларда қайта алоқанинг ўрни беқиёс аҳамият касб этади. Бошловчи студияга мутахассисни таклиф этган ҳолларда коммуникатив модел вужудга келадики, унда аудитория пасив тингловчи эмас, балки муҳокама жараёнининг фаол иштирокчисига айланади. Ҳар бир тингловчи кўнғироқ ёки хабар орқали мулоқотга қўшилар экан, у нафақат қизиқтирган маълумотларни аниқлаш имкониятига эга бўлади, балки шахсий нуқтаи назарини билдириб, муҳокама қилинаётган мавзуга кўп қиррали ёндашув шаклланишига ҳисса қўшади.

М.Э. Онищенко фикрича, эфирга таклиф этилган жамоатчилик ва маъмурий тузилмалар вакиллари аудитория кайфияти ва хабарнинг ижтимоий аҳамияти ҳақида керакли маълумот оладилар. Тингловчиларнинг фикр-мулоҳазалари, таклиф ва изоҳларида ифодаланган қайта алоқа ижтимоий мониторинг вазифасини бажаради, шу тариқа бошқарув қарорлари ва жамоат ташаббусларини мувофиқлаштиришнинг муҳим воситасига айланади.[2.38]

Инглиз тилида ахборий ва таҳлилий турдаги интервьюларда ундалмалар одатда студиядаги ягона суҳбатдошнинг мақоми ёки ижтимоий ролини белгилайдиган расмий ва нейтрал формулалар орқали амалга оширилади. Масалан:

“Professor Miller, as a leading scholar in this area...”

“Doctor Evans, based on your recent research...”

“Expert consultant Ramirez, what is your assessment?”

“Prime Minister, with all due respect, don't you think the public deserves a more transparent explanation?”

Бундай мурожаат формалари нутқ субъектларининг институционал мақомини аниқлаш, интервьюнинг расмий-илмий характерини белгилаш ва иерархик муносабатларни мустаҳкамлаш вазифасини бажаради. Норасмий муҳитда эса мурожаатлар эркин ва фамильяр тусда бўлиши мумкин, масалан:

“Joe, you've become something of a social media sensation with your daily gardening tips – what made you start sharing your knowledge?”

Қорақалпоқ ва ўзбек медиамухитида шахсий мақомни алоҳида белгилаш учун инглиз тилидагидек вокатив формулалар қўлланилмайди. Ундалмалар одатда институционал номинаторлар ёки контекстуал тавсиф орқали ифодланади. Масалан: Қорақалпоқ: “Bugungi studiamizdın qonađı — Qaraqalpaq mamleketlik universitetiniń professori, filologiya ilimleri doktori ...”

Ўзбек: “Студиямизга ташриф буюрган меҳмон билан таништирмоқчиман, танишинг...”

Шу билан бирга, норасмий ва шахсий-биографик интервьюларда қорақалпоқ ва ўзбек тилида “ака”, “опа” каби этикет формалари ҳам қўлланилади:

“Холматжон ака, шахримиздаги транспорт ҳаракати бўйича фикрларингиз биз учун муҳим...”, “Сардор ака, экология соҳасидаги фаолиятингиз орқали қандай ютуқларга эришдингиз?”

Интервьюда ундалмалар расмийлик даражасини белгилайди, иштирокчилар ўртасидаги ижтимоий муносабатни кўрсатади ва эмоционал тоналликни шакллантиради. Шахсий-биографик ёки ижодий дискурсларда ундалмалар норасмий муҳит яратиш, иштирокчилар орасида яқин интеракцияни таъминлаш вазифасини ҳам бажаради.

Ундалмалар журналист ва суҳбатдошнинг ижтимоий роли, ёши ва мавқеини ҳисобга олган ҳолда танланади, шу билан улар нутқнинг прагматик табиатини белгилайди. Мисоллар: Қорақалпоқ: “Ámirjan Tursinbaev, siz búgin studiyada elimizdín jámietlik-siyasiy turmisina baylanisli bir qansha jańa reformalar boynsha pikir bildirip berseńiz.” Ўзбек: “Ёдгор ака, сиз ишлаётган ҳудуддаги ёшлар бандлиги масаласида қандай муаммолар мавжуд?”

Таҳлил шуни кўрсатадики, интервью жанридаги ундалмалар нафақат нутқнинг функционал элементи, балки иштирокчиларнинг ижтимоий мақоми ва мулоқотдаги ўзаро муносабатини белгилайдиган муҳим восита ҳисобланади. Инглиз тилида ундалмалар расмийлик ва статусни очиқ кўрсатса, қорақалпоқ ва ўзбек тилларида улар асосан институционал номинаторлар ва контекстуал тавсиф орқали ифодаланади. Норасмий ёки шахсий-биографик дискурсларда эса ундалмалар иштирокчилар орасида яқинлик ва эмоционал интеракцияни таъминлайди. Шу билан, ундалмалар журналист ва суҳбатдошнинг мақоми, мулоқот мақсади ва аудиторияга таъсирини белгилашда асосий роль ўйнайди.

Умуман олганда, ундалмаларнинг таҳлили медиакоммуникация ва лингвистика соҳаларида қимматли илмий ресурс ҳисобланади, улар орқали журналистикадаги мулоқот усуллари, ижтимоий-мақомий муносабатлар ва маданий хусусиятлар яхшироқ тушунилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи. Филол.фан.номз....дис. –Тошкент, 2008. – 155 б.
2. Онищенко М.Э. Интерактивное общение в радиоэфире в экстремальной ситуации// Журналистика в 2002 году: сб. материалов науч.-практ. конф. Ч.2. М.: МГУ, 2003. С. 38.
3. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
4. BBC Radio 4. (2024). *The Life Scientific: Professor Ahmed on Climate Change*.
5. ITV News. (2024). *UK Health Update: Doctor Patel on Infection Rates*.
6. O‘zbekiston Milliy TV. (2023). *Shahar va Hayot: Xizmatlar va Transport*.
7. Qaraqalpaq Media. (2024). *Ámirjan Tursinbaev interview*.
8. FM 106.7. (2024). *Ochiq Suhbat: Ikhtiyor Sobirovich Interview*.

TILEWBERGEN JUMAMURATOV SHIG'ARMALARI TILINDE GRADACIYA QUBILISI

Seytnazarova Injayim Erjanovna

Berdaq atındađı Qaraqalpaq mámleketlik
universiteti professorı w.a., f.i.d. (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346727>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri T.Jumamuratov asarlari tilida qo'llanilgan gradatsiyaning badiiy-poetik xususiyatlari hamda uning funksional vazifalari tahlil qilingan. Gradatsiyaning ko'tariluvchi va pasayuvchi turlari, shuningdek, klimaks va antiklimaks kabi ko'rinishlarining lingvopoetik, emotsional-ekspressiv va stilistik imkoniyatlari shoir ijodidan keltirilgan misollar asosida yoritib berilgan. Maqolada, shuningdek, badiiy so'z ustasining gradatsiya hodisasi orqali yangicha lingvopoetik ma'no kasb etuvchi ifodalarni yaratgani ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, stilistik figura, gradatsiya, ko'tariluvchi gradatsiya, pasayuvchi gradatsiya, klimaks, antiklimaks, emotsional gradatsiya, stilistik vositalar, xiazm, parallelizm, tarjima parallelizmi, leksik va sintaktik gradatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются художественно-поэтические особенности и функциональные возможности градации, используемой в языке произведений народного поэта Узбекистана и Каракалпакстана Т. Джумамуратова. Разновидности градации – восходящая и нисходящая, климакс и антиклимакс, а также лингвопоэтические, эмоционально-экспрессивные и стилистические функции лексической и синтаксической градации – иллюстрируются примерами из творчества поэта. Также показано, что мастер художественного слова посредством градации создаёт новые лингвопоэтические значения.

Ключевые слова: лингвопоэтика, стилистическая фигура, градация, восходящая градация, нисходящая градация, климакс, антиклимакс, эмоциональная градация, стилистические средства, хиазм, параллелизм, переводческий параллелизм, лексическая и синтаксическая градация.

Annotation. This article analyzes the artistic and poetic features as well as the functional roles of gradation used in the language of the works of T. Jumamuratov, People's Poet of Uzbekistan and Karakalpakstan. Various types of gradation – ascending and descending gradation, climax, and anticlimax – along with the linguopoetic, emotional-expressive, and stylistic functions of lexical and syntactic gradation are illustrated through examples drawn from the poet's works. The study also demonstrates how the poet, as a master of artistic expression, creates new linguopoetic meanings through the use of gradation.

Keywords: linguopoetics, stylistic figure, gradation, ascending gradation, descending gradation, climax, anticlimax, emotional gradation, stylistic devices, chiasmus, parallelism, translation parallelism, lexical and syntactic gradation.

Qaraqalpaq xalqınıń kórnekli sóz ustası, Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan xalıq shayı T.Jumamuratov poeziyası óziniń estetikalıq gózzallığı, tásirsheńligi, sózlerdiń sheber hám ornlı qollanılǵanlıǵı menen ajralıp turadı. Qosıqlarınıń hárbir qatarında kórkem súwretlew quralları – troplar, stilistikalıq figuralar ónimli qollanılǵan. Nátiyjede qosıq qatarlarınıń tásirsheńligi kem-

kem artıp baradı. Mine, usı sıyaqlı stilistikalıq figuralardan biri – gradaciya da shayır poeziyasında pikirdi kúsheytip beriw ushın qollanılğan. *Gradaciya* (latinsha, *gradatio* – tekshe, basqışpa-basqış kúsheyttiriw) stilistikalıq qurallardan biri bolıp, gáptegi birgelkili aǵzalardıń mánilik jaqtan kem-kem kúsheytilip yamasa páseytilip beriliwi [1.137].

Gradaciya qubılısı shayır shıǵarmaları tiline ayrıqsha kórkemlik tús beredi. Gradaciyanıń payda bolıwı tómenдеgi úsh basqıştı óz ishine aladı: a) Pikirdiń izbe-izligin támiyinlew; b) Pikirde uqsas bóleklerdi jámlestiriw; v) Pikirdi kem-kem rawajlandırıw barıw.

Quyash seni balalıqtan *úlkeyter*,

Quwat berip, simbatıńdı kórkeyter,

Átteń, biraq qayta sorıp deneńdi,

Bara-bara tayaq berip eńkeyter. (“Quyash seni balalıqtan *úlkeyter*”).

Bunda “*úlkeytiw*, *quwat beriw*, *kórkeytiw*, soń *tayaq berip eńkeytiw*” háreketleri izbe-izlikte berilgen, barlıǵı gáptiń bayanlawısh aǵzası sıpatında jámlesken, bul insannıń tuwılǵannan ómirден ketemen degenge shekem aralıǵı, *ómir* túsiniǵiniń janlı kartinasın adam háreketleri izbe-izligi arqalı pikir kem-kem kúsheytilip (*úlkeyiw*, *jasaw*, *ómir súriw*), soń mazmunı jaǵınan páseygenine, yaǵnıy (qartayıw, deneniń búgiliwi, ómirден ketiw) mánisine gúwa bolamız.

Kórkem ádebiyatta qaharmannıń sezim hám keshirmelerin salıstırıwda, sezimlerdiń toǵanısın tolıq beriwde gradaciya keń túrde qollanıladı. Bir qatar ádebiyatlarda gradaciya mánilik jaqtan, jasalıw usılı jaǵınan hám bildiriliwine qaray birneshe túrлерge bólinedi [2. 78], – dep kórsetiledi.

1. Beriliw usılı hám mánisine qaray gradaciya kóteriliwshi gradaciya hám páseyiwshi gradaciya bolıp ekige bólinedi. Gradaciya – klimaks (kóteriliwshi gradaciya) hám antiklimaks (páseyiwshi gradaciya) ulıwma birikken ataması.

Klimaks (grekshe, “tekshe”) – gáptiń hár bir aǵzası kem-kemnen bir-birin tolıqtırıp, tásirliǵi kúsheyip, ótkirlesip barıp tańqalarlıq mánini payda etip gáp dúziw tásili [3.110]. Mısalı:

Bóbek boldım, bala boldım, erjettim,

Appaq sútlerińdi emdim de qandım. (“Ana”).

Bul misalda adamnıń tuwılǵannan baslap erjetiwı, kamalǵa keliwi izbe-iz túrde kem-kem kúsheytilip, ótkirlestirilip berilgen.

Tuwıldım da, jastan sonda kóp boldım,

Shadlı ósip, qurǵın boldım, toq boldım. (“Moynaqta”).

Bul qatarlar da joqarıdaǵı qatarlar menen mazmunlas.

Antiklimaks (grekshe *anti* – qarsı, *klimaks* – tekshe) – gáptegi sózlerdiń máni jaǵınan tiykarǵı sózden baslanıp kem-kem mánisiniń páseyip barıwı sıpatında qollanılatuǵın sóylew figurası [3. 25]. Mısalı:

Sen jarasıqlı ósken sárwiseń,

Keldi gúziń, soldı gúliń, bolmastan miywań. (“Bir sulıwǵa”).

Shayırdıń bul qatarlarında *sárwi bolıw* – *sárwi* terektey bolıp adam boyınıń ósiwi, erjetiwı, *keldi gúziń* – qartayıw, *soldı gúliń* – baxıtsızlıqqa ushıraw, *miywası bolmaw* – perzentsiz qalıw mánisindegi sóz dizbekleri arqalı pikir kem-kem páseytilip, **antiklimaks** dórelgen.

Gradaciya qubılısınıń jáne bir kórinisi – **xiazm** bolıp, sinonim yamasa antonimlik mánini payda etiw arqalı jasaladı. Xiazm – ulıwma bir aǵzaǵa baǵınǵan eki sóz dizbeginiń orın almasıp qollanılıwı [3. 216]. Ápiwayı til menen aytqanda, xiazm – bul awdarılǵan parallelizm [4. 353]. Mısalı:

Pal berseń, sút ber dep qıńırlıq qıldım,

Sút berseñ, pal ber dep tabaqtı tóktim. (“Ana”).

Ana ayırılıp, kózdiñ nurı – baladan,

Bala ayırılıp, aq sút bergen anadan. (“Biziñ kúsh”).

Shayırdıñ bul qosıq qatarlarında dáslepki qatarдағы sózlerdiñ keyingi qatarға orın almasıp túsiwi nátiyjesinde qarsılaslıq máni payda bolıp, pikirdiñ kúsheyiwine sebep bolğan.

2. Beriliw materialına qaray gradaciya **leksikalıq hám sintaksislik gradaciya** bolıp ekige bólinedi [5. 78]. Morfologiyalıq hám sintaksislik qurılısı jaǵınan qaraytuǵın bolsaq, gradaciya gáp yamasa gáp bólekleri formasında beriledi [6, 234]. Shayır shıǵarmalarında bul eki forma da qollanılğan:

1) Gáp formasında kelgen sintaksislik gradaciya:

Men jasasam doslar menen jasayın,

Bala-shaǵa, qostar menen jasayın,

Úlken-kishi, qatar-qurbı, zamanlas,

Qartlar menen, jaslar menen jasayın. (“Ómirimniñ lirikasınan”).

Bunday gáp formasında bildirilgen gradaciya – **sintaksislik gradaciya** dep ataladı.

2) Gáptiñ bir bólegi formasında kelgen leksikalıq gradaciya: Mısalı:

Shayır kórde bir jigitti mini joq,

Beti tegis, ózi qayqı, júdá shoq. (“Shayır hám qayqı jigiti”).

Shuǵıl, kúnshil, menmen, jermen, erinshek,

Áshkarala, “pravo”sın sorama? (“Shayırlıq shárti”).

Bunday gáptiñ bir bólegi bolğan sózler arqalı bildirilgen gradaciya – **leksikalıq gradaciya** boladı. Beriliw usılına qaray gradaciya *logikalıq, emociionallıq hám muǵdarlıq gradaciya* bolıp úshke bólinedi [7. 78].

Logikalıq gradaciya tereñ pikirlewge shaqırıp, uzın-shubay jasırın pikirdi birneshe sóz yamasa gápler járdeminde bere aladı.

Burıńınıñ jolın tutup,

Otırıpada qızlardı kútip,

Waqtında tım-tırıs ketip,

Sırttan sayıp kúlgen jigiti. (“Kárimbay menen aytısı”).

Bul qatarlardan gradaciya járdeminde qaharmannıñ háreketleri tuwra (jigittiñ qızlardı kútiwi, úndemesten ketiwi) hám awıspalı mánilerde (sırttan sayıp kúliw – keleke etip masqaralap, ájwalap sırtınan kúliw mánisleri) berilgen.

Emociionallıq gradaciya oqıwshınıñ ishki sezimlerin tolgandıruw ushın leksikalıq hám stilistik qurallar járdeminde pikirdi kúsheytip beredi. Kúshli tásirge iye, shıraylı sózler dizbeginen ibarat boladı. Mısalı:

Teñizdi gezdi,

Kóringendi quwdı,

Qorqıttı, úrkitti,

Oyqandı saldı,

Qırǵa shıqpaqshı boldı,

Aspańa ushpaqshı boldı (“Tiriyek jutqan jayın”).

Bul qatarlarda shayırlardıñ háreketleriniñ birneshesin toplaı aytıw arqalı onıñ qıymılların janlı tárizde kúsheytip beriwge háreket etken.

Gradaciya lirikalıq qaharmannıñ ishki sezimlerin jetkeriwde eñ ónimli qollanıwshı stilistik figuraların biri [8.45]. Bul pikirdi tómendegi emociionallıq gradaciya menen dálillewge boladı:

Toy bar jerde *jiraw bar*,
 Ólim bar jerde *jilaw bar*.
 Qılmıs bar jerde *jaza bar*,
 Jan bar jerde *qaza bar* (“Quwanish penen uwayım”).

Sintagmatikalıq qatnastağı birlikler toy, jiraw arqalı *quwanish sezimi*, al ólim, kóz jas, jilaw arqalı *qapashılıq sezimi* kóp mánililik tiykarında bir mánilik qatarda turatuğın birlikler, keyingi qatarda qılmıs-jaza, jan-qaza sózleri qatañ uyqas hám máni úylesimligi menen máni ótkirliğı de kem-kemnen ósip baradı.

Bala qartqa eliklese –
 Aǵalıqtıń nıshanı.
Ǵarrı jasqa eliklese,
 Balalıqtıń nıshanı. (“Danalıqtıń nıshanı”).

Bul qatarlarda (bala – qart, ǵarrı – jas) arqalı oqıwshıǵa estetikalıq zawıq beretuğın sharayattı payda etedi.

Muǵdarlıq gradacıyalardıǵa mánisi tek biri ekinshisin tolıqtırıp kelgen, muǵdarı jaǵınan kóp, birgelkili bir toparǵa kiriwshi sózler dizbegi kiredi. Mısalı:

Jılqı bolıp *tebisti*,
 Arısladay *ayqasti*,
 Ayıwlarday *shayqasti*,
 Bir-birine *ot bastı*,
 Jılan bolıp *uw shashti*,
 Asawlarday *tuwlastı*,
 Shaǵallarday *shuwlastı*,
 Bir tınbadı udayı,
 Ǵarǵaǵanday qudayı. (“Adamzat”).

Bul misalda bir toparǵa, yaǵnıy háreketlik mánidegi túsiniqlerdi jámlestirip, pikir kúsheytilgen.

Juwmaqlastırıp aytqanda, shayırdıń qosıqlarındaǵı gradacıya qubılısı pikirdi kórkemlep, kem-kem kúsheytip, tásirli etip oqıwshılar jámáátine jetkeriwde, obraz jasawda ornlı qollanılgan.

PAYDALANǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Абдиназимов Ш. Лингвопоэтика. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 137- бет.
2. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 78- бет.
3. Насыров Д.С., Бекбергенов А., А.Жәрімбетов. Русша-қарақалпақша лингвистикалық терминлер сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. – 25,110.216 - бетлер.
4. Тимофеев Л.И., Тураев С.В. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – 353 с.
5. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 78- бет.
6. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 234-бет.
7. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 8-бет.
8. Солганик Г.Я. Стилистика русского языка. – М.: Флинта, 2016. – 45 с.

OROL QUM HUDUDIDAGI SAKSOVULZORLARDA SHISHISH HOSIL QILUVCHI ZARARLI HASHAROTLAR – GALLITSALAR HAQIDA MALUMOT

Shamuratova Nagima Genjemuratovna¹, Menlimuratova Saxipjamal Jenisbaevna²

¹Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti «O‘simliklarni himoya qilish va karantini» kafedra mudiri q.x.f.d., professor. Qoraqalpog‘iston Respublikasi;

²Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti «O‘simliklarni himoya qilish va karantini» kafedra 1-bosqich doktoranti. Qoraqalpog‘iston Respublikasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18254851>

Kirish. Orolqumning Urgu va Surgul hudidida yangi barpo etilgan qora va oq saksovullarida rivojlanadigan, shishish hosil qiluvchi kanalar bo‘yicha erta bahor va kuz oylar moboynida kuzatuvlar olib borish natijasiga ko‘ra biologik va ekologik xususiyatlari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan. Saksovullarda shishish hosil qiluvchi organizmlar tomonidan yetkazilgan zararning xususiyatlari, zararlilik darajasi, tarqalishi va ko‘pligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilgan.

Saksovulning tanasi burama shaklga ega bo‘lib, yuzasi silliq bo‘ladi. Daraxtning shox-shabbalari qalin va yashil tusda bo‘ladi. O‘simlik gullaganda pushti va malina rangli gulchalar paydo bo‘ladi. Ko‘rinishidan oddiygina ko‘rinsa ham, kuchli tomir tizimi evaziga saksovullar cho‘l va toshli yerlarga mustahkam o‘rnashadi.

Cho‘l mintaqalarida saksovullarning asosan 2 turini uchratish mumkin: Qora saksovul. O‘simlikdagi 15 metrgacha yetadigan uzun tomirlar er osti suvlaridan oziqlanib, tanasiga namlik bilan ta‘minlashga imkon beradi. Qora saksovullar mayda va ilg‘ash qiyin bo‘lgan gulchalarga ega. Quyoshga bardoshli va chorva yegandan keyin qayta tiklanish xususiyatiga ega bo‘lib cho‘l tuprog‘ini yaqshi tutib turadi. **Oq saksovul.** Ushbu turdagi saksovullar rangsiz tangacha shaklidagi barglarga ega bo‘lib, bo‘yi 5 metrgacha bo‘lishi mumkin. Oq saksovullar qurg‘oqchilikka bardoshliligi bilan ajralib turadi. Qattiq va pishiq tanasi evaziga kesish juda mushkul, asosan o‘tin sifatida ishlatiladi.

Sovuq tushishi bilan saksovullar tangacha-barglarini to‘kadilar. Bahor kelishi bilan saksovul daraxtlari mayda gullar bilan burkanadi. Kuz fasliga kelib saksovul urug‘lari yetiladi. O‘zbekistonda asosan qora va oq saksovullar mavjud. Saksovullarning barglari va shohchalari sahro tuyalari uchun ozuqa hisoblanadi. Saksovul daraxtlari yonganda katta miqdorda issiqlik ishlab chiqarishi hisobiga, turmushda yonilg‘i sifatida foydalaniladi.

Kuzatvular natijalariga ko‘ra birgina Urgu va Surgul hududining yangi barpo etilgan oq saksovulzorida 30 ming gektar maydonda yoppasiga un shudring kasalligi va shishish hosil qiluvchi hasharotlar bilan zararlanganligi aniqlandi. Berilgan aniq ma‘lumotlar asosida hukumatimiz tomonidan ushbu hududlarda Favqulotda Vaziyat e‘lon qilinib sentyabr va oktyabr oylarda zararli organizmlarga qarshi kurash choralari olib borish tasiqlandi [1].

Orol dengizi tubining Urgu va Surgul hududi asosan Orol dengizi qurigan tubida joylashgan hudud hisoblanadi. Eng birinchi marta saksovul o‘simligini ekish ishlari 2006 yildan boshlangan yani 2017 yildan oldin saksovul o‘simligi bo‘lgan lekin kam sonda ekish ishlari olib borilgan. Hozirgi vaqtda Urgu va Surgul hududida qari va yosh saksovullarni uchratishimiz mumkin. Zararkunandalar bazi turlari qari saksovulga zarar bersa, bazi turlari yosh saksovullarga

zarar berishi aniqlandi. Shu sababli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish jarayonida saksovullarning yoshi ham inobatga olinishi kerakligi ma'lum boldi.

Orol dengizi tubining Urgu va Surgul hududida yangi barpo etilgan saksovulzorlarda aniqlangan shishish hosil qiluvchi hasharotlar.

Gallitsalar. Hasharotlar sinfi (*Insecta*) Ikkiqanotlilar turkumi (*Dirtera*) Gallitsa oilasi. (shishish hosil qiluvchi) (*Cecidomuiidae*). Bu turdagi shishish paydo qiluvchi hasharotlar juda ko'p o'simliklarda keng tarqalgan bo'lib, ulardan himoyalanih darajasidagi zararli hasharot hisoblanadi. Bu oilaga mansub turlar asosan polifaglar bo'lib, saksovul o'simliklarida yangi barpo etilayotgan hududlarda uchraydi. Bu turdagi hasharotlar o'simlikning nihol, poya va gullarida har xil (katta va kichik sharsimon, dumaloq, oval) ko'rinishlardagi shishish hosil qilib zararlaydi. Bahor oylarida yani aprel oyi oqiri va may oyi boshida ularning lichinkalari saksovul yangi o'sib chiqqan o'simlik chirasi bilan oziqlanib, saksovul o'simligidagi o'sish va rivojlanish protsesslarini sekinlashtiradi. Voyaga yetgan zotlari o'simlik poyalarining ichki qismiga tuxumlarini qo'yib, so'ngra tuxumdan chiqqan lichinkalar oziqlanib zarar keltiradi [6].

Shishish hosil qiluvchi ikki qanotli chivinlarning voyaga yetgan urg'ochilari oziqlanmaydi, o'simlik shoxlari, novda, poya va gullariga tuximlarini qoyib bo'lgandan so'ng tabiiy nobud bo'ladi. Dunyo bo'yicha ushbu turdagi shishish hosil qiluvchi ikki qanotli hasharotlarning 6651 dan ortiq turlari mavjud bo'lib, shundan 832 oilaga mansubligi aniqlangan [2].

O'simlik to'qimalarida oziqlanib rivojlangan lichinkalar saksovulning yosh nihol, poya va gullarida shishish hosil qiladi. Bu zararkunanda yiliga bir avlod beradi. Shishish hosil qiluvchi ikki qanotli hasharotlarning qo'shni Qozog'iston Respublikasida saksovulning zarari va tarqalishi bo'yicha Mamaeva [3], Nurmuratov [4] keltirgan adabiyotlardan ma'lum.

Saksovul o'simligida quyidagi shishish hosil qiluvchi ikki qanotli hasharotlar qayd etilgan: Shishish hosil qiluvchi kana va ikki qanotli pashshalar haqida Rossiya Qozoqstonda tadqiqotlar olib borilgan ammo qurigan Orol dengizi tubida turli xil zararli organizmlar shakllandi shu sababli ilk bor mavjud bo'lgan va endi barpo etilgan saksovullarda shishish hosil qiluvchi kanalar tur tarkibi boyicha aniqlanilgan turlar: O'rgimchaksimonlar sinfi (*Aracnida*), Trombidiform, to'plam shishish hosil qiluvchi (*Stefaniola congregata*), katta shishish hosil qiluvchi pashsha (*Stefaniola gigas*), o'xshash stefloniola (*Stefloniola similata*), xavfli shishish qiluvchi pashsha (*Asiodirlosis festinans*), ulkunqalqon gallitsasi (*Asiodiplosis ulkunkalkani*), Dermormatsiyalaydigan stefaniola (*Stefaniola deformans*), katta saksovul barg burgasi (*Caillardia robusta*).

Gallitsalar yoz davomida assimilyatsiya qilingan o'simlik o'simtasi ustida o'sadi. Kuzatuvlarimizga ko'ra, lichinkalar qishlaydi, ular erta bahorda uyg'onishadi. Aprel oyining oqiri, may oyining boshlarida saksovul novdasi, poyasi va hattoki guliga voyaga yetgan zotlari tuxum qo'yadi. Bir yilda bir avlod beradi. Kurash choralarini rejalashtirishning eng muhim nuqtasi turni aniqlashdir. Ushbu maqolada yuqorida keltirib o'tilgan shishish hosil qiluvchi gallitsa zararkunandasining quyidagi turlari haqida malumotlar berilgan.

To'plam shishish hosil qiluvchi - (*Stefaniola congregata*). Ushbu turdagi shishish hosil qiluvchi ikki qanotli pashshalar asosan 3-8 yillik saksovulning kattaroq va yo'g'on novdalarida lichinkalari joylashgan bo'lib zararlangan novdalar bamisoli sixsimon shakilni hosil qilib, har bir novdada 50 dan ortiq zararkunandaning lichinkalari mavjud bo'lib, oxir oqibatda novdalar mo'rt bo'lib sina boshlaydi va saksovulning zararlangan qismi qurib qoladi. Zararlangan sixsimon novdalarning uzunligi 5-12 sm gacha bo'ladi. Novdalardan hasharotning yetuk zoti uchib chiqqan joyi belgisi teshiklardan iborat [5].

U gallitsalarni faqat yoshdagi qalin poyalarda hosil qiladi, bu esa 5-12 sm uzunlikdagi notekis - novdasimon qalinlashishni keltirib chiqaradi. O't yuzasi ko'plab uzun tugunchalar bilan

qoplangan, ularning har birining ostida lichinkalar joylashgan. Gallitsada 50 tagacha lichinka bo‘lishi mumkin, ularning joylashuvi shunchalik zichki, gallitsadan chiqqandan so‘ng zararlangan saksovul novdasi uchish teshiklariga kirib ketadi (1-rasm). Ba‘zi hududlarda bu turdagi gallitsaning soni yuqori bo‘lishi mumkin. Odatda qora saksovullarida rivojlanadi.



1-rasm. To‘plam shishish hosil qiluvchi - *Stefaniola congregata* S.Menlimuratova

Katta shishish hosil qiluvchi pashsha - (*Stefaniola gigas*). Ushbu turdagi shishish hosil qiluvchi ikki qanotli hasharot boshqa turdagi shishish hosil qiluvchi pashshalardan farqli bo‘lib lichinkalari saksovulning novdasiga shikast keltirgandan so‘ng zararlangan novdalar to‘liq dumaloq shaklga kiradi. Ushbu dumaloq shishish hosil qilingan novdalardan may oyida yetuk zot pashshalar uchib chiqqan joy teshik holatda ko‘rinishga ega. Zararlangan novdalar avval yashil tusda bo‘ladi. Har bir dumaloq shaklga kirgan shishishning ichida 1-4 tagacha hasharotning lichinkalari mavjud. Lichinkalar shishish hosil qilingan saksovul novdalarida qishlovni o‘tkazib may oyining boshlarida saksovullarning yangi novdalari o‘tib chiqish davrida teshiklardan uchib chiqib urchiy boshlaydi va oradan 15-20 kun o‘tgandan so‘ng tabiiy nobud bo‘la boshlaydi. Urchib bo‘lgandan so‘ng esa o‘zining tuxumlarini yangi o‘tib chiqqan novdalarning yumshoq to‘qimalariga joylashtiradi va shishish hosil qiladi. Ushbu turdagi shishish hosil qiluvchi ikki qanotli pashshalar Osiyo-Turon hududlari, hususan Qozog‘iston, Turkmaniston, Mo‘ng‘iliston [7] va Eron davlatidagi saksovulzorlarda ham keng tarqalgan [8].

Shishish diametri 3-8 mm bo‘lgan doimiy sharsimon shaklga ega, assimilyatsiyalangan o‘simlik o‘simtalarining bir bo‘lagining o‘sishi natijasida hosil bo‘ladi. Shishishda hasharotlar tanasi hajmiga teng zich kamerada yashovchi 1-4 ta lichinka mavjud. Lichinkalar gallitsada qishlaydi. Qo‘g‘irchoqlash assimilyatsion o‘simliklarning o‘sishining boshlanishi bilan birga keladi. Gallitsalarning parvozi may oyining birinchi o‘n kunligida bo‘lib o‘tadi. Juftlashgandan so‘ng o‘t tuxumlarini o‘sayotgan saksovulning yashil novdalari segmentlariga qo‘yadi, ularda shishish hosil bo‘ladi. Avlod bir yoshda. Saksovullar bu gallitsa bilan tez-tez zararlanishi aniqlangan, zararlanish darajasi o‘rtachadan oshmaydi. Qora saksovullarida rivojlanadi.

Hozirgi vaqtda Surgul va Urgu hududida qari va yosh saksovullarni uchratishimiz mumkin. Zararkunandalar bazi turlari qari saksovulga zarar bersa, bazi turlari yosh saksovullarga zarar berishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.A.Gapparov., N.M.Zinaatdinov., J.D.Xasanov., Janubiy Orol bo‘yi hududida ekologik o‘zgarishlar natijasida tarqalib borayotgan chipor (*Heteracrisadspersa Redt*) zararli chigirtkasi haqida. “Qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini eksportida o‘simliklar karantini va himoyasining o‘rni” ilmiy va ilmiy-texnik anjumani. 10-iyun 2025-yil. -162-164 B.
2. J.Raymond, U.S.Gagné. Department of Agriculture, Agricultural Research Service, Systematic Entomology Laboratory, c/o Smithsonian Institution MRC-168, P.O. Box 37012, Washington, DC. 20013-7012, USA (e-mail: rgagne@rcn.com).

3. M.B.Mamaev. 1975 yil, Golloobrazuyushiye nasekomiye saksoulovix lesonasajdeniye // Nasekomiye kak komponenti biogeocenoza saksoulobogo lesa. M.: Nauka. S. 61-82.
4. N.T.Nurmurotov 1969 yil Zashita saksoulov ot nasekomix-vrediteley // Lesnoy x-vo, № 9. S. 55-56.
5. P.I.Marikovskiy. Noviy vid gallic fauni fauni SSSR (Diptera, Itonididae). Izdatelstvo Tomskogo universiteta. Tomsk — 1956. 184-195 s
6. Z.A.Fedotova Fauna, troficheskie svyazi i rasstrostranenie gallica (*Diptera, Cecidomyiidae*), razvivayushixsiya na tavgax (*Spiraea, Rosaceae*) // Trudi Stavropolskogo otdeleniye ruskogo entomologiycheskogo obshestva. Stavropoli: Stavropolskoe izdatelstvo «Paragraf», 2019. Vip. 15. S. 4-19.
7. Skuhrová M., Skuhrový V. Species richness of gall midges (Diptera: Cecidomyiidae) in Europe (West Palearctic): biogeography and coevolution with host plants. Acta Societatis Zoologicae Bohemicae, 2010, vol. 73 (2009), pp. 87–156.
8. Marikovski.P.I. 1955 Noviy gallitsi (*Diptera, Itonididae*) s saksoulom. II Entomol. obozr. T. 34. S. 298-312.

ANTROPOCENTRISTLIK PARADIGMADA SOMATIKALÍQ FRAZELOGIZMLERDÍN XÍZMETI

S.Shinnazarova

Ájiniyaz atındađı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı
ilologiya ilimleriniń kandidatı, docent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18230627>

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq tilidagi somatik frazeologizmlar analiz qilingan. Etalonlar, lingvokulturemalar, metaforalar va frazeologizmlarning lingvokulturologik birlik ekanligi ilmiy dalillangan. Frazeologizmlarning tillik xizmatlari haqida ilmiy xulosalari berilgan.

Abstract. В статье анализируется соматическая фразеология в каракалпакском языке. Научно доказано, что стандарты, лингвокультуре́мы, метафоры и фразеологизмы являются лингвокультурологическими единицами. Даны научные выводы о лингвистической службе фразеологизмов.

Abstract. The article analyzes somatic phraseology in the Karakalpak language. It has been scientifically proven that standards, linguoculturemes, metaphors and phraseological units are linguoculturological units. Scientific conclusions about the linguistic service of phraseological units are given.

Kalit swzlar: somatik frazeologizmlar, semantika, emocionalь va ekspressiv xizmati, etalon, ekstralingvistik faktor, millat va madaniyat, kumulyativ, lingvomadaniyatshunoslik.

Ключевые слова: соматические фразеологизмы, семантика, эмоционально-экспрессивная служба, эталон, экстралингвистический фактор, нация и культура, кумулятив, лингвокультурология.

Key words: somatic phraseological units, semantics, emotional and expressive service, standard, extralinguistic factor, nation and culture, cumulative, linguoculturology.

Házirgi dáwirde antropocentrizm jónelisiniń rawajlanıwı menen quramında somatikalıq birlikleri bar bolǵan frazeologizmlerdi izertlewge ayrıqsha dıqqat bólinbekte. Til elementleri óz ara tıǵız baylanıslılıqta. Usı baylanıslılıq bir tutas sistemanı payda etedi. Usı sistemalardıń biri frazeologiyalıq sistema bolıp, onda tillik nızamlılıqlar arqalı somatikalıq frazeologizmlerdi bólip alıp izertlew arqalı onıń búgingi kúnge shekem ashılmaǵan tıń tárepler tillik ilimiy baha beriw arqalı lingvomádeniy tárepleriniń ilimdegi bashqların toltırıw, mashqalalı sorawlar juwap hám sheshimler tabıwdan ibarat bolıp esaplanadı. P.Najimovtıń birgelikte avtorlıqtaǵı «Til bilimin izertlewde antropocentrismlik paradigma» atamasındaǵı maqalasında (1.187-188) qaraqalpaq til biliminiń rawajlanıwındaǵı ózgeris sıpatında tariyxıy-salıstırmalı metod hám sistemalı-strukturalıq izertlewler menen bir qatarda qalıplesip baslaǵan antropocentrismlik baǵdar haqqında ayılǵan.

Maqalada antropocentrismlik paradigmanıń rawajlanıwı menen til bilimde lingvokulturologiya, etnolingvistika, psixolingvistika sıyaqlı baǵdarlar payda bolıp, onıń sebebi sıpatında izertlewshilerdiń tek tildi emes, al ruwxıy kúshlerdi de izertlewge baǵdarlanganı ayıladı. Bul maqala qaraqalpaq til bilimin kelesi wakıtlarda antropocentrismlik paradigma tiykarında izertleniwı kerekligin ayrıqsha atap kórsetedi.

Tildi tereń úyreniwde joqarıdaǵı sıyaqlı lingvokulturologiyalıq analiz principlerin keńeytiw, olardan nátiyjeli paydalanıw búgingi til iliminiń áhmiyetli máseleleriniń biri esaplanadı.

Til hám mádeniyat- bul sociallıq áhmiyetke iye bolǵan xabardı saqlaw, áwladtan-áwladqa jetkeriw, mádeniyatlar aralıq qarım-qatnaslardı ámelge asırıw hám onı rawajlandırıw qásiyetine iye bolǵan ózgeshe qubılıs. Bunda ol hám mádeniyat jemisi, hám onıń bar ekenliginiń baslı shárti sıpatında mádeniyattıń kelbetin belgilewshi, miyras ekenligin támiyinlewshi faktor wazıypasın atqaradı. Sonlıqtan da, qaraqalpaq tilin dúnya til biliminde jetekshi paradigmalarınń biri bolǵan antropocentrizm tiykarında izertlew kerek. Bul qaraqalpaq til biliminiń rawajlanıwın ele de joqarı basqıshqa kóteriwi menen birge tildin jámiyet, mádeniyat, milliy mentalitet hám ruwxıyat penen tıǵız baylanısın kórsetiwge xızmet etedi.

Shumer tilinde: zag – jaq, búyir, túrkiy tilinde: zaǵ, jaq, djaq – jaq, búyir; shumer tilinde: emek – til, túrkiy tilinde emek – emuk – til; shi (zi) ómir; jan, túrkiy tilinde жи (чи, dji, zi) adam mánisin beretuǵın qosımta (ulıwma túrkiy tilge tán) (bul jerde shı/-shi adam mánisindegi atlıq sóz jasawshı affiks názerde tutılǵan: balıq – balıqshı, suw – suwshı (S.Shınnazarova); shumer tilinde geshtuk – qulaq, túrkiy tilinde eshtuk – esitiletuǵın qubılıs.[4.55].

Demek, bul orında túrkiy tilindegi qollanılatuǵın dene músheleriniń atamaları óz kelip shıǵıwı boyınsha eń eski leksikalıq qatlamǵa kiretuǵınlıǵın usı sıyaqlı birlikler dálilleydi. Demek, qaraqalpaq tilindegi *geshtek* – jaslardıń bázim otırıspaǵı ataması, usı eski shumer tilinen túrkiy tiline ótken tıp mánisi geshtuk – esitiw (qulaq) – geshtek sıyaqlı birlikke awısqa, al geshtekte oyın-zawıq qulaq arqalı esitiliw xızmetine qaray etimologiyalıq jaqtan tıpkilikli forması menen tikkeley baylanıslı, dep esaplaydı.

Demek, dene músheleri atamaların eń eski tillik qatlamǵa kiriwin esapqa alsaq, tildin qalıplesiwi barısında somatikalıq úzliksiz qollanıwda bolǵanlıǵın moyınlaw múmkin.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalqida mana shunday xosiyatli raqamlar ko‘p. Bunday so‘zlarni qoraqalpoq tilshunosligida etnolingvistik yo‘nalishda yanada har tomonlama chuqurroq o‘rganish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Толковый словарь по эзотерике, оккультизму и парапсихологии [Текст] / —М., 2004. 480 с.
2. Сыдыкоа А.Н. Сакральное число «семь» в кыргызской этнолингвистике // Вестник бишкекского государственного университета. №1(51) 2020. 9-11 с.
3. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилиндеги санлықлар. –Нөкис, 1976. 106 б.
4. Адилова Г. Этнолингвистика (көмекші курал). –Нөкис, 2008. 77 б.
5. SH Ábdinazimov, X.Tolibayev Lingvokulturologiya. – Nókis, 2020. 140 b.
6. Ш.Сейтов Шырашылар. –Нөкис, 1986. 336 б.
7. Қарақалпақ халық рәўиятлары. –Нөкис, 2021. 80 б.
8. Қарақалпақ фольклоры (Көп томлық). IX том. –Нөкис, 1981.
9. Бердақ таңламалы шығармалары. –Нөкис, 1987. 320 б.

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI “KO‘Z” SOMATIK FRAZELOGIZMLARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Nurillayev Xamza Qudaibergenovich

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18388563>

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyatning o‘zaro aloqasini o‘rganish, xususan, lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika yo‘nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xalqning dunyoni anglashi va uni tilda aks ettirishi o‘ziga xos bo‘lib, bu jarayon frazeologik tizimda yaqqol namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar orasida inson tana a‘zolari nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan somatik frazeologizmlar eng qadimgi va faol qatlamni tashkil etadi [5,12-b.]. Inson a‘zolari ichida “ko‘z” (eye/ko‘z) obrazi alohida strategik o‘ringa ega. Ko‘z nafaqat ko‘rish a‘zosi, balki insonning ichki olami, ruhiyati, aql-idroki va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi universal ramzdir. Ingliz va qoraqalpoq tillari kabi turli oilaga mansub tillarda “ko‘z” somatik komponenti ishtirokidagi idiomalarni qiyosiy tadqiq etish, ikki xalqning mentalitetidagi o‘xshashlik va milliy o‘ziga xosliklarni aniqlash maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Frazeologiya sohasida ingliz tilshunosligida A.V.Kunin [3,48-b.], L.P. Smit kabi olimlarning ishlari poydevor bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, qoraqalpoq tilshunosligida E. Berdimuratov [1,76-b.], J.Eshbaev [2,5-b.], S.Naurizbayeva kabi zabardast olimlar frazeologizmlarning semantik va stilistik xususiyatlarini tadqiq etganlar. So‘nggi yillarda somatizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari bo‘yicha G.K.Kdirbayeva (ingliz va qoraqalpoq tillari qiyosida) [6,22-b.] va Sh.D. Abdullayev [7,14-b.] kabi tadqiqotchilarning ishlari diqqatga sazovordir. Biroq, “ko‘z” komponentining ingliz va qoraqalpoq tillaridagi badiiy matnlarda qo‘llanilishi va ularning funksional-semantik muqobilligi hali to‘liq tizimli tahlil etilmagan.

Tadqiqot obyekti ingliz va qoraqalpoq tillaridagi “ko‘z” (eye/ko‘z) komponenti ishtirokidagi somatik frazeologizmlar tashkil etadi. Tadqiqot predmeti esa ushbu birliklarning semantik tuzilishi, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi va lingvokulturologik xususiyatlaridir.

Maqolada ilk bor T.Qayipbergenovning “Qaraqalpaqnama” asari va ingliz tilidagi zamonaviy matnlar asosida “ko‘z” komponentining kognitiv metafora sifatidagi talqini qiyosiy o‘rganiladi. Shuningdek, qoraqalpoq tilidagi “ko‘zi ashiiq”, “ko‘zine shuyeldey ko‘riniw” kabi milliy obrazlarning ingliz tilidagi semantik ekvivalentlari aniqlanadi. Ish davomida qiyosiy-tipologik tahlil, kontekstual tahlil va lingvokulturologik tavsiflash metodlaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida frazeologik birliklarning turg‘unligi va majoziyliigi tamoyillari olindi.

Qiyosiy tahlil jadvali:

No	Frazeologik birlik	Kontseptual ma‘nosi	Ilmiy sharh (Analysis)
1	An eye for an eye / Qang‘a qan, jang‘a jan	Adolat va qasos	Ikkala tilda ham Bibliya va qadimiy qonunlardan kelib chiqqan mutlaq ekvivalent.

№	Frazeologik birlik	Kontseptual ma'nosi	Ilmiy sharh (Analysis)
2	Apple of one's eye / Ko'zdin' qarashig'inday	Qadrli, sevimli	Inglizlarda "olma", qoraqalpoqlarda "qorachiq" obrazi orqali eng aziz ne'mat ifodalanadi.
3	To see eye to eye / Pikiri bir jerden shig'iw	Fikri birlik	Ingliz tilida ko'zlarning to'qnashuvi rozilik belgisi, qoraqalpoqlarda esa abstraktroq ifodalanadi.
4	In the eyes of the law / Nizam aldinda (ko'zinde)	Huquqiy maqom	Ko'z komponenti bu yerda "nazar" va "nazorat" funksiyasini bajaradi.
5	Green-eyed monster / Ishi tarlik (ko're almashtirish)	Hasad, rashk	Ingliz tilida hasad "yashil ko'z" bilan bog'lansa, qoraqalpoqlarda "ichki torlik" bilan ifodalanadi.

Frazeologizmlar tilning eng yorqin va obrazli qatlami hisoblanadi. Qoraqalpoq tilshunosligida E. Berdimuratov va J. Eshbaev kabi olimlar frazeologik birliklarning turg'unligi va semantik yaxlitligini alohida ta'kidlaganlar [1, 92-b.]. Ingliz tilida esa A. Kunin frazeologizmlarni "tilning ko'zgusi" deb ataydi [3, 104-b.]. Somatik frazeologizmlar, ya'ni inson tana a'zolari nomi ishtirok etgan iboralar orasida "ko'z" (eye/ko'z) eng faol komponentdir. Ko'z nafaqat ko'rish a'zosi, balki insonning diqqati, bilimi, his-tuyg'ulari va hattoki ijtimoiy nazoratini ifodalovchi metaforik vositadir.

Ikkala tilda ham vaqtning juda qisqaligi ko'zning jismoniy harakati orqali ifodalanadi. Siz taqdim etgan manbalardagi eng yaqqol misollar:

Ingliz tilida: *In the twinkling of an eye* (Ko'z pirillashi orasida).

Qoraqalpoq tilida: *Ko'zdi aship jung'ansha* (Ko'zni ochib yumguncha).

Tahlil: Bu ikki ibora mazmunan va strukturaviy jihatdan mutlaq ekvivalentdir. Bu inson tafakkurida tezlikni ifodalash uchun "ko'z ochib-yumish" universal o'lchov ekanligini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq madaniyatida ko'zning ochiqligi — ma'rifat ramzidir. T. Qayipbergenovning "Qaraqalpaqnama" asaridan olingan misol buni tasdiqlaydi: *"Seni ko'zi ashiq desedi, olay bolsa ayt..."* [4, 112-b.]. Bu yerda "ko'zi ashiq" iborasi "savodli", "ko'pni ko'rgan" ma'nosini beradi. Ingliz tilida esa bu mazmun "*Open someone's eyes to something*" iborasi orqali keladi, ya'ni kimgadir haqiqatni ko'rsatish yoki uning dunyoqarashini kengaytirish ma'nosini anglatadi. Har ikki tilda ham "ko'rish" harakati "bilish" va "anglash" tushunchalari bilan sinonim sifatida ishlatilmoqda. Ko'z doimo kuzatuv va diqqat-e'tibor markazida bo'ladi. Ingliz tilida "*Keep an eye on someone*" iborasi biror kishini kuzatib turish, nazorat qilish ma'nosini bersa, qoraqalpoq tilida bunga "*Ko'z-qulaq boliv*" iborasi muqobil bo'ladi. Qoraqalpoqchada "quloq" komponentining qo'shilishi nazoratning nafaqat ko'rish, balki eshitish orqali ham amalga oshirilishini, ya'ni mas'uliyatning kuchligini ifodalaydi.

Shuningdek, mensimaslik ma'nosidagi iboralar ham qiziqarli:

Inglizcha: *To turn a blind eye* (Ko‘r bo‘lib olish/ko‘rmaganga olish).

Qoraqalpoqcha: *Ko‘zine ilmew* (Ko‘ziga ilmaslik/mensimaslik) [2, 144-b.].

Qoraqalpoq tilida ko‘z obrazi orqali go‘zallikni ta‘riflashda tabiat hodisalariga tayaniladi. K. Paxratdinov lug‘atida keltirilgan *“Ay dese awizi, kun dese ko‘zi bar”* iborasi ayol go‘zalligini Quyosh va Oyga o‘xshatadi. Ingliz madaniyatida esa ko‘z bilan bog‘liq eng mashhur ijobiy ibora *“Apple of one’s eye”* (Ko‘z olmasi/qorachig‘i) bo‘lib, u eng sevimli va avaylanadigan insonni anglatadi. Qoraqalpoqchada bunga *“Ko‘zdin‘ qarashig‘inday saqlaw”* muqobil keladi.

Tildagi idiomalar nafaqat ijobiy, balki salbiy tuyg‘ularni ham obrazli ifodalaydi.

Xiyonat: Qoraqalpoqchadagi *“Ko‘zine shop saliw”* (Ko‘ziga cho‘p solish) iborasi ingliz tilida ko‘proq *“Pull the wool over someone’s eyes”* (Ko‘ziga jun yopish) shaklida bo‘lib, har ikkalasida ham aldash uchun ko‘rishni cheklash metaforasidan foydalanilgan.

Yoqtirmaslik: T. Jumamuratov lug‘atidagi *“Ko‘zine shuyeldey ko‘riniw”* (Ko‘ziga baliqdek ko‘rinish) iborasi inglizcha *“An eyesore”* (Ko‘z og‘rig‘i) yoki *“A thorn in the eye”* kabi ma‘nolarni beradi [8, 116-b.].

XULOSA

Olib borilgan qiyosiy-tipologik va lingvokulturologik tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Semantik universallik: Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi “ko‘z/eye/ko‘z” somatik komponenti ishtirokidagi frazeologizmlar inson hayotining eng muhim jabhalarini (vaqt, bilim, his-tuyg‘u, ijtimoiy nazorat) qamrab oladi. Ikkala tilda ham vaqtning tezligini ifodalovchi va qadr-qimmatni anglatuvchi birliklarning mazmunan to‘liq mos kelishi inson tafakkuridagi universal obrazlarni ko‘rsatadi. Milliy-madaniy farqlar: Qoraqalpoq frazeologiyasida “ko‘z” somatizmi ko‘proq ichki dunyo va diniy-mistik qarashlar (masalan, “Ko‘z tiydi”) bilan bog‘lansa [6, 45-b.], ingliz tilida ushbu komponent ko‘proq pragmatik, huquqiy va obyektiv kuzatuv ma‘nolarini anglatadi. Kontekstual o‘ziga xoslik: T. Qayipbergenov asarlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, qoraqalpoq tilida “ko‘z” komponenti shaxsning ijtimoiy maqomini belgilashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi (“Ko‘zi ashiq”). Bu esa xalqning ma‘rifat va ziyoga bo‘lgan intilishi tilda muhrlanganidan dalolat beradi. Tarjima va o‘qitish ahamiyati: Somatik frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish badiiy tarjima sifatini oshirishga va chet tilini o‘rganuvchilarning lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdimuratov Ye. Qaraqalpaq tilinin‘ leksikologiyasi. — No‘kis: Bilim, 1994.
2. Yeshbayev J. Qaraqalpaq tilinin‘ frazeologiyaliq so‘zligi. — No‘kis: Qaraqalpaqstan, 1985.
3. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996.
4. Qayipbergenov T. Qaraqalpaqnama (Roman-esse). — No‘kis: Qaraqalpaqstan, 1985.
5. Ходжумян Б. С. Соматические фразеологизмы (сопоставительное описание русских и армянских соматических фразеологизмов). — Ереван: Изд-во ЕГУ, 2019. — 370 с.
6. Kdirbayeva G. K. “Man” - “Adam” kontseptosferasi birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida): Filol. fanl. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. — Toshkent, 2017.
7. Abdullayev Sh. D. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi (T. Qayipbergenov asarlarining o‘zbekcha tarjimasi asosida): Filol. fanl. nomz. diss. avtoref. — Toshkent, 2006.
8. Jumarmuratov T. Russha-Qaraqalpaqsha frazeologiyaliq so‘zlik. — No‘kis, 2021.

MAVZU: PEDAGOGIK TA'LIMDA DRAMATIK TEXNIKALAR VA MUSIQA MADANIYATINING REFLEKSIV-TA'SIRCHAN YONDASHUVI

Xolbayeva Dildora Azizovna¹, Saidov Axmatsulton Abdumannobovich²

¹Angren Universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi,

²"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18478950>

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik ta'lim jarayonida dramatik texnikalar va musiqa madaniyatining refleksiv-ta'sirchan yondashuv asosidagi pedagogik imkoniyatlari tahlil etiladi. Dramatik texnikalar va musiqiy faoliyat ta'lim oluvchilarning emotsional-idrokii jarayonlariga ta'sir ko'rsatib, ularning kasbiy refleksiyasi, empatiyasi, ijodiy tafakkuri va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Tadqiqotda refleksiv-ta'sirchan yondashuvning nazariy asoslari ochib berilib, dramatik mashqlar, didaktik drama, musiqiy improvizatsiya va tinglash faoliyatining pedagogik samaradorligi yoritiladi. Natijalar bo'lajak pedagoqlarning kasbiy-pedagogik mahoratini shakllantirishda san'atga asoslangan yondashuvlarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim, dramatik texnikalar, musiqa madaniyati, refleksiv-ta'sirchan yondashuv, didaktik drama, kasbiy refleksiya, emotsional intellekt, empatiya, ijodiy kompetensiya, pedagogik mahorat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические возможности драматических техник и музыкальной культуры в системе педагогического образования на основе рефлексивно-воздействующего подхода. Использование драматических техник и музыкальной деятельности оказывает целенаправленное влияние на эмоционально-когнитивные процессы обучающихся, способствуя развитию профессиональной рефлексии, эмпатии, творческого мышления и коммуникативных компетенций будущих педагогов. Раскрываются теоретические основы рефлексивно-воздействующего подхода, а также обосновывается эффективность дидактической драмы, музыкальной импровизации и слушательской деятельности в формировании профессионально-педагогического мастерства. Результаты исследования подтверждают значимость интеграции художественно-педагогических средств в повышении качества и эффективности педагогического образования.

Ключевые слова: педагогическое образование, драматические техники, музыкальная культура, рефлексивно-воздействующий подход, дидактическая драма, профессиональная рефлексия, эмоциональный интеллект, эмпатия, педагогическое мастерство.

Abstract. This article examines the pedagogical potential of dramatic techniques and musical culture in teacher education within the framework of a reflexive-impact approach. The integration of dramatic techniques and musical activities significantly influences learners' emotional and cognitive processes, fostering the development of professional reflection, empathy, creative thinking, and communicative competencies of future teachers. The theoretical foundations of the reflexive-impact approach are explored, and the effectiveness of didactic drama, musical improvisation, and listening activities in shaping professional pedagogical mastery is

substantiated. The findings highlight the importance of art-based pedagogical approaches in enhancing the quality and effectiveness of teacher education.

Keywords: *teacher education, dramatic techniques, musical culture, reflexive-impact approach, didactic drama, professional reflection, emotional intelligence, empathy, pedagogical mastery*

KIRISH

Bugungi globallashuv va ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlar pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchi shaxsining emotsional, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan reflektiv faoliyat subyekti sifatida namoyon bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan pedagogik ta'lim jarayonida dramatik texnikalar va musiqa madaniyatini integratsiyalash asosida tashkil etilgan reflektiv-ta'sirchan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Dramatik texnikalar pedagogik jarayonda talabalarning ichki kechinmalari, empatiyasi, muloqot madaniyati va kasbiy refleksiyasini rivojlantirishga xizmat qilsa, musiqa madaniyati esa ta'lim jarayonining emotsional-estetik ta'sirchanligini kuchaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Dramatik texnikalar (rol o'ynash, sahnalashtirish, improvizatsiya, didaktik drama, forum-teatr va boshqalar) ta'lim jarayonida talabaning faolligini oshiradi, uni pedagogik vaziyatlarni ichdan his etishga undaydi. Ushbu texnikalar yordamida bo'lajak pedagoglar:

- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;
- kasbiy muammolarga ijodiy yondashish;
- pedagogik takt va empatiyani shakllantirish;
- o'z faoliyatini reflektiv baholash ko'nikmalarini egallaydi.

Musiqa madaniyati pedagogik ta'limda estetik va emotsional tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. U quyidagi imkoniyatlari bilan ajralib turadi:

- talabalarning emotsional holatini boshqarish;
- ichki kechinmalarni anglash va ifodalash;
- estetik qadriyatlarni shakllantirish;
- ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

Musiqa orqali bo'lajak pedagoglar o'z emotsiyalarini tahlil qilishni, boshqalarning hissiy holatini sezishni va kasbiy faoliyatda ularga mos pedagogik yondashuvni tanlashni o'rganadilar.

Dramatik texnikalar ta'lim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki shaxsni rivojlantirishga yo'naltiradi. Ayniqsa, ularning reflektiv xususiyati pedagogning o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarashini ta'minlaydi.

Dramatik texnikalar — bu pedagogik faoliyatni jonlantirish, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan sahnalashtirish, rolga kirish, improvizatsiya, pedagogik vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan metodlar majmuasidir.

Asosiy dramatik texnikalar quyidagilardan iborat:

- bir kishilik teatr;
- rolli o'yinlar;
- forum-teatr;
- debat tarzidagi pantomimalar;
- aktyorlik texnikasi;
- dramatik dialoglar va monologlar.

O'quv jarayonida "ijro", "spektakl" va "sahna" elementlari asosan standart dars modeli

doirasidan tashqarida ko‘rilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogik paradigmalarda teatr va dramatik metodlar, rolli simulyatsiya, obrazli o‘yin hamda psixodramatik ishlanmalar ta‘limning ichki tarkibiy komponentlari sifatida faol qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlar o‘quv jarayonida interaktiv va faol o‘rganish muhitini yaratib, talabalarni tanqidiy fikrlash, empatiya va ijtimoiy mas‘uliyatni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Shu jarayonning eng ta‘sirchan yo‘nalishlaridan biri sifatida “bir kishilik teatr” metodi o‘quv jarayonida o‘ziga xos, yuqori darajada samarali metod sifatida shakllanib bormoqda.

Quyida talabalarda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi **dramatik texnikalarga** to‘xtalib o‘tiladi:

“Bir kishilik teatr” (monoteatr). Monoteatr talabaning bir o‘zi obraz yaratishi, bir o‘zi pedagogik jarayonga doir ziddiyatli vaziyat, dramatik dinamikani sahnalashtirishi, bir o‘zi dramaturgiya g‘oyalarini ongda kompozitsion jihatdan uzviylashtirib, uni sahna ko‘rinishi shakliga keltirishi, bir o‘zi mazmunning semantik qatlamlarini o‘qishi va auditoriya bilan kommunikativ nutq vositasida bog‘lanish jarayonidir. Mazkur texnikaning o‘ziga xos ustunligi shunda-ki, bunda talaba tashqi tayanch subyektlarsiz ham o‘z psixik energiyasini, nutqiy faolligini va ijodiy tafakkurini tahliliy boshqarishga majbur bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida meta-intellektual rivojlanishning o‘ta samarali ichki mexanizmlaridan biri sifatida ta‘limda yuqori qiymat yaratadi.

Mazkur metod, pedagogik jihatdan qaralganda, “subyektning o‘zini ijobiy tasdiqlash mexanizmi”ni shakllantiradi. “Bir kishilik teatr” texnikasi o‘quv jarayonida ijodiy tafakkur, nutqiy madaniyat, tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash va o‘ziga bo‘lgan ishonchni bir vaqtning o‘zida kompleks rivojlantira oladigan samarador pedagogik metod bo‘lib bormoqda. Bu metod nafaqat bilim beradi, balki shaxsning ichki intellektual mexanizmlarini ham mustahkamlaydi. Shu sababli, ushbu metodlarni ta‘lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish pedagogik transformatsiyaning ajralmas va ilmiy asosli tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu texnikadan talabalarga o‘quv jarayonida mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin.

Didaktik drama texnologiyasidan ta‘lim jarayonida foydalanish pedagog kadrlar tayyorlash tizimida yangi, amaliy va real natija beruvchi texnologiya sifatida ko‘rilmoqda. Bu texnologiya mohiyatan talabani faqat tinglovchi holatida emas, balki faol subyekt, qaror qabul qiluvchi, pedagogik vaziyatni boshqaruvchi, o‘z amaliy xatti-harakatining oqibatini ko‘ra oladigan va uni baholay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon an‘anaviy ma‘ruza, an‘anaviy seminar, an‘anaviy topshiriq tizimidan tub farq qiladi. Chunki didaktik drama jarayonida har bir talaba pedagogik faoliyatning “real harakat mexanizmi”ni o‘z tanasida, o‘z miyasida, o‘z nutqida, o‘z hissiy boshqaruvida amalda boshdan kechiradi. Talaba biror vaziyatni faqat eshitmaydi yoki faqat o‘qimaydi. Talaba uni “bajaradi”. Bajarilgani sababli talaba shu jarayon ichida o‘zida yangi xulq shakllanishini real kuzatadi. Didaktik drama texnologiyasining o‘zi pedagogik kompetensiya bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Pedagogik kompetensiya bu o‘qituvchi tomonidan dars jarayonini boshqarish, o‘quvchi bilan muloqot yuritish, dars jarayonidagi muammolarni hal qilish, dars samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni tanlash va qo‘llash ko‘nikmalaridan iborat. Didaktik drama ana shu ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida bir nechta kanal orqali shakllantiradi: nutq (verbal), tana (neverbal), hissiy boshqaruv (emotsional), fikrlash (kognitiv), refleksiya (fikrni qayta ishlash). Shuning uchun drama texnologiyasi kompetensiya tarkibini fragmentlab emas, integral ko‘rinishda rivojlantiradi.

Kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi dramatik texnikalardan yana biri – rolli o‘yinlar hisoblanadi. Rolli o‘yinlar orqali talabalarda muayyan pedagogik vaziyatga mos munosabat va muloqot uslubi shakllanadi: ular dars o‘tish, ota-onalar bilan suhbat, sinf rahbariyati kabi jarayonlarni o‘z boshlaridan kechirib ko‘rib, tegishli ko‘nikmalarni hosil qiladilar.

Improvizatsiya metodi talabalarning topqirlik, tezkor fikrlash va moslashuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi. Bu borada oldindan tayyorgarliksiz berilgan vaziyatda to‘g‘ri yo‘l topish pedagog uchun muhim kompetensiya ekani shubhasiz.

Forum-teatr talabalarda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi dramatik texnikalardan biri hisoblanadi. Bu texnika talabalarga murakkab nizoli vaziyatlarni hal qilishni *jamoaviy muhokama* orqali o‘rgatadi. Mashg‘ulot davomida bir guruh sahnani ijro etsa, boshqalar ularni kuzatadi va istalgan paytda spektaklni to‘xtatib, o‘z taklifini kiritishi mumkin. Bu usul orqali talabalarda *tanqidiy fikrlash* va *muammo yechishning alternativ yo‘llarini topish* qobiliyati shakllanadi. E’tiborlisi, forum-teatr jarayonida har bir talaba o‘z hayotiy tajribasi va qarashlarini muhokamaga qo‘shadi, natijada muammo turli nuqtayi nazarlardan yoritilib, chuqurroq tushuniladi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘qituvchi rejissyor va fasilitator (jarayon boshqaruvchisi) rolini bajarib, muhokamani maqsadli yo‘naltiradi.

Talabalarda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi dramatik texnikalardan pedagogik dramatisatsiya ta’lim jarayonini teatrlashtirish, o‘quv materialini dramatik shaklda sahnalashtirishni maqsad qiladi. Bu texnika o‘qitishning ichki mohiyatini kichik spektakl yoki rolli o‘yin tarzida namoyon etishni nazarda tutadi. Pedagogik dramatisatsiya talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning diqqatini jalb etadi va ta’limiy vaziyatlarni “jonli” qilib ko‘rsatishga imkon beradi. Bu uslub nafaqat maktab talabari, balki bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ham samarali qo‘llaniladi. Chunki u nazariy bilimlarni amaliy ko‘rinishda tatbiq etish va ko‘rgazmali o‘rganishni ta’minlaydi.

Debat tarzidagi pantomimalar – zamonaviy ta’lim texnologiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu texnika dramatik pedagogika, neverbal muloqot va akademik debat texnologiyalarining integratsiyasi asosida shakllangan bo‘lib, talabalarning kognitiv, affektiv va psixomotor kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda pantomima tana harakati, mimika va jestlar orqali ma’no uzatishga asoslangan san’at turi sifatida talqin qilinadi, debat esa muayyan muammo yuzasidan qarama-qarshi pozitsiyalarni dalillash, tahlil qilish va baholash jarayoni sifatida izohlanadi.

Talabalarda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantirishda aktyorlik texnikasi muhim ahamiyatga ega. Bu texnika teatr pedagogikasiga xos bo‘lgan, sahnadagi harakat va ifoda usullarini ta’lim jarayonida qo‘llash texnologiyasidir. Didaktik drama asosidagi yangi modelda aktyorlik texnikasi o‘qituvchi va talabalarning o‘z rollarini ijro etish, ovoz, imo-ishora, yuz ifodasi kabi omillarni ongli ravishda qo‘llashini nazarda tutadi. O‘qituvchilar teatr o‘yinlari va mashqlaridan foydalanib, auditoriya muhitni boshqarish va talabalar diqqatini jalb etishda katta samara ko‘rishlari mumkin.

Talabalarning kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishda ijtimoiy drama texnikasi didaktik imkoniyatlari kengligi bilan ajralib turadi. Guruh ishtirokchilari hayotdagi muayyan ijtimoiy vaziyatni birgalikda sahnalashtirib, uni jonli tarzda hal etishga urinadigan o‘yin-metoddir.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, ijtimoiy drama doirasida ishtirokchilar oldindan tayyorlanmagan holda o‘zaro kelishilgan bir ijtimoiy muammoni ijro etadilar. Undan ko‘zlangan maqsad – guruh a’zolarining umumiy hayotiy tajribasiga tayangan holda muammoni chuqurroq anglash va yechim topishdir.

Didaktik drama dramatik texnikalarni maqsadli, tizimli va pedagogik vazifalarga mos holda qo‘llashga asoslangan integrativ metod bo‘lib, u talabalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki shaxsiy va emotsional sifatlarni ham rivojlantiradi. Kasbiy mahorat pedagogning bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarining uyg‘un majmui hisoblanadi. Musiqa madaniyatining

refleksiv-ta'sirchan yondashuvi ushbu komponentlarning rivojlanishiga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

- **Kommunikativ mahorat** – musiqiy obrazlar orqali his-tuyg'ularni anglash va ifodalash;
- **Pedagogik takt** – emotsional sezgirlik asosida o'quvchi bilan muloqotni moslashtirish;
- **Refleksiv mahorat** – musiqiy tajribani pedagogik faoliyat bilan taqqoslash;
- **Ijodiy yondashuv** – musiqadan ilhomlanib, dars jarayonini kreativ tashkil etish.

Didaktik dramaning afzalliklari:

- real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish;
- o'rganilayotgan bilimlarni emotsional idrok etish;
- refleksiv va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- empatiya va pedagogik taktning shakllantirish.

Musiqaning madaniyati insonning emotsional dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan san'at turi bo'lib, u ta'lim jarayonida emotsional muhitni boyitadi. Pedagogik ta'limda musiqaning qo'llanilishi:

- talabalarning emotsional sezgirlikni oshiradi;
- estetik did va madaniy ongning shakllantiradi;
- refleksiv tafakkurni rivojlantiradi;
- dramatik faoliyatning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Musiqaning dramatik sahnalashtirish bilan uyg'unlashganda, pedagogik vaziyatlarning mazmuni chuqurroq idrok etiladi va talabalarda kuchli emotsional aks-sado uyg'otadi. Bu esa pedagogik tajribani shaxsiylashtirishga olib keladi.

Refleksiv-ta'sirchan yondashuv — bu ta'lim jarayonida shaxsning ichki kechinmalari, hissiy tajribasi va ongli tahlilini uyg'unlashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Dramatik texnikalar va musiqaning madaniyati ushbu yondashuvning asosiy vositalari sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuv quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi:

- kasbiy o'zini anglashning rivojlanishi;
- pedagogik refleksiyaning chuqurlashuvi;
- emotsional intellekt va empatiyaning shakllanishi;
- pedagogik muloqot madaniyatining yuksalishi.

Talaba dramatik vaziyatda faol ishtirok etib, musiqaning orqali emotsional ta'sirni his etar ekan, u o'zining kasbiy pozitsiyasini ongli ravishda qayta ko'rib chiqadi.

Dramatik texnikalar va musiqaning madaniyatining integratsiyasi pedagogik ta'limda innovatsion muhitni yaratadi. Bu jarayonda:

- nazariya va amaliyot uyg'unlashadi;
- talabalarning ijodiy faolligi oshadi;
- ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan tus oladi.

Integratsion yondashuv pedagogik faoliyatni san'at bilan boyitib, ta'limni faqat bilimlar majmui emas, balki hayotiy tajriba sifatida anglash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta'limda dramatik texnikalar va musiqaning madaniyatining refleksiv-ta'sirchan yondashuvi bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini, emotsional-intellektual salohiyatini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, zamonaviy pedagog shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvni pedagogik ta'lim amaliyotiga keng joriy etish pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukadirov A.A. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Ashurova D.M. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Bolton G. Drama as Education: An Argument for Placing Drama at the Centre of the Curriculum. – London: Longman, 1998.
4. Howell P., Heap B.S. Planning Process Drama. – London: David Fulton Publishers, 2013.
5. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
6. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
7. Heathcote D., Bolton G. Drama for Learning: Dorothy Heathcote’s Mantle of the Expert. – London: Heinemann, 1995.
8. Kodirov B.R. Pedagogik refleksiya va kasbiy rivojlanish. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
9. McNiff S. Art as Research: Opportunities and Challenges. – Chicago: Intellect Books, 2011.
10. Nazarova G.S. Musiqa madaniyati va estetik tarbiya asoslari. – Toshkent: Musiqa, 2017.
11. O‘rinboyeva M.N. Pedagogik ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
12. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
13. Slade P. Child Drama. – London: University of London Press, 1954.
14. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. – Moscow: Progress Publishers, 2004.
15. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2016.

IJODIY ISHLAR



QO'RQUV

Yoz fasli. Quyosh osmonda go'yo qotib qolganday — na siljiydi, na rahmi keladi. Kun issiq. Havo dim. Nafas ham og'ir. Odatda talabalar shovqini bilan to'lib-toshadigan institut hovlisi bu kunlari g'oyat sokin. Ta'til boshlangan, yoshlar tarqab ketgan. Faqat fanlardan akademik qarzdor bo'lgan sanoqli talabalar imtihon tashvishida u yoq-bu yoqda ko'rinish berib qoladi.

Shovqinli, serharakat kunlar o'tib, institutda osoyishtalik hukmron. Lekin ish baribir davom etadi. Hayot ta'tilni bilmaydi. Yillik hisobotlar, bitiruvchilarning hujjatlari, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik — bularning bari bizni ish stoliga mixlab qo'ygandek edi. Vaqt qanday o'tayotganini sezmayсан, lekin qorin ochganini tan olging ham kelmaydi.

Bir mahal sherigim bilan ko'z urishtirdik. Ikkovimiz ham charchagan, ammo buni tan olishga andarmiz.

— Chiqib, bir oz yozaylikmi? — dedi u. Bu taklifni kutib turgandek bosh irg'adim.

Kun shu qadar issiq ediki, avtobusda yurish azobning o'zi. Shu sabab qimmatroq bo'lsa ham, institutga yaqinroq bozorga borishga kelishdik. Ko'chalar oralab, soyali joylarni izlab yo'lga tushdik. Yo'l-yo'lakay suhbat qizidi. Eski voqealarni esladik, ishdagi kulgili holatlarni gaplashdik.

Biz shunaqa edik: yillar davomida birga ishlaganmiz. Ertalab ishga birga kelamiz, kechga uyga ham birga qaytamiz. Ishda bir-birimizni bemalol to'ldiramiz. "Sening ishing, mening ishim" degan gap bizga begona. Shu yaqinligimiz sabab ustozlar bizni hazillashib Hasan va Husayn deyishardi. Bittamiz ko'rinmay qolsak, albatta:

— Ikkinchisi qayerda? — deb so'rashardi.

Yolg'iz zerikish nimaligini bilmaymiz. Suhbatimiz uzilmaydi. Vaqt qanday o'tganini ham sezmay qolamiz.

Bozorga yetib keldik. Bu yerda havo yanada dim. Meva-chevalarning hidi, savdolashayotgan odamlarning ovozi, bolalarning yugur-yuguri — hammasi bir- biriga qorishib ketgan. Uy-ro'zg'or uchun kerakli masalliqlardan ozroq-ozroq oldik. Issiqda ko'p yuk ko'tarishning foydasi yo'q.

Chiqish tomonga yo'nalganda, yo'lak chetida yo'l ustiga yoyilgan yengil yozgi kiyimlar e'tiborimizni tortdi. Sherigim issiqda kiyishga qulay futbolkaga ko'zi tushib:

— Bitta ola qolaylik, — dedi.

Narxini so'rab, kiyimlarni ko'zdan kechirayotgan edik, birdan vahimali bir qichqiriq yangradi:

— Yig'ishtir! Yig'ishtir kelyapti!

Xuddi bozorga sovuq suv sepilgandek bo'ldi. Bir zumda sotuvchilar shoshib qolishdi. Kimdir kiyimlarini g'ijimlab yig'di, kimdir hastalab chamadoniga tiqdi, yana kimdir aravachasini sudrab qochdi. Atrofimizda vahima. Biz esa nima bo'lganini tushunmay, hayrat ichida turib qoldik.

Kim kelyapti? Kimdan bu darajada qo'rqishyapti?

Bir oz chetroqqa chiqib, vaziyatni kuzatdik. Yo'lak oxirida bir erkak qo'lga kiyimlarni olib, bozor ichkari tomon kirib ketayotganini ko'rdik. Sherigim:

— Shu kishidan savdo qilaylik, — dedi.

Ammo biz yaqinlashgan sari u ham qadamini tezlashtirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Qo'limizdagi yuk bilan ichkariga kirgimiz kelmadi. Yuklarni bir chetga qo'yib, kutib turdik. Issiq jonni qiynay boshlagach, muzqaymoq oldik. Suhbat yana qizidi. Lekin ko'zimiz hamon sotuvchilarda edi.

Ular chekka-chekkada turib, yo‘lak boshini poylashardi. Har bir kelgan odamga shubha bilan qarashardi. Bu hol menga nimanidir eslatdi: qo‘rquv bilan yashash — insonni doim hushyor, lekin charchagan holga soladi.

Oxiri ayollardan biri toqat qilolmadi. U jahli bilan matosini yoyib, kiyimlarini terib chiqdi.

— Bo‘ldi endi! — dedi titroq ovozda. — Qanchagacha yashirinib yuramiz?

Qo‘lingdan kelsa, qaragin! Bolalarimni boqishim kerak!

Bu gapi oddiy norozilik emas edi. Bu — hayotdan dod edi.

Uning mollarini ichida ko‘zimiz tushgan futbolka ham bor ekan.

Yaqinlashdim.

— Xola, shu futbolka sotiladimi? — dedim iloji boricha muloyimlik bilan. Ayol darhol yana yig‘a boshladi.

— Sotiladi... — dedi. Ovozidan qo‘rquv sezilib turardi.

— Qancha? — dedim.

U menga diqqat bilan qaradi:

— O‘g‘lim, qayerda ishlaysiz? — dedi ehtiyotkorlik bilan.

— Institutda o‘qituvchiman, — dedim.

Go‘yo yelkasidan tog‘ ag‘darilgandek bo‘ldi. Yuzida yumshoqlik paydo bo‘ldi.

— Voy, unday deng... — dedi va atrofdagilarga:

— Chiqaveringlar, o‘qituvchi ekanlar, — dedi.

Ana shunda hammasi ravshan bo‘ldi. Bizni nazoratchi deb o‘ylashgan ekan. Oq ko‘ylak, ko‘krak cho‘ntagida qizil guvohnoma — o‘sha paytda bu belgilar odamlarni qo‘rqitadigan ramzga aylanib ulgurgan edi.

Bozordan zo‘rg‘a chiqdik. Tashqariga chiqqach, kulgimizni tutolmadik. Yo,,l bo,,yi ichak uzilgudek bo‘lib keldik. Quyoshning tig‘i ham, qo‘ldagi yuk ham sezilmadi.

Lekin kulgu ortida achchiq bir haqiqat bor edi.

O‘sha zamonlarda odamlar tirikchilik uchun qo‘rquv bilan yashar edi. Har bir begona — xavf, har bir savol — tahdid. Zamon shunaqa edi. Bugun esa bu voqea kulgili xotiraga aylangan.

Ammo men bilaman: **qo‘rquvni boshdan o‘tkazmagan odam erkinlikning qadrini anglamaydi.**

2006-yil Oloy bozorida bo‘lgan voqea

N.B. Shamsiddinov

“HAYOT”

Onajon yana o‘sha erka qizingiz
Yuz tutadi hayot tashvishi tomon.
Sal yig‘loqi, kichkintoyingiz
Katta bo‘lolmayapti hamon.

O‘qiyapti oliy dargohda,
Ilm olib ulug‘ ustozdan
Sekin sekin unyapman ona
Hayot degan qalin tuproqdan.

Dadam so‘zin olib quloqqa
Hop bo‘ladi dedim bariga
Yashayabman jimgina dada
Ko‘nib hayot yolg‘on rostiga.

Aslida siz haq ekansiz
Aytgan har gapingiz rost
Bu hayotda halol bo‘lsak gar
Alloh berar bizga barini.



Ochilova Mushtariy Behzod qizi
2005-yil 17-martda Jizzax viloyati Forish tumanida tug‘ilgan. “TIQXMMI” MTU “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti 3-bosqich talabasi.

FENOMEN YODI

Mumkin o‘chirmoqlik qalam izlarin,
Ko‘rinmaydi zumda qora chiziqlar.
Lekin u qog‘ozga tekkani uchun
Yozilgan barcha so‘z bir umr qolar.

Buyuk shoir yozilgan umr daftari,
Hayot yo‘llari-yu bari, barchasi
O‘chirilgan, balki, o‘z Egasidan
Balkim, qolmagandir hech bir qorasi.

Aslo! Fenomenning yorug‘ nurlari
Hech ham tark etmagay o‘zbek osmoni
Tomchi-la barhayot, cheksizlik sari
Intilaveradi ko‘ngil ummoni.

Birinchi muhabbati qoshida hozir
Kuzatib turibdi aziz xalqini.
Tiriklik, jon ato etilgan she’rlar
Komillikka yetkazar, charxlab aqlni.

Sog‘indim dahoning sevgan bahorin
Yilda har yil ko‘klam , har gal namoyon
Ammo asl Qahramon olgan nafasdan
Bir paytda olmaslik bo‘lmoqda armon.

Men doim uni o‘z qalbimda saqlay
Axir udir asl inson timsoli.
Abdulla Orifning ko‘nglin chog‘lagan
Doim esib tursin “Yurtim shamoli”.



Matkarimov Ulug‘bek Murodjon o‘g‘li
*Farg‘ona viloyatida tug‘ilgan. “TIQXMMI”
milliy tadqiqot universiteti “Iqtisodiyot”
fakulteti 4-bosqich talabasi*

SOG'INGANMAN...

Olib kelgandi, meni - "o'lim",
Nish urganda umrim chechagi.
Bugun she'r o'qiydi, burro tilim,
Bola emasman, endi kechagi.

Tug'ilgandim, kechagi kunda,
O'rgandim endi, yurishni.
Qah-qah otib, samimiy handon,
Sog'inganman, o'sha kulishni.

She'rlar yozib, har kuni tunda,
Yoqtirardim hayol surishni.
Qasrlar qurib, uyilgan qumdan,
Sog'inganman, "erka" bo'lishni.

G'amlarni berkitib, kulgi ortiga,
O'rgandim bugun, soxta kulishni,
Endi yetib, vaqtning qadriga,
Sog'inyapman beg'am yurishni.

Yillar o'tar, shabboda, yeldek,
Ne sinovlar o'tkazdim boshdan.
Siz bilgan o'sha - Madaminbek,
Mana, bugun yigirma bir yoshda.

Bolalik qoldi, sur'atlardi jim,
Tugab bitdi, yoshlik ertagi.
Qalbda isyon, tosh qotgan til,
Bola emasman, endi kechagi.



Xolmatov Madaminjon
Muxammadjon o'g'li

2003-yil 4-iyun Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida tug'ilgan. "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti Yer resurslari va Kadastr fakulteti 4-bosqich talabasi.

MEN ONAMNI BAXTLI QILAMAN

Yuragini baxtga to'ldirib
Baxtlilardan qilib yuraman
Uzoqroq tur mendan ey xayot
Men onamni baxtli qilaman

Ko'zlari doim meni kutadi
Duolardan tushmas qo'llari
Meni o'ylab kunlar o'tadi
Men onamni baxtli qilaman

Aytolmagan dardlarin olib
Sokin suvdek xalovat solib
1kun emas har kuni qolib
Men onamni baxtli qilaman

Dardlarini olguchi o'zim
Kuchu quvonch ham berguchi o'zim
Qalb sherlarin yozguvchi o'zim
Men onamni baxtli qilaman



Maxmudova Laylo Maxsud qizi
2005-yil 14-oktyabr Toshkent viloyati Parkent tumanida tug'ilgan. Gidromelioratsiya fakulteti Meliorativ gidrogeologiya yo'nalish talabasi 3-bosqich talabasi.

DIL OYNASI

Yuragim bo‘ldi pora
Dil oynasi chil chil
Bu qandayin og‘ir dard
Toshyurak bemehr ko‘ngil

Qiyo boqmadi taqdir
Yuz ogirdi xattoki omad
Panoz izlab olloxdan
Undan kutarim saxovat

Kechalari yo‘q orom
Adolatmi ayt qalbim
Bo‘lmay mayli yulduz
Baxt menga bir ko‘z suz

YOSHLIK

Oltin davring bu yoshlik
Doim qadriga yetsinss
Nasib etsa keksalik
Ezgu ishlar qilib ket

Shuning uchun ey do‘stim
Kelajak poydevoriga
Ezgulikdan tosh qo‘ygin
Yaxshilik suvin quyib
Baxt qolipin surgin

Omaddan fundament qazi
Toledan qo‘ygin to‘sin
Qadaming shu bo‘lar
G‘ururdan ishlarsan ustun

Bir kun kelib ishingga
O‘zing qoyil qolasan
Baxtdan qurgan uying
O‘zing rohat ko‘rasan.



To‘xtaboyeva Gulbahor Azimboy qizi
*1993-yil 11-mart Toshkent viloyati Parkent
shahrida tug‘ilgan.
TIQXMMI MTU Energetika fakulteti 4-
bosqich talabasi*

SEVGI

Sevgi bu go‘zal bir tuyg‘u
Sevishgan dillarda nomi
Qalblarning birlashuvi bu
Nigoxlar to‘qnashuvidir

Oldinda kelajakning nurafshon
Beg‘ubor damlaridan nishon
Olamda tosh yuraklilar
Qalbini ilitar pinxon

Panoz so‘rar ollohdan
Sevgisiga bu dillar
Abadiylik istar shu dam
Shaydo bo‘lar ko‘ngillar

Мирзохид БЕКМИРЗАЕВ

Гўзаллардан гўзал кўп аммо,
Сен уларнинг ичида танҳо.

Ягонасан ёруғ оламда,
Қоши қаро, кўзлари шахло.

Малҳамисан ошиқ қалбимнинг,
Юрагимнинг дардига шифо.

Оҳ урарман, излаб васлингни,
Келгил энди, қилмагил жафо.

Адо бўлдим ишқингда жоним,
Буни билар бир мену худо.

Дариғ тутмай меҳрингни энди,
Мирзохидга айлагил вафо.

* * *

Йўлларида интизор, парвоналаринг
курсин,
Висолингга зор бўлган, девоналаринг
курсин.

Ёнингга борай десам, севгим изҳор этай
деб,
Халал берар ҳар сафар дугоналаринг
курсин.

Кулиб ўтиб кетарсан, сен мени
кўрганинда,
Хаёлим олар сенинг, мастоналаринг
курсин.

Жондан сени севарман, сен меники
бўларсан,
Ўзга билан боғласанг, паймоналаринг
курсин.

Фироғингда ўртаниб, ҳажрингда
бўлдим бемор,
Мисоли Лайли-Мажнун афсоналаринг
курсин.

Жавоб берақол десам, севгимнинг
саволига,
Ошиқ Мирзога айтган баҳоналаринг
курсин.

* * *

Эй менинг севгилим, барногинам,
Гўзаллар ичида танҳогинам.

Сенсиз яшай олмасман сира ҳам,
Лайломисан ёхуд Раъногинам.

Кўзларингга термулиб тўймайман,
Сўзларинг асалдир маъногинам.

Ақлда тенги йўқ жононасан,
Бунчалар зуккосан, доногинам.

Мен васлингга зорман, интизор,
Келақол жонимга орогинам.

Мирзо ишқи тушди сен санамга,
Ёндирма кўзлари шахлогинам.

* * *

Менинг кўнглим фақат сизда,
Сиздек гўзал дилбар қизда.

Бокмай қиё ўтарсиз ёр,
Девонаман ишқингизда.

Ортингиздан термуламан,
Кўзларим сиз босган изда.

Бўйингизга жон тасаддуқ,
Ёшингиз ҳам ўн саккизда.

Йўқ-йўқ дея бағрим тилманг,
Ёки гуноҳ кўпми бизда.

Рухсат этинг Мирзохидга,
Доим бўлай ёнингизда.

* * *

Муҳаббат ром айлагай, шоҳни ҳам,
гадони ҳам,
Четда қолдиргани йўқ, мендайин
шайдони ҳам.

Суйиб куйдим етолмай, ҳажрида қон
йиғладим,
Ҳар бир томчи кўз ёшим, боғ қилур
сахрони ҳам.

Кўнглим узиб кўнглидан кетолмасман,
нетайки,
Менчалик севмаганди, ошиқ Қайс
Лайлони ҳам.

Воз кечолмай қийноқда, кеча-кундуз бу
жоним,
Оҳу нолам титратиб, тинч қўймас
самони ҳам.

Нима ҳам дердим сизга, зорим бору
зўрим йўқ,
Биз ҳам топиб олармиз сиздай қош-
қарони ҳам.

Майли мендан бир умрга юз ўгириб
кетсангиз,
Лек бир бор эслаб қўйинг, бу Ошиқ
Мирзони ҳам.

* * *

Аё дилбар, ширин сўзим, эй париваш,
соғиндим,
Қошлари ёй, киприги ўқ, кўзи маҳваш,
соғиндим.

Узун тунлар бўлиб бедор, ўртанурман
ишқингда,
Фикру ёдим сенинг бирлан, қолиб
яккаш, соғиндим.

Қани шул дам оёғингга бошим қўйиб
ётсайдим,
Ўлсам эди армоним йўқ, бўлиб оташ,
соғиндим.

Севгилим, кел, ҳеч бўлмаса,
тушларимга кириб тур,
Нозли бир жилмайиб аста қилгил
қараш, соғиндим.

Ўшал Фарҳод ким бўлибди, мен
ошиқнинг олдида,
Бамисоли телба Мажнун каби ўхшаш
соғиндим.

Ошиқ Мирзо тинмай битар ишқ
 аталмиш достонин,
 Бахтим ўзинг, меҳрибоним, жоним
 Онаш соғиндим.

* * *

Ҳаётим ҳам, қувончим ўзинг,
 Умрим йўлин ташвиши ҳам сен.
 Таянчим ҳам, суянчим ўзинг,
 Юрагимнинг уриши ҳам сен.

* * *

Борлиғимни сенга этгандим фидо,
 Армонга айландинг, бир умр севгим.
 Рухсоринг кўз ўнгим тарк этмас асло,
 Номинг мангу абад, унутмас қалбим.
 Оромимни буздинг, йўқолди ҳушим,
 Хазон босди умрим чечакларини.
 Оҳларим етмади, учмас дил қушим,
 Ногоҳ ташлаб кетдинг тилакларини.

* * *

Бу фалак бошида не кунлар бордир,
 Кимлар дўстга зордир, душманга
 хордир,
 Интилган инсонга толе ҳам ёрдир,
 Ахир, Аллоҳ бордир, ягона ёлғиз.

Севгилим, сўзингдан ёнади қалбим,
 Гўзалим тушунгил менинг бу дардим.
 Кутаман, ўлгунча етади сабрим,
 Ахир, юрагим бир, яралган ёлғиз.

Ҳаёлингга фидо айлаб ҳар онни,
 Висолингга фидо этай бу жонни,
 Ўхшашинг топмадим кезиб жаҳонни,
 Ахир, сен биттасан, яралган ёлғиз.

Агар сен йўқотсанг бахт юлдузингни,
 Қайта тополмайсан дўст, дилсўзингни,
 Кейин койимагин ўзинг-ўзингни,
 Ахир, мен биттаман, яралган ёлғиз.

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**“IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI” ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI**

“TARANNUM”

**ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy,
publitsistik jurnal**

2026/1 (№3)

Tahririyat manzili:

Qori Niyoziy ko‘chasi - 39. Toshkent shahar - 100000
Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times New Roman” garniturasida.

“Science and innovation” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 100121, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Shota Rustaveli 150, “Vega” biznes markazi, 6-qavat, 2-xona.
+998993319654, +998901259654